yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekologiya masalalalarining keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi nevrllarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi.

Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshtish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarining o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshkaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nug'iy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'liq buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6—8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3—6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4—6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1—3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali qulog'i zaif eshitishda bola o'rta me'yorda ovoz bilan

gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos.

Qulog'i og'irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atining kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan-gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish-o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir.

Bola nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga noto'g'ri munosabatda bo'lishadi, natijada bola injiq, yig'loqi, serjaxl, gap o'tmas bo'lib qoladi, ya'ni unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda ta'lim-tarbiya olishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Uziksiz ta'lim tizimida O'zbekistonda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va kasb-xunar kolejlari maxsus guruxlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu toifadagi bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatlarda maktabgacha tarbiya bo'limi xamda umumta'lim maktab bo'limi mavjud. Ushbu muassasalarda ta'lim umumta'lim 9 yillik ta'limning davlat talablari va dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishlashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki maktablarda ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak, eshitish nuqsonlarini bartaraf etish, to'la kompensatsiyalash, mumkin. Tarbiyachi va o'qituvchilarning asosiy vazifasi — sog'lom bolalarni zaif eshituvchi bolalardan ajratib, ularga alohida yondashish, zarur bo'lsa, ularning "maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishini yoki integratsiyalashgan ta'limga jalb etilishini ta'minlashdan iborat.

Maxsus muassasalarda o'z fikrini og'zaki ifodalay olmasligini his etgan o'quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarni o'z fikrini og'zaki, yozma bayon etishga o'rgatish amaliy nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.



Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirish yuzasidan dars va mashg'ulotlarda muayyan tizimdagi mashqlar asosida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati tashkil etiladi, didaktik vositalarning barcha turlarini nutqiy jarayonga moslay olish talab etiladi. Nutqiy materiallarning amaliy egallanishini ta'minlash uchun maxsus sodir etilgan muammoli nutqqa (gapirish, yozib tushuntirishga) ehtiyojni tug'diruvchi vaziyatlar oldindan rejalashtiriladi. Bunda nutqiy materiallar fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida, rejalashtirishlarda oldindan belgilangan bo'ladi, ya'ni korreksion-pedagogik jarayon muayyan tizim asosida amalga oshiriladi.

Har bir dars uchun nutqiy materiallar korreksion-kommunikativ tizim tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda (o'quvchilarning eshitish, talaffuz qilish imkoniyatlariga mos, talaffuzi yaqqol va eshitilish diapazoni yengil, oddiydan murakkabga, no'xshashlikdan-o'xshashlikka boruvchi tartibda) tanlanadi va tayyorlanadi.

So'zlashuv nutqiga ehtiyojni tarbiyalash oiladan boshlanishi, ya'ni maktabda egallangan nutqiy ko'nikma va malakalar oilada tabiiy vaziyatlarda mustahkamlanishi va o'quvchilar amalda (erkin, qo'rqmasdan, uyalmasdan) qo'llashlariga erishish uchun keng sharoit yaratilmoqda. Ushbu sharoit oila a'zolari ishtirokida yaratiladi. Ularning kar bola bilan keng muloqoti va iliq munosabati bolaning keyingi bosqich ta'lim-tarbiyasiga va umuman taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyati eshitish (har qanday daraja karlikda u ma'lum miqdorda bo'ladi) qoldig'idan optimal ravishda foydalanishga bog'liq bo'lganligi tufayli maxsus muassasalarda ta'limni ovoz kuchaytiruvchi apparatlar asosida olib borish talab etiladi. Sinflar maxsus jihozlanadi. Ya'ni maktab-internat moddiy texnika negizining yo'nalishga mos shakllanishi ta'lim mazmunining samaradorligini oshiradi.

Kar va zaif eshituvchi bola o'z ona tilini shu til qonuniyatlari, xususiyatlaridan kelib chiqqan, mazkur bolaning ruhiy, nutqiy imkoniyatlariga moslashtirilgan, korreksion-kommunikativ tamoyillarga asoslangan va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan maxsus yondoshuv asosida egallaydi.

Maxsus maktab-internatlarda ta'lim-tarbiya jarayonini, xususan ona tili ta'limini amalga oshirishda o'quvchilarning fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatishda daktill belgilardan tegishli bosqichlarda o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirishga ijtimoiy ehtiyoj sifatida yondoshish dolzarb masaladir. Buni amalga oshirish mazkur bolalarning jamiyatga moslashuvi, ularning borliqni anglashlari hamda ularni atrofdagilar qanchalik tushunib qabul qilishlari bilan belgilanadi.

Kar va zaif eshituvchi bola jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning barchasida me'yorda rivojlangan, sog'lom tengqurlari qatorida o'z ona tilida bemalol, erkin, samarali va barcha uchun (nafaqat o'zi kabi taqdirdoshlari) tushunarli tarzda muloqot qila olishini ta'minlash mumkinligi amalda o'z isbotini topmoqda.

O'quvchilarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyatini rivojlantirish, o'z ona tilida sog'lom tengqurlari kabi so'zlashish, fikr almashishini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-korreksion jarayonni yagona tizim asosida amalga oshirish orqali takomillashtirilmoqda.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari o'quv rejasiga «Labdan o'qish» ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash mashg'ulotlari kiritilgan.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatlarining barchasi ovoz kuchaytiruvchi apparatlar bilan ta'minlangan, xonalari maxsus tovush qaytarmaydigan qoplamalar bilan jihozlanadi, sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarni maqsadli amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilgan.

Xozirgi kunda surdopedagogikada kar va zaif eshituvchi bolalarning maxsus ta'lim bilan erta qamrab olinishi, rivojlanishi, korreksiya-kompensatsiya qilinishi masalalari dolzarbdir. Respublika ijtimoiy adaptatsiya markazi, Avloniy nomidagi KTXMO instituti xamda RTM xodimlari buning uchun uslubiy ko'rsatmalar yaratish ustida faol mehnat qilib kelmoqdalar.

### Savol va topshiriqlar

1. Bolaning eshitish idrokida qanday muammolar kuzatilishi mumkin?
2. Bolaning eshitish darajasini aniqlash usullari.
3. Kar bolalar ta'rifi
4. Zaif eshituvchi bolalar.
5. Kech kar yoki keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar.
6. Maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xosligi nimada?



## II BOB. ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH USTIDA ISH OLIB BORISHNING TIZIMI

### Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'stirish vazifalari
2. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida ish olib borish bosqichlari
3. Dastlabki davrda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'stirish
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'stirish yo'llari

### 1-§ Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'stirish vazifalari

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalar bolalarni kamol toptirish, maktab ta'limiga tayyorlash, ularda mavjud bo'lgan kamchiliklarni korrekciya va kompensatsiyalash vazifalarini amalga oshiradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun kar bolalarning suzli nutqini fikrlash va muloqot qilish vositasi sifatida sifatida shakllantirish va rivojlantirish kerak. Shunday qilib, kar bolalarning nutqiy va umumiy rivojlanish jarayonlari uzviy bog' likdir, zero bolaning umumiy kamol topishi zaminida ularning nutqiy rivojlanishi amalga oshiriladi. O'z navbatida rivojlangan so'zlashuv nutq, bolaning umumiy chegaralanib qolishi mumkin.

Masalan, rasm chizish, qurish-yasash, applikaqiya Mashg' ulotlarida nutq o'stirishga meyerdan ortiq e'tibor berish oqibatida aynan tasviriy faoliyat bilan shugullanishga vaqt yetmasligi mumkin. Ta'limning 1-2- yillarida turli faoliyatlarni tashkil etish jarayenida bolalar o'rtasida to'laqonli nutqiy muloqot o'rnatilmasligi, ya'ni rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlash mashg' ulotlarida ular «dumalat, «yelimla» «yopishtir, «qirqib ol», «kvadrat» kabi so'zlarni tushunsa ham ulardan foydalana olmasligi mumkin. Turli faoliyat jarayonida bolalar «ber», «ushla, «ol» kabi so'zlar yordamida o'zaro muloqotda bo'la oladilar.

To'g' ri va samarali tashkil etilgan turli xil faoliyatlar bolalar tafakkuri va nutqining shakllanishini ta'minlaydi. Bolalar faoliyatining rivojlanishi bilan ularning bilishga doir qiziqishlari va muloqotda bo'lish ishtiyoqi o'sib boradi va nutqning o'sishiga yordam beradi.

Turli faoliyatlar jarayonida o'zlashtirilgan so'z va iboralar bevosita lug' atni kengayishiga, grammatik jihatdan shakllanishiga xizmat qiladi.

Bevosita jonli muloqotda qo'llaniladigan nutq, maxsus mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan nutqqa nisbatan puxtaroq o'zlashtiriladi. (B.D.Korsunskaya).

**Maktabgacha yoshidagi kar bolalar ta'limida og'zaki, yozma, daktil nutq turlaridan foydalaniladi.**

Ta'limning dastlabki bosqichlarida, og'zaki nutq endigina shakllanib kelayotgan davrda bolalar imo-ishorali muloqotga to'liq o'tib ketishi havfi tugiladi. Imo-ishorali nutq bolalarning muloqotda bo'lish ehtiyojini qondirgani uchun, so'zlashuv nutqining o'sishiga to'sqinlik qiladi, ularda yangi so'zlarni o'zlashtirish, lugatni boyitish ishtiyeq so'nib boradi.

Daktil nutqning qo'llanishi bu ziddiyatlarga barham beradi. B.D.Korsunskaya, L.P.Noskova, L.A.Golovchitslar tomonidan daktil nutq yordamidagi muloqotni o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, maxsus bolalar bog' chasiga kelgan kar bolalar yil davomida 150-200 ta so'zni o'zlashtirib, ta'limning ikkinchi yilida bu lugat ularning nutqida faol ishlatila olishini ko'rsatdi. Yilning ohiriga kelib bolalar bir-ikki takrorlashdan so'ng so'zlarni eslab koladi.

So'zlashuv nutqdan o'zaro muloqotda foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan vaziyatlarda ularning nutqqa bo'lgan qiziqishi ortadi, bolalar buyummlar va harakatlar qanday atalishini so'rab olishga va o'z xohish istaklarini so'zlar yordamida bayon etishga intiladi.

Maxsus kar bolalar bog' chasida ta'lim berish dasturining barcha bo'limlarida, mashg' ulotlarda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan muayyan bilim va malakalar bilan birgalikda, turli faoliyat jarayenida egallaniladigan lugat boyligi, so'zlar, so'z birikmalari, matnlar belgilanadi. Nutqiy material bolalarning turli faoliyati jarayenida ularning muloqotda bo'lish ehtiyoji hisobga olingan holda belgilanadi. Ya'ni, dasturda kun davomida, jismoniy tarbiya, rasm, loy va plastilin bilan ishlash, applikaqiya, qurish-yasash, mehnat, musiqa, tevarak-atrof bilan tanishtirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, mashg' ulotlarida qo'llanadigan nutqiy material berilgan. Shuningdek, dasturda nutq o'stirish mashg' ulotlari bo'yicha maxsus nutqiy material belgilangan.

Shunday qilib, bolalar nutqini o'stirish bo'yicha korreksion faoliyat ikki yo'nalishishda olib boriladi:

1. Turli faoliyatlar jarayonida bolalar nutqini o'stiriladi.
2. Maxsus nutq o'stirish mashg' ulotlari tashkil etiladi.

### Eshitish idrokining rivojlanishining ahamiyati

Erta va maktabgacha yoshdagi bolada eshitish idrokining rivojlanishi dunyoning tovush tomoni haqida g'oyalarni shakllantirishni, tirik va jonsiz tabiat ob'ektlari va hodisalarining eng muhim xususiyatlari va xususiyatlaridan biri sifatida tovushga yo'naltirishni ta'minlaydi. Tovush xususiyatlarini o'zlashtirish bolaning kognitiv rivojlanishi jarayonida muhim bo'lgan idrokning yaxlitligiga yordam beradi.



Ovoz inson xatti-harakati va faoliyatini tartibga soluvchi omillardan biridir. Kosmosda tovush manbalarining mavjudligi, tovush ob'ektlarining harakati, tovush balandligi va tembrining o'zgarishi - bularning barchasi tashqi muhitda eng adekvat xatti-harakatlar uchun sharoitlarni ta'minlaydi. Binaural eshitish, ya'ni tovushni ikki quloq bilan idrok etish qobiliyati kosmosdagi ob'ektlarni aniq lokalizatsiya qilish imkonini beradi.

Nutqni idrok etishda eshitish alohida o'rin tutadi. Eshitish idroki birinchi navbatda odamlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirni ta'minlash vositasi sifatida rivojlanadi. Eshitish idrokini rivojlantirish jarayonida nutqning eshitish farqlari aniqlanganda, boshqalarning nutqi, so'ngra bolaning o'z nutqi haqida tushuncha shakllanadi. Og'zaki nutqning eshitish idrokini shakllantirish bolaning tovush, fonetik kodlar tizimini o'zlashtirishi bilan bog'liq. Fonemik tizim va talaffuzning boshqa tarkibiy qismlarini o'zlashtirish bolaning shaxsiy og'zaki nutqini shakllantirish uchun asos bo'lib, bu bolaning inson tajribasini faol o'zlashtirishini belgilaydi.

Musiqani idrok etish eshitish asosiga asoslanadi, bu bola hayotining hissiy va estetik tomonini shakllantirishga yordam beradi, ritmik qobiliyatni rivojlantirish vositasi bo'lib, vosita sohasini boyitadi.

Eshitish analizatori faoliyatining buzilishi bolaning rivojlanishining turli jihatlariga salbiy ta'sir qiladi va birinchi navbatda og'ir nutq buzilishlarini keltirib chiqaradi. Tug'ma yoki erta orttirilgan karlik bilan og'rigan bolaning nutqi rivojlanmaydi, bu boshqalar bilan muloqot qilishda jiddiy to'siqlarni keltirib chiqaradi va bilvosita aqliy rivojlanishning butun jarayoniga ta'sir qiladi. Eshitish qobiliyati zaif bolaning eshitish holati ham uning nutqining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Bolani ko'plab tovushlar o'rab oladi: qushlarning sayrashi, musiqa, o'tlarning shitirlashi, shamol ovozi, suvning shovqini. Ammo so'zlar - nutq tovushlari - eng muhimi. So'zlarni tinglash, ularning tovushini solishtirish va ularni takrorlashga harakat qilish, bola nafaqat eshitishni, balki ona tilidagi tovushlarni ham farqlashni boshlaydi. Nutqning sofliqi ko'plab omillarga bog'liq: nutqni eshitish, nutq diqqat, nutq nafas olish, ovoz va nutq apparati. Ushbu tarkibiy qismlarning barchasi maxsus "treningsiz" ko'pincha kerakli rivojlanish darajasiga erisha olmaydi.

Eshitish idrokining rivojlanishi barqaror yo'naltiruvchi-qidiruv eshitish reaksiyalari, qarama-qarshi nutq bo'lmagan, musiqiy tovushlar va shovqinlarni, unli tovushlarni solishtirish va farqlash qobiliyati, ob'ektiv tasvirlar bilan bog'liqlik

bilan ta'minlanadi. Akustik xotiraning rivojlanishi quloq tomonidan qabul qilinadigan ma'lumot miqdorini saqlab qolishga qaratilgan.

Shu munosabat bilan bolalarda nutqqa qiziqish va e'tiborni, boshqalarning nutqini idrok etishga munosabatni rivojlantirish muhimdir. Eshitish e'tiborini va idrokini rivojlantirish bo'yicha ishlar bolalarni nutq birliklarini quloq bilan ajratish va ajratishga tayyorlaydi: so'zlar, bo'g'inlar, tovushlar.

Eshitish e'tiborini va idrokni rivojlantirish bo'yicha ish vazifalari.

- Eshitish idroki doirasini kengaytirish.
- Eshitish funksiyalarini, eshitish diqqatini, xotirani rivojlantirish.
- Eshitishni farqlash asoslarini, nutqning tartibga solish funksiyasini, nutqiy bo'lmagan va nutq tovushlarining turli intensivligi haqida g'oyalarni shakllantirish.
- nutqiy bo'lmagan va nutq tovushlarini farqlash qobiliyatini shakllantirish.
- Tilning tovush tizimini assimilyatsiya qilish uchun fonematik idrokni shakllantirish.

## 2- § Eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida ish olib borish bosqichlari

Nutq kishilarning tug'ma qobiliyati bo'lmay, bolalar o'sib, rivojlangan sayin nutq ham asta-sekin shakllanib, mukammallashib boradi. Bolalar nutqning maromida bo'lishi uchun bosh miya po'stidagi nutq markazi to'liq rivojlangan bo'lishi, ularning eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hid bilish, teri sezgisi ham etarli darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Chunki sezgi a'zolari atrof-muhit bilan uzviy bog'langan bo'ladi.

Agar bola yangi taassurotlar olib turmasa, harakatlari va nutqi uchun sharoit yaratib berilmasa, uning jismoniy va ruhiy rivojlanishi tormozlanadi. Sog'lom bola ilk yosh davrida ehtiyojini guvranish, g'udurlash kabi nutqning sodda ko'rinishi, bir yoshlariga kelib esa dastlabki so'zlar orqali qondiradi.

Uning nutqi avvalo atrofidagi kattalarning nutqiga taqlid qilish asosida rivojlanadi. Bola dastlab o'z hohish va fikrlarini aniq grammatik tizimdan mustasno bo'lgan alohida so'zlar yordamida ifoda etsa, 2 yoshlarga yaqin nutqi til tizimi hamda uning qonuniyatlariga asoslangan holda tarkib topa boshlaydi. U til tarkibiga oid hech qanday qonun-qoidalarni bilmasa-da, so'zlarni hech bir xatosiz turlaydi, tuslaydi, so'z birikmalarini tuza oladi, hatto-ki, so'z birikmalari qonunlariga mos ravishda mutlaqo yangi so'zlarni tuza oladi.

Bola tilning murakkab tizimini eshitish yordamida o'zlashtiradi: talaffuz matakalari - ko'pgina so'zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o'zlashtiradi, so'zlar va gaplarning grammatik jihatdan o'zgarib borishi va hosil



bo'lishi bilan bog'liq holda yuzaga kelayotgan ma'nolarning mazmunini tushuna boshlaydi.

Nutq, 12 dastlab ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, asta-sekin atrof olamni anglash, faoliyatni rejalashtirish vositasiga aylana boradi. Bola ulg'aygan sari murakkab bo'lgan til birliklarini egallaydi: lug' atni, frazeologik birikmalarni o'zlashtiradi, so'z tuzilishi, so'z o'zgarishi va so'z birikmasi, shuningdek, turli-tuman sintaktik birliklar qonuniyatlarini egallab boradi. Tilning ushbu vositalaridan u murakkablashib borayotgan bilimlarini o'zgalarga etkazish, faoliyati jarayonida atrofni o'rab turgan insonlar bilan muloqotga kirishish uchun foydalanadi.

Nutqni tushunish, bola hali so'zlamasdan avval sodir bo'lib, o'z rivojlanishida turli bosqichlar – hajmiga ko'ra o'sib borish va sifat jihatdan o'zgara boruvchi jarayonlarni bosib o'tadi. Nutqni tushunish deb ataluvchi jarayon tovush signaliga nisbatan reakstiya berish emas, balki uning ma'nosiga bo'lgan munosabatni bildiradi. 2-3 yoshdagi bolaning faol nutqi uning tajribasidan kelib chiquvchi va muloqot doirasidagi nutqdan iborat bo'lsa-da, nafaol nutqi nafaqat undovchi (topshiriqli) nutqni idrok etishni, balki atrof olamni idrok etish vositasi bo'lgan hikoya-nutqni ham tushunish imkonini beradi. 2 yoshga kirgan bolaning faol lug'at zaxirasi 250-300 so'zni tashkil etadi.

Bu davrda bolaning ma'noli nutqi ham rivojlanib boradi. U fikrlarini bir necha so'zlardan iborat bo'lgan sodda gap orqali etkazishga erishadi. 3 yoshga kirgan bola faol lug'atining tarkibi 800-1000 ta so'zni tashkil etsa, 4 yoshga kirganida – 1500-2000 ta, 5 yoshga etganida esa 2500-3000 ta so'zni tashkil etadi<sup>10</sup> Nutq faqatgina atrofda gilar bilan muloqotga kirishish uchunгина emas, balki, eng avvalo, o'z ehtiyojlarini qondirish, o'rab turgan olamni anglash, o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish uchun vositadir. Uni egallash voqelikni anglash usuli<sup>1</sup> sanalgani bois bolaning nutqiy faoliyati, o'zgalalar bilan muloqoti va o'z fikrlarini bildirishi uchun etarli sharoit yaratish muhim hisoblanadi. Bola tomonidan nutqning o'zlashtirilishi o'z tarkibiga bir necha bosqichlarni oluvchi murakkab jarayon bo'lib, dastlabki bosqich o'z ichiga murojaat etilgan nutqni tushunish (nafaol nutq)ni oladi. Ushbu davrning amaliy ko'rinishi bolaning aytilgan so'zga javoban xatti-harakatini bildiradi. Bola nutqining tarkib topishi va rivojlanish jarayoni, va, eng avvalo, tilni egallashi hamda grammatik tizimining

shakllanishi, asosan, turli-tuman ko'rinishdagi gaplarni o'zlashtirish orqali amalga oshadi.

Ushbu jarayon o'z tarkibiga uch asosiy davrni oladi:

1) so'z-o'zaklardan tashkil topuvchi gaplarni o'zlashtirish davri. Bu davr ikki bosqichdan iborat bo'lib, o'z ichiga bir so'zli hamda bir necha so'zlardan iborat (asosan, ikki so'zdan tashkil topgan) gaplarni o'zlashtirishni mujassamlaydi;

2) so'zlarni turlash va tuslash kabilarni o'zlashtirish bilan ajralib turuvchi tilning morfologik tizimini o'zlashtirish davri;

3) sintaktik kategoriyalar va ular tashqi ifodasining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan gapning grammatik tizimini o'zlashtirish davri.

Birinchi hamda ikkinchi davr o'rtasida keskin chegara mavjud bo'lib, ikkinchi va uchinchisining o'rtasida aniq chegara mavjud emas.

Ushbu tashqi ko'rsatkichlar ichki ko'rsatkichlar bilan chambarchas bog'liq: so'zlarni o'zgartirish qonuniyatlaridan foydalanish malakasiga ega bo'lmay turib, gapni to'g'ri tuzish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin emas. Chunki gap tuzishning asosini so'zlarni bog'lash emas, balki xususiy va umumiy grammatik ma'nolarning shakllarini o'zaro bog'lash modeli tashkil etadi. Tilning fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarini egallash uchun yuqori darajadagi eshitish o'tkirligi talab qilinadi. Oddiy sharoitlarda o'sib ulg'ayotgan bolada eshitish yordamida atrofda gilar nutqidan asosiylarini ajratib olish ko'nikmalarining shakllanib borishi shunga o'xshash shaxsiy jumalarni tuza olish malakalarining shakllanishiga asos bo'ladi. Akustikani idrok etish nuqsoniga ega bo'lgan bolaning nutqida tovushlarni farqlash, grammatik shakllarni kuzatib borish, taqqoslash imkoniyatidan mahrum bo'lishidan kelib chiqqan holda agrammatizm yuzaga keladi. Zaif eshituvchi bolalarning tallafuz malakalarini rivojlantirish yo'llari hamda usullarini belgilash tadqiqotimizning maqsadini tashkil etar ekan, nutqning lingvistik va psixologik-pedagogik asoslarini ko'rib chiqmay turib, ushbu muammoni hal qilib bo'lmaydi.

Ushbu yo'nalishda ish olib borgan barcha tadqiqotchilar til va tafakkur birligi to'g'risidagi g'oyaga tayanadilar. Bu g'oya psixologiyaga oid tadqiqotlarda atroflicha ko'rib chiqilgan. Nutqiy rivojlanishning tavsifi hamda uning o'ziga xos jihatlarini ko'plab lingvistik, psixologik va metodik tadqiqotlarning etakchi g'oyasini tashkil etgan bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, muayyan kommunikativ vazifani bajaradigan, bitta nutq ob'ekti bilan ravon hamda nisbatan tugal fikrni ifoda etgan iboralar guruhi og'zaki ravon nutq birligi bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtai nazardan ravon nutq u yoki bu darajada muhim mustaqil qismlarga bo'linadigan «nutq qismi» hisoblansa, psixologiya fanida so'zlovchining fikrini,

<sup>1</sup> Сурдопедagogика. Под ред. Е.Г.Речицкой. – М.: Владос, 2004. – 65 с. 10 Суровцева А. Воспитание воли ребенка в семье // Дошкольное воспитание. – Москва, 2008. – № 3. – С.8-14 13



xohish-istagini bildiradigan har qanday nutq, ma'lum ma'noda, uning o'zi uchun ravon nutq hisoblanadi.

Og'zaki ravon nutq kishilarning bir-birlari bilan muloqot qilish vositasi bo'lgan tashqi, ohangdor va talaffuz etiladigan nutq turiga mansubdir. F.R.Qodirova va R.M.Qodirovalarning fikricha, ravon nutq kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikr bo'lib, og'zaki nutq «matnlari» bevosita so'zlash jarayonida yaratiladi. Har qanday nutqning ravonligini ko'rsatuvchi asosiy belgilar qatoriga, eng avvalo, uning qismlari o'rtasidagi ma'noli aloqalar, so'ngra esa, gap qismlari o'rtasidagi mantiqiy aloqalar va, nihoyat, uchinchi, so'zlayotgan shaxs fikrining ifoda etilishidagi tugallanganlik kiradi. M.I.Lisina til vositasida muloqotning eng kichik birligi sifatida miqdor va ma'no mezonini qabul qiladi hamda nutq bo'lagi (fragmenti) sifatida bir butun nutq jarayonini tashkil qiladigan 4-5 ta to'liq gaplar ko'rinishidagi to'liq matnni ajratib ko'rsatadi. Demak, ilmiy adabiyotlarda «ravon nutq» tushunchasiga o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda va boyituvchi turli-tuman ta'riflar beriladi. Ravon og'zaki nutqning shakllanishi hamda uning asosida nimalar mavjud bo'lishi, uning manba va qonuniyatlari qandayligi masalasini ko'rib o'tishimiz lozim. Tadqiqotchilar bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan gaplardan tashkil topgan situativ (vaziyatbop) nutq sekin-asta kontekstli nutqqa tomon rivojlanib borishini ko'rsatib o'tadilar.

L.S.Rubinshteynning ta'kidlashicha, og'zaki nutq bu vaziyatbop va kontekstli nutqdir. Nutq dastlab vaziyatli tusga ega bo'lib, bola ulg'aya borgani sayin nutqning tarkibi va vazifasi o'zgara boradi hamda ravon kontekstli nutq shaklini egallab boradi. Bolaning nutqi avval o'ziga eng yaqin borliq bilan chambarchas bog'liq bo'ladi: u kundalik turmushda bola mavjud bo'lgan va butunlay bog'liq bo'lgan vaziyat (situatsiya) dan tug'iladi va unga to'liq bo'ysunadi. Shuningdek, bu nutq og'zaki shaklga ega bo'lib, suhbatdoshga qaratilgan bo'lishi hamda iltimos, istak, savolni bildirishi, ya'ni vaziyatli shaklga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bola kontekstli nutqni ta'lim jarayonida egallab boradi. Unda yangi nutq vositalariga, yangi tuzilish shakllariga ehtiyoj yuzaga keladi. Ilk bolalik paytidagi nutqda vaziyatga oid (situativ) bog'liqlik ustunlik qilib, bolaning so'zlab berayotgan vaziyati (situatsiyasi) suhbatdoshiga ma'lum bo'lsagina, qanday fikr etkazilmoqchi bo'layotganini tushunadi. Sekin-asta nutq kontekstli bo'lib boradi, ya'ni uni muayyan kontekstda tushunsa bo'ladi. Ravon nutqning shakllanishi, funkstiyalarining o'zgarishi atrofdegilar bilan bo'ladigan muloqotning mazmuni, shart-sharoitlari va shakllariga bog'liqdir.

Ravon og'zaki nutqning dialogdan monologga qarab rivojlanishini o'rgangan N.I.Jinkin va M.I.Lisinalarning ta'rifiga ko'ra, dialogik nutq birlamchi va osonroq nutq shakli bo'lib, u situativ (vaziyatli) hamda holat, suhbat mavzusiga bog'liq holda «qo'llab-quvvatlanadigan» ko'rinishga ega. Ya'ni dialog ikki yoki bir necha shaxslar tomonidan amalga oshiriluvchi nutqiy xatti-harakat bo'lib, bu paytda suhbatdoshlar o'rtasidagi o'zaro axborot almashish jarayonida ular tomonidan imo-ishoralar, yuz ifodalari, nutq ohangidan ham foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Monologik nutq keng fikr bildirishdan iborat bo'lganligi sababli ilmiy adabiyotlarda «ravon nutq» deb yuritiladi. Monologik nutq suhbatdoshga uzoq muddatli va maqsadga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan kontekstli yoki kengaytirilgan nutq turi bo'lib, og'zaki monologda nutqni «qo'llabquvvatlash» hodisasi zaiflashadi: nutq qo'yilgan savolga shunchaki oddiy javob emas, balki fikrning reja bo'yicha kengaytirilgan bayoni bo'lib, bu erda so'zlovchi nafaqat o'zining alohida fikrini, balki nutqi, monologini butunicha dasturlaydi. Demak, monologik nutqning eng muhim xususiyati uning dasturlashtirilganidir. Monologik va dialogik nutqning rivojlanishiga oid ushbu qarashlar bolalarda ravon nutqning yuzaga kelishini tushunib etish uchun zarur sanaladi. Shu sababli A.A.Leontevning nutqdan xatti-harakatlarni rejalashtirish va boshqarish uchun foydalanish bosqichidan avvalroq undan kommunikativ maqsadlarda foydalanish bosqichi keladi, degan fikri g'oyat muhimdir.

Dialog jarayonida bolada o'zi bildirayotgan fikrning mantig'ini kuzatib borish kabi muhim ko'nikma shakllanadi. Dialogik nutqqa to'g'ri o'rgatish monologik nutqning yuzaga kelishi va rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Ravon og'zaki nutq, dialogik nutq shaklidan farqli o'laroq, monolog tusiga ega va shu sababli avvaldan ma'lum tayyorgarlikni talab qiladi.

Aniqlashicha, o'z fikrini og'zaki ifoda etish uchun nutq tuzishda bolalar duch keladigan qiyinchiliklar asosan quyidagi sabablarga bog'liq bo'lar ekan: 1) og'zaki nutq fikrning shu vaqtning o'zida so'z bilan ifodalanishini talab qilishi sababli bolalarda faol lug'atning etishmasligini keltirib chiqaradi. Chunki: «Og'zaki nutqda so'z tanlashga vaqt yo'q.

Xotirada bor tanish so'zlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi»; 2) asosiy vazifasi «gaplarni og'zaki tuzish paytida aytib bo'lingan va yana talaffuz qilinishi kerak bo'lgan so'zlarni xotirada ushlab qolish» dan iborat bo'lgan operativ xotiraning kuchsizligi. N.F.Vinogradova, M.I.Lisina, A.M.Borodich, F.R.Qodirova va R.M.Qodirovalar dialogik nutq bolalar bilan suhbatlashish jarayonida, kundalik



muloqot hamda maxsus tayyorlangan suhbatlar jarayonida shakllantirib borilishi lozimligini ta'kidlagan holda suhbatlarning tasnifi, ularga qo'yiluvchi maqsadlar hamda ularni olib borish metodikasini keng yoritib berganlar. F.R.Qodirova va R.M.Qodirovalar hikoya qilishga o'rgatishning eng samarali usul va vositasi o'yinchoqlar bilan olib boriluvchi mashg'ulotlar ekanligini ko'rsatib o'tsalar, N.F.Vinogradova bolalarning ravon nutqini atrof olam bilan tanishtirish jarayonida rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi. M.R.Lvov to'g'ri tallafuzni rivojlantirishda syujetli rasmlar majmuasidan foydalanishning yuqori samara berishini o'zining uzoq yillar davomida olib borgan keng tadqiqoti asosida isbotlab berdi.

O'qitish natijasi ko'plab sabablarga bog'liq bo'lib, avvalo, u bolaga nutqiy muloqotni ta'minlab beradigan ijtimoiy muhit hisoblanadi. Bola umumiy rivojlanishining saviyasi, maktabda muvaffaqiyatli o'qib keta olishi ko'p jihatdan uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faolligiga, shuningdek, uni o'rab turgan insonlar tomonidan qo'llanayotgan nutqning rivojlanganlik darajasiga bog'liq sanaladi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida ana shunday rivojlantiruvchi muhitni o'z vaqtida tashkil etish g'oyat muhim sanaladi.

Bolalar to'g'ri tallafuzni rivojlanishi masalasiga ularning tafakkuri hamda bilishga bo'lgan qiziqishi bilan bog'liq holda qarash lozim. Nutq va tafakkurning o'zaro bog'liqligi muammosi psixologik va pedagogik tadqiqotlarning diqqat markazida turgan doimiy masalalardan biri sanaladi.

Bu borada izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar tafakkur va nutqning amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlab, til, kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida, aqliy faoliyatning alohida turi ekanligini ko'rsatadila, tushuncha so'zlsiz mavjud bo'lolmaydi, tushunchalar vositasidagi fikrlash nutqiy fikrlashdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi» Nutqning yuzaga kelishi va uni anglab etish mexanizmlari bir-biriga teng bo'lmagan jarayon bo'lib, bu qoidalar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasida o'zining to'liq ifodasini topgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona tilini o'zlashtirishda nutqiy va aqliy jihatlarining o'zaro aloqalarini o'rgangan F.A.Soxin va A.M.Borodichlar til va nutq hodisalarini anglab etish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini qat'iy asoslab bergan holda, ravon nutq ona tilini o'zlashtirishda bola erishgan barcha yutuqlar (tovush tizimi, lug'at tarkibi, grammatik tuzilishini o'zlashtirish)ni o'zida qamrashi hamda bunda ravon ifodaning tuzilishi maqsadli, avvaldan rejalashtirilgan, o'ylab qo'yilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Til vositasida mantiqiy fikrlash birdaniga yuzaga kelmaydi. Ona tilini o'zlashtirishning dastlabki davrlarida bola tafakkurining boshlan-g'ich shakllarini

ko'rgazmali-amaliy va ko'rgazmali-obrazli tafakkur turlari tashkil etib, keyinchalik ular so'z vositasida mantiqiy tafakkur bilan o'zaro aloqaga kirishadi. U esa astasekin leksik, grammatik va boshqa nutq vositalari negizida amalga oshiriladigan fikriy faoliyatning etakchi shakliga aylanadi hamda tilning intellektual funktsiyasi tomon rivojlanib boradi. Shu sababli nutqini shunchaki qaytarib yoki undan nusxa ko'chirib, ya'ni til vositasida ifodalangan fikrlarni shunchaki generatsiya qilib qo'ya qolmaydi. Bola nutqining rivojlanishi bu, eng avvalo, undagi muloqot usulining rivojlanishidir»- deb ta'kidlaydi. A.V.Zaporojets va S.N.Seytlin ham bu borada olib borgan kuzatuvlari asosida yuqoridagi fikrlarni qo'llab-quvvatlaydilar. Jumladan, S.N.Seytlin ushbu fikrni davom ettirgan holda: «tilni o'zlashtirish til vositalari va me'yorlarini intuitiv tarzda anglab etish asosida kattalar nutqi namunalariga shunchaki taqlid qilish, ularni qaytarib qo'ya qolish bilan emas, balki, eng avvalo til umumlashmalarining rivojlantirilishi hamda til hodisalarining elementar anglab etilishi bilan belgilanadi», -deb xulosalaydi. To'g'ri tallafuz malakasini rivojlantirish rivojlantirish til va nutqning ayrim hodisalarini eng soddada shaklda bo'lsa-da, anglab etishni o'z ichiga oladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy ta'lim-tarbiyasiga nisbatan bir paytning o'zida ham nutqni rivojlantirish, ham ona tilini o'qitish haqida so'z yuritish lozim.

Muassasada olib boriluvchi ta'lim jarayoni pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi nutqiy muloqotga asoslanishi sababli uning bosh tarkibiy qismi (komponenti) ni bolalar to'g'ri tallafuz malakasini tashkil etadi. Bola oila va bolalar bog'chasida qadam-baqadam atrofdagilar uchun tushunarli ravishda atrofni o'rab turgan predmet va yon-atrofida sodir bo'layotgan, shuningdek, o'zi ishtirok etayotgan voqea va hodisalar haqida fikr hamda taassurotlarini tizimli ravishda nutqiy ta'rif orqali etkazib borishni o'rganib boradi. Shu bois uning umumiy tarbiyasida, xususan, nutqni rivojlantirish borasida pedagog va otaonalarining o'rtasida rejali ravishda olib boriluvchi hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish zarurdir.

Demak, bolalar to'g'ri tallafuz malakasini rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarning asosini tashkil qiladi. Ularning to'g'ri tallafuz malakasini rivojlantirish va o'rgatish muammosini hal qilishga o'ziga xos munosabat bildirgan bo'lsalar-da, aksariyatlari to'g'ri tallafuz malakasini shakllantirish hamda rivojlantirishda tizimli yondashuvning, maxsus tashkil etilgan ishning zarurligini birdek ta'kidlaydilar. Ana shular asosida quyidagicha xulosalar chiqarishimiz mumkin:



bola nutqi til hodisalarining generastiyasi bo'lib, kattalar nutqini idrok etish va o'z nutqining faolligi natijasida rivojlanadi;

til va nutq ruhiy rivojlanishning turli yo'nalishlari (tafakkur, xotira, histuyg' ular, xayolot) yadrosini tashkil etadi;

to'g'ri tallafuz malakasini rivojlanishning etakchi yo'nalishini til umumlashmalari, til va nutq hodisalarini eng sodda tarzda anglab etishni shakllantirish masalasi tashkil qiladi;

bolaning tilni mustaqil kuzatish, to'g'ri tallafuz malakasini rivojlantirishi uchun shart-sharoitlar maxsus ravishda tashkil etiluvchi til hodisalarini anglashga yo'naltirilgan tizim orqali ta'minlanadi.

### 3-5 Dastlabki davrda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'stirish

Kar bolalar nutqini o'stirish ishlari kun davomidagi barcha faoliyatlar jarayonida uyushtirilgan muloqotda hamda maxsus nutq o'stirish mashg' ulotlarida olib boriladi. Kar bolalar nutqining rivojlanish saviyasiga ko'ra bu yunalishlarning ahamiyati va miqdori o'zgarib boradi. Nutq o'stirish ishini tashkil etish paytida so'zli nuqning turli shakllaridan foydalaniladi. Kichik va o'rta maktabgacha yeshdagi kar bolalarga ta'lim berish jarayonida ogaki nutq va yozma nutq yozuvli kartochkalardan global ravishda, ya'ni yaxlit qabul qilish uchun taqdim etiladi.

Katta guruh bolalari analitik (harflarni tanigan holda) o'qiydilar.

Shuningdek, bolalarni o'qitishda daktil nutqdan foydalaniladi. Daktil nutq kichik guruh bolalari bilan global ravishda hamda analitik o'qishga o'rgatish va so'zlashuv nutqni ustirish jarayonlarda qo'llaniladi.

Og' zaki, yozma, daktil nutqlarning ta'lim berish hamda o'zaro muloqotdagi o'rni, nisbiy miqdori dasturning mazmuni va maqsadiga ko'ra o'zgarib boradi.

#### Daktil nutq

Kar bolalarning ta'limida daktil nutqning ishlatilishi dastur va metodikaning asosi bo'lgan quyidagi tamoyillar bilan belgilanadi:

1) Kar bolalar ta'limining mazmunini eshituvchi bolalarga ta'lim berish dasturi mazmuniga imkoniyat boricha yaqinlashtirish

2) Nutqni nafaqat mashg' ulotlar jarayonida, balki muloqot chog' ida ham o'stirish.

Daktilologiya yunoncha talafuz - **barmoq, qog'oz** - nutq so'zlaridan kelib chiqadi. Daktilologiya barmoqlar vositasida tasvirlangan alifbo bo'lib, kar va zaif

eshituvchilarning o'zaro muloqotida qo'llaniladi. Daktil nutq- yozma va og' zaki nutqqa yaqin bo'lgan so'zli nutq shakli hisoblanadi.

Daktil nutqning og' zaki va yozma nutq oldidagi afzalliklari nimada? Kar bolalarga ta'lim berishda, ularning nutqini shakllantirishda daktil nutqning o'rni qanday ekan?

B.D.Korsunskayaning metodikasida daktil nutq 3-4 yoshdan boshlab faqatgina idrok etish obyekti bo'lib qolmasdan, nutqni ifodalash vositasi sifatida xizmat qilish mumkinligi ko'rsatiladi. Bunda bolalarning talaffuzi shakllanmaganiga qaramay, barcha so'zlarni idrok etish hamda daktil orqali ifodalash imkoniyati tug' iladi. Shuningdek, nutqni shakllantirish jarayonida bolalarning talaffuz imkoniyatlaridan emas, ularning muloqoti va bilishga doir faoliyatini rivojlantirish ehtiyojidan kelib chiqib nutqiy materialni tanlash mumkin bo'ladi. Natijada lug' at zahirasini kengaytirish yengilroq va tezroq kechadi. Kar bolalar tomonidan ertaroq va faol ravishda o'zaro, hamda daktil alifboni bilgan eshituvchi kishilar bilan muloqotida so'zli nutqdan foydalanish imkoni paydo bo'ladi. Bunda nutqni egallash jarayoni asosli bo'lib, ularning ehtiyojlari bilan bog' lanadi.

Hozirgi kungacha surdopedagoglar daktil nutq qaysi nutqqa imo-ishorali, yozma, yoki og' zakiga yaqinligi to'rrisida bahslar yuritilmoqda.

Aksariyat olimlar daktil nutqni yozma nutq turi deb hisoblaydi. I.A.Sokolyanskiy ilk bor shakl va funkqiya jihatdan daktil nutq og' zaki nutqqa yaqin ekanligini tasdiqlaydi. Daktil nutq bevosita muloqot qilish jarayonida bemalol ishlatilishi mumkin. Vaziyatga ko'ra yuzning mimikasi, ifodali harakatlarning o'zgarishi daktil nutqni og' zaki nutqqa yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, daktil nutq orzaki nutqdan farqli ularoq ko'zga yaqqol tashlanadi va yaxshi farqlanadi.

Ma'lumki, orzaki nutqning K,D,G,Y,H,X,S,Z,T,B,P kabi tovushlar talaffuzini ko'rib turib farqlash qiyin bo'ladi.

Daktil harflarni esa ko'rib o'zlashtirish va farqlash mumkin. Daktil belgilar aniq va dona-dona qabul qilinadi va bolalar tomonidan bemalol ifodalanadi. Daktil nutqning ahamiyati shundaki, u 2,5-3 yoshdan boshlab bolalar tomonidan idrok etilayotgan nutqni tahlil qilish, til birliklarini o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Bunday holat yozma nutqqa ham taalluqlidir. Biroq daktil harflar, yozma harflardan farqli ravishda bolalar tomonidan taqlid asosida aniq tasvirlanishi mumkin. Agarda bolalar atrofdagi kishilar u bilan va o'zaro muloqotda daktil nutqdan foydalansa, kar bolalarning nutqi tuzilishi jihatdan eshituvchi bolalar



nutqi kabi rivojlanadi. Faqatgina og' zaki yoki yozma nutq asosida nutqni to'liq o'zlashtirish imkoni bo'lmaydi.

Daktil nutq maktabgacha yoshidagi bolalarning har xil faoliyatlarini tashkil etilishi bilan uyğunlikda rivojlanib borishi uning afzalliklarini belgilaydi. Ya'ni, yozuvli kartochka yoki qo'lga qarab o'qishni taklif etib, bolalarga yangi so'zlarni tez va oson o'rgatish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishorali nutqdan keragidan ortiq foydalanishning oldi olinadi, so'zli nutqning rivojlanishi jadallashtiriladi.

Demak, daktil nutqdan foydalangan holda kar bolalar tomonidan ilk davridanoq bevosita muloqotda qo'llash imkoni yaratilishi, ularning ta'limida daktil nutqni ishlatish zaruratini belgilaydi.

Ko'p yillar davomida daktil nutq idrok etish jihatdan osonligi va tushunarligi uchun labdan o'qish malakasini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi deb hisoblanardi. B.D.Korsunskaya, S.A.Zikov, F.F.Rau tomonidan o'tkazilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar, og' zaki va daktil nutqqa to'rri o'rgatib borilsa, daktil nutq labdan o'qishga to'sqinlik qilmasdan, aksincha bu malakalarning tez rivojlanishiga yordam berishini ko'rsatdi. Chunki labdan nutqni tez o'qib olishi uchun bolaning umumiy rivojlanishi yetarli darajada bo'lishi va so'zlarni to'liq bilishi zarur.

Metodikaga muvofiq daktil nutqdan foydalangan holda, tovush va harflar tarkibi tanish bo'lgan so'zlarni labdan o'qishga o'rgatiladi.

Shuningdek, daktil nutq tovushlar talaffuzining sifatiga ham ijobiy ta'sir etishi ma'lum. Daktil nutqning qo'llanilishi, tovushlar talaffuzini puhta o'rgatish, mustahkamlash va farqlash imkonini beradi va hali yaxshi yo'lga qo'yilmagan tovushni qo'llashdan halos etadi. Chunki noto'g'ri talaffuzning mustahkamlanishi nutqning noaniq bo'lishiga olib keladi.

Albatta daktil nutq ta'lim berishning maqsadi etib belgilanmaydi, balki daktil nutqqa, so'zli nutqning og' zaki va yozma shaklini tez sur'atda o'zlashtirish vositasi sifatida qaraladi.

Daktiologiyani qo'llab so'zli nutqni muvaffaqiyatli egallanishi ko'p hollarda daktil nutqdan metodik jihatdan to'g'ri foydalanishi bilan belgilanadi.

Daktil belgilar taqlid asosida o'zlashtirilgani uchun, daktil nutqdan foydalangan kishilar daktillash texnikasi, ya'ni qo'l va barmoqlarning holatiga katta e'tibor berishi kerak.

So'zlar o'ng qo'lda daktillanishi, qo'l 30 gradusdan ortiq egilmasligi lozim. Daktillash jarayonida asosan barmoqlar ishtirok etishi, zarurat tugilganda, masalan «g», «sh», «t» va boshqa harflarni ko'rsatishda kaftning minimal burish

tavsiya etiladi. Daktillashda kaft bola tomon qaratilishi kerak, kaftni o'ziga qaratilishi nutqni idrok etilishini qiyinlashtiradi. Tirsak gavdaga yaqinlashtirilib, qimirlamasligi, daktil belgini ko'rsatib turib, keyingi belgini ko'rsatishga tayyorlanish kerak.

Har bir daktil belgi aniq ko'rsatilishi, shu bilan birga daktil harflar uzilmasdan ravon ko'rsatilishi talab etiladi. Ta'lim berishning dastlabki bosqichida tez sur'atda daktillash daktil nutqni o'zlashtirilishiga, so'zdagi har bir tovushni aniq idrok etilishiga to'sqinlik qiladi. Chunki kichik yoshdagi bolalar so'zlardagi harflarni to'laqonli idrok eta olmasdan, balki ular so'zlar konturini yozuvli kartochkalardan yoki labdan o'qigandek yaxlit qabul qiladilar. So'zlar tez daktillanishi oqibatida bolalar global idrok etish bosqichida qolib, so'zlardagi harflar tarkibini bilib olish sur'ati syokinlashadi. Dastlabki bosqichda bolalar katta kishilar ketidan aniq daktillashi, so'zlardagi harflarni aniq idrok etishga yordam beradi. Shu sababli mazkur davrda kattalarning daktil nutqi ravon va shu bilan birga biroz syokinlashgan tezlikda bo'lishi kerak.

Agarda bolalar «hayr» ning o'rniga «Xayn» so'zini aytishsa, daktillash paytida «R» va «N» harflar aniq daktillanmagandan dalolat beradi.

Xuddi shunday «E», «S», «U», «Y» va boshqa tovushlar almashtirib yuborilishi mumkin. Daktillash sur'ati syokinlashganda ham, harflar uzilmasdan ravon ifodalanishi kerak.

Bolalarga daktil nutq bilan murojaat etish chog'ida bolalardan kattalar ketidan daktillash talab etiladi. Bundan tashqari, gaplarda daktil nutqning ifodali bo'lishiga erishish, so'zlar o'rtasida, vergul va nuqtalardan keyin to'xtalish, vergul va nuqtadan avval kelgan harflarga urgu berib daktillash talab etiladi. So'z birkimlari va gaplar o'rtasida ham pauzalar qilinadi so'roq gapning ohirida havoda so'roq belgisi chiziladi va yuz mimikasida ham so'roq ifodalanadi. Nutqning aniq ravshan bo'lishini ta'minlab, bolalardan ham to'g'ri daktillashni, so'zlardagi qo'shimchalarini aniq ifodalashni talab etish, yo'l qo'yilgan hatolarni darhol to'g'irlash, ya'ni so'zni qaytadan to'g'ri daktillanishiga erishish zarur.

Bolalarda to'g'ri daktillash malakalarini shakllantirish uchun pedagog barmoqlarning to'g'ri holatini ko'rsatadi. Bolalar noto'rri daktillagan chog'ida, namuna yana bir bor ko'rsatiladi va hatolar to'g'ri rilanadi. Vaqti bilan ushbu maqsadda «Daktilemalar» jadvalidan foydalaniladi. Bolalar jadvaldagi daktil belgini barmoq belgilari bilan solishtirishga o'rganishi bilan, qiyinchiliklarga duch kelganida jadvaldan foydalanishga o'rgatiladi.



Shunday qilib, daktil nutqdan foydalanishga o'rgatishni quyidagi tartibda tashkil etish tavsiya etiladi:

1. Tayyorlov davridagi taqlid qilishga oid mashqlarga daktil belgilarning elementlarini, so'ng daktil belgilarni kiritish tavsiya etiladi. Bunda daktil belgi harfni ko'rsatmasdan turib beriladi. Ya'ni bolalar daktil belgilarni idrok etishga va ifodalashga o'rganib, daktillashga tayyorlanib boradilar.

2. Daktil harflarni taqlid asosida ifodalashga o'rganishi bilan bolalar bilan jadvalda harflar bilan birga berilgan daktil belgilarni ko'rsatishga oid mashqlar olib boriladi. Bu davrga qadar guruhda daktil belgilar ko'rsatilgan jadval ilib qo'yiladi. Jadval asosida bolalar daktil belgi va harflarni taqqoslaydilar. Muloqotda daktil shaklidagi (ber, ol, ma, yana, bo'ldi kabi) qisqa so'zlardan foydalaniladi, bolalar esa bu so'zlarni pedagog ketidan takrorlab daktillaydi.

Bolalar pedagog ketidan takroran daktillab, muloqotda so'zlardan foydalanishni, kunda ishlatiladigan so'zlar ma'nosini bilib olishni, nutqiy muloqotga dastlabki qadam qo'yishni o'rganadilar.

3. Daktil o'qishni mashq qildirish uchun yozuvli kartochkalardan foydalaniladi. Daktilni yaxshi o'zlashtirmagan bolalar yoniga bosma harflar yozilgan qirqma daktil belgisi alifbodan foydalanish tavsiya etiladi.

4. Bolalarda muayyan so'z zahirasi to'planganda, buyumlar va xatti-harakatlarni mustaqil ravishda nomlash bo'yicha o'yin-mashqlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

5. Ta'limning birinchi - ikkinchi yillarida yozuvli kartochkalarni o'qish va so'zlarni mustaqil talaffuz etish chog'ida bolalar daktillashi mumkin. Ta'limning uchinchi yilida, agarda so'zlar hali yaxshi o'zlashtirilmagan bo'lsa, daktillashga o'tish mumkin bo'ladi. Yaxshi o'zlashtirilgan so'zlarni daktillamasdan gapirishga maxsus o'rgatib borish, muloqotda ham daktillamasdan gapirilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Daktil nutqqa o'rgatish to'g'ri tashkil etilsa, uch yoshli bolalar ikki oy muddatda, ikki yoshli bolalar 5-6 oy davomida o'zlashtirilishini N.A. Moreva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatdi. Daktil nutqdan foydalanishda yo'l qo'yilgan hatolar quyidagilarcha bo'lishi mumkin:

Bolalarga murojaat etilganda yozuvli jadvalchani ko'rsatish bilan birga daktillash;

Bolalarga tanish bo'lgan, labdan o'qiy oladigan so'zlarni daktil vositasida ko'rsatish;

Yangi berilayotgan so'zni daktillab og'zaki gapirish o'rniga, ko'p marta og'zaki takrorlash;

Ayrim hollarda so'zni yozuvli kartochkada ko'rsatib berish o'rniga birdaniga uni daktillashga o'tiladi.

### **Yozma nutq**

Yozma nutqni egallash deganda, yozma matnni tushunish va o'z fikrlarini yozma ravishda bayon etishni tushuniladi. g'zma nutq egallanishi uchun yezish va o'qish texnikasini o'zlashtirishi kifoya emas. Yozma nutq orzaki nutqdan tuzilishi, funktsiyasi, ishlatilishi jihatdan farq qiladigan nutq hisoblanadi. L.S. Vigotskiy yozma nutqning tuzilishi va sintaksisi og'zaki nutqning tuzilishiga nisbatan mukammalroq va kengaytirilganroq ekanligini e'tirof etib, hatto eshituvchi bolalar uchun ham yozma nutqni egallash qiyin ekanligini ko'rsatgan. g'zma ravishda bayon etilgan matnni idrok etishda imo-ishora, ohang, muayyan vaziyatning mavjudligi kabi og'zaki nutqning yordamchi vositalardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi, uni tushunish uchun ixtiyoriy diqqatni jamlash, bilish jarayonlarini kuchaytirish talab etiladi.

Bundan tashqari, yozma nutqning yozilishi va talaffuzi o'rtasidagi farq ham yozma nutqni tushunishda muayyan qiyinchiliklarni turdiradi.

Maktabgacha surdopedagogika amaliyotida kartochkalarda yozilgan so'zlarni global idrok etilishini yozma nutqni egallash deb hisoblanar edi. Biroq, yozma nutqqa L.S. Vigotskiy, R.M. Boskislardan tomonidan berilgan tavsifiga ko'ra, yozuvli kartochkalarni global idrok etilishi yozma nutqqa o'rgatish vositasi emas, balki so'zlarni qabul qilish jarayonining yengillashtiriladigan vositasi sifatida ko'riladi. So'zlarni labdan o'qish, daktil nutqni qo'ldan o'qish, so'zdagi har bir elementni alohida-alohida va ketma-ket idrok qilinayotganligi sababli, bolalar uchun qiyin. Bolalar bilan muomalada yozuvli kartochkalarni ishlatish chog'ida muayyan vaziyat mavjudligi, daktil nutq, og'zaki nutq kabi yordamchi vositalar, so'zni yaxlit birlik sifatida idrok etilishi va bunday hol bolalar tabiatiga mosligi, nutqni qabul qilinishini osonlashtiradi.

Shunday qilib, kar bolalarga ta'lim berishda qo'llanilgan yozuvli kartochkalar yozma nutqqa o'rgatishga yordam berishini hisobga olib, yozuvli kartochkalarni shartli ravishda yozma nutqni qo'llash deb qabul qilishimiz mumkin. g'zma nutqqa o'rgatishda turli jumalalar hamda bog'lanishli nutqni tushunishga o'rgatish ham nazarda tutiladi. g'zma nutqqa o'rgatish jarayoni muayyan izchillikda amalga oshiriladi.

Diqqatni rivojlantiruvchi tayyorlov mashqlarni o'tkazish chog'ida harflarni farqlashga o'rgatib boriladi. Ayni paytda buyumlar nomi hamda buyruqlar nomi yozilgan kartochkalarni global ravishda farqlash uchun beriladi. O'qishini o'rganib



olishi bilan bolalar mashg'ulotlar paytida va muomalada yozuvli jadvalchalarni daktil va og'zaki o'qiydilar. Bolalarga buyruq-istak maylidagi 10-15 ta fe'lni tushunishga o'rgatilgandan so'ng, hozirgi zamon fe'llar ishtirokida darak gapni tushunish va mustaqil ravishda tuzishni o'rgatiladi. Muomalada yozuvli kartochkalardan foydalangan holda, bolalar asta syokin o'qish texnikasini egallab, yozilgan matnning mazmunini tushuna boshlaydilar va shunday qilib yozma nutqni to'laqonli o'zlashtirishga tayyor bo'ladilar.

Ta'limning ikkinchi yilidan boshlab o'qishga hamda jumla va matnlarni tuzishga o'rgatish bo'yicha sistematik ish olib boriladi. Jumla va matnlar og'zaki-daktil shaklda tuzilib bayon etilsa ham bunday nutqni shartli ravishda «yozma nutq» deb tushunamiz, chunki matnlarda yozma gaplar tuzilishiga hos darak gaplardan foydalaniladi.

Yozuvli so'zlardan foydalanishning qulay tomonlari quyidagilarda:

Kichik maktabgacha yoshdagi kar bolalar nutqni faqat ko'rish idroki vositasida qabul qila olishi sababli yozilgan so'zlarni idrok qilish ularga osonroq hisoblanadi.

So'zlardagi harflar tarkibini bilib olishdan avval bolalar, so'zni biror narsa yoki xodisani ifodalovi hamda biror xatti-harakatga undovchi belgi sifatida qabul qilishga odatlanadilar. Ya'ni so'zlarni tahlil qilib daktil va ovozni chiqarib o'qishdan avval, bolalar

So'zlarni global idrok etib farqlaydilar, tegishli narsalar bilan solishtiradilar. Shunday qilib, yozuvli kartochkalardan foydalanib o'qish texnikasiga o'rgatish va yozma nutqqa o'rgatish jarayonlari bir xil kechadi. gzuqli kartochkalar nutqdagi so'zlarni qabul qilish hamda og'zaki yoki daktil shaklda bayon etishni yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi.

#### **Og'zaki nutq**

Kar bolalarni og'zaki nutqini o'stirish, ya'ni talaffuzi va labdan o'qish qobiliyatini rivojlantirish nutqni rivojlantirish jarayonining tarkibiy qismidir. Og'zaki nutqni o'stirish tizimi kar bolalarning talaffuzini shakllantirish xususiyatlari bilan belgilanadi.

N.A.Moreva, B.D.Korsunskaya, L.P.Noskova, L.Shmatko, L.A.Golovchiq I.Kisliqina, U.Fayziyeva, F.Alimxodjayevalar tomonidan muloqotda daktil va yozma nutqdan foydalanib. Og'zaki nutqni rivojlantirish ishini tashkil etish tamoyillari va metodik tavsiyalari ishlab chiqilgan. Mazkur metodikalarda orzaki nutqnig o'rni quyidagicha belgilanadi:

Og'zaki nutq malakalari shakllanmaganligi uchun muloqotning dastlabki vositasi bo'la olmaydi, bu o'rinni yozuvli kartochkalar egallaydi. Shuningdek, og'zaki nutq muloqotda asosiy va yetakchi vosita ham bo'la olmaydi, bo'rolni daktil nutq bajaradi. Shunday qilib, og'zaki nutq maktabgacha yoshdagi bolalar so'zli nutqini shakllantirishda asosiy maqsad etib belgilanadi, sababi, eshituvchilar bilan muloqotda kar bolalar boshqa turdagi nutqdan foydalana olmaydilar.

Og'zaki nutq, muloqotda og'zaki nutqdan foydalana olishni ta'minlash maqsadida rivojlantiriladi. Biroq, o'qitish vositasi sifatida, bevosita muloqotda o'zlashtira ololmasligi tufayli, og'zaki nutqdan ko'ra yozma va daktil nutqlar afzalliklarga ega bo'ladi. Bolalarga notanish bo'lgan so'zlar, iboralar, so'z birkimlar ma'nosini og'zaki tushuntirish imkoniyati bo'lmaydi. Eng muhimi, daktil nutqdan farqli ularoq, og'zaki nutq bevosita muloqotda o'zlashtirilishi qiyin. Og'zaki nutqni bolalar tomonidan o'zlashtirilishi uchun maxsus metod va vositalarni qo'llab, umumiy tarzidagi va yakkama-yakka mashg'ulotlarni tashkil etish talab etiladi; shuningdek, talaffuzga o'rgatish, labdan o'qishga o'rgatish jarayoni murakkab bo'lib, daktilga o'rgatishga nisbatan ko'proq vaqt va kuchni talab etadi.

Eshituvchi bolani o'qitishda og'zaki nutq bir vaqtning o'zida ham muloqot vositasi ham o'qitish vositasi va o'qitish maqsadi bo'lib hizmat qiladi.

Kar bolalarga ta'lim-tarbiya berishda og'zaki nutq dastlabki bosqichda o'qitishning predmeti va maqsadi bo'lib hizmat qiladi, asta syokin talaffuz va labdan o'qish malakalari rivojlanishi bilan, og'zaki nutq muloqot vositasi, ayrim hollarda o'qitish vositasi bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Og'zaki nutqni o'stirish dasturi va metodikasiga muvofiq bolalarni labdan o'qishga o'rgatish va talaffuzini shakllantirish nazarda tutiladi.

#### **Labdan o'qish**

Og'zaki nutqni ko'rib idrok etish, ya'ni labdan o'qish -murakkab jarayondir.

Ma'lumki, ayrim tovushlar talaffuzi ko'zga ko'rinmaydigan nutq a'zolarining harakati ishtirokida amalga oshiriladi, chunonchi, hiqildoq mushaklarining, yumshoq tanglay, diafragma, tilning orqa va yon qismlarining harakatlari ko'zga ko'rinmaydi. Artikulyaqiya a'zolarining ko'zga ko'rinadigan harakatlarini ham ko'pincha bir biridan farqlash qiyin. Masalan b-p-m,d-t,s-z, k-q-h, sh-j tovushlar talaffuz etilayotganda bunday hol ro'y beradi. Odatda, kar bolalar notanish bo'lgan so'zlarni labdan o'qiy olmaydilar. Gapirish chog'ida so'zlarga urg'u berish, kerakli joyda to'xtalish, va nutq ohangini o'zgartirish kabi jihatlarga e'tibor



qilinmaganda ham nutqni tushunish qiyin bo'ladi. Demak, muloqot jarayonida kar bolalar faqat tanish bo'lgan, hyech bo'lmasa daktil ravishda o'zlashtirilgan so'zlarni labdan o'qishlari mumkin.

Labdan o'qish malakalarini rivojlantirishda bolalarning umumiy va ayniqsa nutqiy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etib, nutqni tushuna olish qobiliyatini belgilaydi. Shu sababli, labdan o'qishga o'rgatish tanish bo'lgan, ya'ni avval daktil ravishda o'zlashtirilgan material asosida olib boriladi. Labdan o'qishga bolalar barcha turdagi mashg'ulotlarda hamda kundalik muloqot jarayonida o'rgatiladi. Dastlabki davrda olib boriladigan mashqlar bundan mustasno.

Dastlabki davrda, bolalar hali harflarni bilmasdan turib, ularni nutqiy muloqotga yo'naltirish maqsadida, so'zlarni global ravishda farqlash hamda labdan o'qish uchun bir nechta so'zlar beriladi. Bolalar o'qishni boshlashi hamda ayrim so'zlarni hatto daktil shaklida o'zlashtirishi bilan ularni nutqni labdan o'qishni mashq qildirish kerak bo'ladi. Bundan avval, kattalar ketidan so'zlarni takroran talaffuz qilishga o'rgatib boriladi, sababi so'zni talaffuz qilinishi uni labdan o'qib bilib olishiga yordam beradi.

Bolalar bilan muloqotda bo'lgan kishilarning to'g'ri artikulyatsiyasi labdan o'qish jarayonini osonlashtiradi. Buning uchun kattalar tomonidan bir hil artikulyatsiya qilinishiga erishish hamda tovushlarni aniq va ravshan talaffuz etish talab etiladi. Gapirayotgan kishining nutq tezligi biroz syokinlashgan bo'lishi, so'zlarni bo'rttirib talaffuz etish, bo'g' inlab gapirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Maxsus mashqlar o'tkazish chog'ida, o'zlashtirilgan material normal tezlikda beriladigan bo'lsa, bevosita muloqotda nutq tezligi biroz syokinroq bo'lib qolishi, artikulyatsiya esa ravon, ifodali bo'lishi kerak. Dastlabki davrda tarbiyachi va pedagoglar ko'zgu yonida to'rri artikulyatsiya mashqlarini bajarib turishlari lozim.

Labdan o'qishga o'rgatish jarayoni samarali bo'lishi uchun har kungi nutq zaryadkasi mashqlariga ko'p uchraydigan nutqiy materialni o'yin tarzida berish tavsiya etiladi.

Labdan o'qish bo'yicha dastlabki mashqlarni quyidagicha tashkil etish mumkin.

Bolalarni pedagog artikulyatsiyasiga taqlid qilishga o'rgatilgandan so'ng, so'zlarni yaxlit ravishda (global) labdan o'qishga o'tiladi. Bolalar pedagogning ro'parasiga yarim doira shaklida o'tkaziladi. Pedagog bolalar diqqatini o'ziga jalb qilgan holda, ularning to'g'ri o'tirishini tekshirib chiqadi, so'ng chapak chaladi. Bolalar uning ketidan takrorlaydi. Undan keyin pedagog boshini ko'rsatib, «bosh» deydi va bolalarni o'z harakatlarini takrorlashga undaydi. Huddi shunday, ko'z,

qosh, og'iz, quloq, tish, til, burunni ko'rsatib so'zlar talaffuz etiladi, bolalar taqlid qilib gapirishga harakat qiladilar.

Dastlabki mashqlar muayyan ketma-ketlikda 3-4 marta har kuni bajariladi. So'zlarni farqlashda qiyinchiliklar yuzaga kelgan holda, pedagog so'zlarning artikulyatsiyasiga bolalar diqqatini jalb qiladi va talaffuzdagi farqni ajratishga yordam beradi. Masalan «bosh» so'zida «osh», ko'z so'zida «o'z», «quloq» so'zida «ulo», «burun» so'zida «uru» degan tovushlar birikmasiga bolalarning e'tibori qaratiladi.

Bir haftadan so'ng mashqlardagi so'zlarning ketma - ketligi o'zgartiriladi.

Bolalar bu so'zlarni labdan o'qishga o'rganib olganda (3-4 kundan so'ng), boshqa so'zlar beriladi (masalan, o'yinchoqlar). Bu mavzudagi so'zlar ham dastlab muayyan ketma - ketlikda, keyin aralash holda labdan o'qishga beriladi. Shunday qilib, ikkinchi bosqichda bolalar har bir guruhdagi alohida - alohida berilgan so'zlarni labdan o'qiydilar. Bunda artikulyatsiyasi o'xshash (tish-til, ko'z-qo'l, quyon, mushuk-mashina kabi) so'zlarni yonma-yon berilishi kerak emas.

Keyingi bosqichda birinchii va ikkinchi guruhdagi so'zlar aralashgan holda berilishi kerak. Masalan, boshni ko'rsat , Koptokni ber, Qo'lni ko'rsat va hokazo.

Odatda, bolalar bunday so'zlarni global ravishda farqlashni 15-25 kun davomida o'rganib olishlari mumkin. Mazkur malakalarni egallashi bolalarning yoshi, alohida xususiyatlari, mashg' ulotlarning tashkil etilishiga bog' liqdir. Labdan o'qish mashqlarni o'tkazishda quidagi qoidalarga rioya etish zarur:

1. Labdan o'qish uchun berilgan so'zlar bir hil mavzuga oid bo'lishi kerak. ( Masalan bosh qismlari, o'yinchoqlar).

2. Bir vaqtning o'zida 2-3 tadan ortiq bo'lmagan mavzular doirasidagi so'zlar berilishi kerak.

3. Har bir mazuga oid guruhdagi so'zlar soni 3-5tadan ortmasligi, talaffuzi o'xshash so'zlarni yonma-yon bermaslik kerak.

Yozuvli kartochkalarda berilgan so'zlarni farqlashni o'rganishi hamda ayrim so'zlarni daktil va og'zaki ravishda talaffuz qilishi bilan ushbu so'zlar labdan o'qish uchun beriladigan mashqlarga kiritiladi. Daktil ravishda o'zlashtirilgan so'zlar global ravishda qabul qilingan so'zlarga nisbatan bolalar tomonidan tezroq farqlanadi.

Labdan o'qishga o'rgatish jarayonida turli o'yinlardan foydalaniladi. Masalan, «qani, ko'rsat-chi» o'yinida, olib boruvchining qani? degan ko'rsatmasiga muvofiq, bolalar tegishli narsani ko'rsatib berishi kerak. dastlab topshiriq barcha guruh bolalariga beriladi, keyin 2-3 ta bola topshiriqni bajaradi, qolganlar to'g'ri



bajarayotganini kuzatadi. Keyinchalik, yaxshiroq gapiradigan bolalarni olib boruvchi etib tayinlash mumkin. o'yinga mavzu jihatdan bir xil so'zlar beriladi. o'yinni qiziqarliroq o'tishi hamda bolalarda umumlashtiruvchi tushunchalar hosil bo'lishi uchun, buyumlardan tashqari, tegishli o'yinchoq va rasmlardan foydalaniladi.

Labdan o'qish uchun rasmlı «loto» o'yini ham o'tkaziladi. Bolalar so'zlarni labdan o'qib, pedagog ketidan talaffuz etadilar.

Bunday so'zlarning talaffuzi og'izni ochib yopish, labni reflektor ravishda qimirlatish orqali so'z konturini ifodalash ko'rinishida bo'lishi mumkin. Alohida tovushlarni talaffuz qilishga o'rganib olgandan so'ng, bolalarda unli yoki undosh tovushlar, bo'g' inlar, qisqargan so'zlar vositasida gapira oladilar. Bunday g'uldirab gapirish ham kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, rag'batlantirilishi kerak.

Tovushlar talaffuzi o'zlashtirilgach, labdan o'qish paytida, bolalarning pedagog ketidan so'zlarni aniqroq takrorlay boshlaydilar. Bevosita muloqot chog'ida daktillash bilan birga og'zaki gapirish tavsiya etiladi. Asta syokin bolalar javoblari faqat og'zaki nutq ko'rinishida bo'lishi kerak.

Bolalar bog'chasida yildan yilga murakkablashib borayotgan labdan o'qish mashqlari olib boriladi. har kuni birinchi mashg'ulotning boshidagi nutq mashqlariga labdan o'qish uchun material kiritiladi. Labdan o'qish uchun berilgan material keyinchalik faqat og'zaki muloqotda qo'llanilishiga erishish kerak. Bolalar tomonidan nutqiy materialni labdan o'qishda qiyinchiliklar mavjud bo'lganda, so'zlar daktıl ravishda yoki yozuvli kartochkalarda beriladi, so'ng yana og'zaki talaffuz etiladi. Bolalarga og'zaki murojaat etilganda gapiruvchi oradagi masofa 1 metr dan kam bo'lmasligi, gapiruvchining yuzi yaxshi yoritilishi va imkon boricha bolalar yuzining ro'parasida bo'lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalarni labdan o'qishga o'rgatishda quyidagi metodik qoidalarga rioya etiladi.

1. Labdan o'qish bo'yicha maxsus mashqlarni olib borishda, tanish bo'lgan va o'zlashtirilgan nutqiy materialdan foydalaniladi.

2. Mashqlarni olib borishdan avval, nutqni global idrok qilish asosida labdan o'qishga yo'naltirish, bolalarga murojaat etilgan nutqni pedagog ketidan takrorlash malakalarini shakllantirish talab etiladi.

3. Bolalarga murojaat qilganda normal artikulyaqiyaga rioya etish, biroz syokin sur'atda gapirish zarur. Bo'g'inlab gapirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Faqatgina yaxshi o'zlashtirilgan nutqiy material ishtirokidagi maxsus mashqlarda nutq tezligini me'yorga yetkazish mumkin bo'ladi.

4. Ta'limning birinchi yilida labdan o'qishga berilgan topshiriqlarni darhol bajarish odatini rivojlantirish maqsadida, topshiriqlar mazmuni pedagog ketidan takrorlash talab etilmaydi.

5. Agarda, murojaat etilgan nutq; ikki marta berilgandan so'ng bolalar tomonidan labdan o'qiy olinmasa, so'zlar daktillanadi yoki yozuvli kartochkalardan o'qishga beriladi, keyin yana labdan o'qib olishga beriladi. Bola berilgan jumladagi biror so'zni labdan o'qishga qiynalsa, jumla to'liq takrorlanadi.

6. Og'zaki muloqot jarayonida yangi so'z berilsa, u albatta avval daktillanishi kerak. Labdan o'qish uchun mashqlarda, yoki mumalada tanish so'zlar bilan murojaat etganda daktillash kerak bo'lmaydi.

7. Labdan o'qish uchun bir xil mavzuga oid so'zlar ishlatiladi, muntazam ravishda nutqiy material takrorlanib turadi. Muloqotda ko'p uchraydigan so'zlar barcha yillar davomida mashqlarga kiritiladi.

8. Gapirish bilan birga daktillash chog'ida so'zlayotgan kishining qo'li yuzidan pastda, ko'krak chizig'ida bo'lishi kerak.

#### Talaffuzga o'rgatish

Talaffuzga o'rgatish jarayoni nutq o'stirish tizimining ajralmas qismi hisoblanib, atrofdagilarga tushunarli bo'lgan talaffuzni shakllantirish, hamda muloqotda okzaki nutqdan foydalanish ehtiyojini tarbiyalash nazarda tutiladi.

So'zli nutqni daktıl va yozma nutq yordamida rivojlantirilgani sababli, muloqot ehtiyojidan kelib chiqqan holda mashg'ulot uchun nutqiy material tanlanib, so'zlar zahirasi hamda muomala qilish imkoniyati kengaytiriladi. Talaffuzga o'rgatish mashg'ulotlariga esa, lug'at aniq talaffuzni va nutq tezligini rivojlantirish zarurati va izchilligidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Talaffuzga o'rgatish uchun beriladigan material onsondan murakkabga tamoyili asosida, konqyentrik tuzilishda berilib, ta'limning ohiriga kelib, asosiy tovushlar talaffuzi o'zlashtirilishi ta'minlanadi. (F.A.Rau, E.I.Leongard, F.F.Rau) Talaffuzga o'rgatish chog'ida avval daktıl shaklida o'zlashtirilgan so'zlar va iboralar tanlanadi. Masalan «r» tovushini talaffuz etishga o'rgatish jarayonida sistemalilik, izchillik, tushunarlik kabi didaktik tamoyillarga asoslanib, bolalar tomonidan o'zlashtirilgan, ya'ni so'zning harf tarkibi va ma'nosi tanish bo'lgan lugat tanlanadi. Chunki bola uchun birdaniga ham tovushni o'zlashtirishi, uni so'zda talaffuz etishi, so'zdagi harflar ketma-ketligini bilishi, ma'nosini tushunishi juda mushkuldir.



Bu qoidaga barcha ta'lim yillarida rioya etish zarurdir. Katta guruhda bolalarga so'zlar, jumladan tashqari she'rlar ham o'rgatiladi. Ma'nosi notanish bo'lgan matnlarni yodlash uchun berish tavsiya etilmaydi.

Bayramlarda mazmuni tushunarli bo'lgan va aniq talaffuz etiladigan she'rlar o'qilishi kerak.

Talaffuzga o'rgatish uchun ma'lum darajada cheklangan hajmdagi lugat olinganligi sababli, talaffuz qilinadigan so'zlar puxta tanlanishi, talaffuzi yaxshi yo'lga qo'yilishi, keyinchalik muloqotda bemalol ishlatilishi kerak. So'zlar kar bolalar ta'limi dasturining nutq o'stirish bo'limidan olinadi. Nutqiy material doimiy ravishda va izchillik bilan talaffuz etilib tursa, atrofdagilarga uni tezroq tushuna oladi, va shunday qilib bolalarda nutqiy muloqotga bo'lgan ehtiyoji o'sib boradi.

Agarda bolalar daktil nutq vositasida muloqot qila olsa, talaffuz malakalari rivojlanishi bilan ular ham nutqiy muloqotda qo'llanilishini B.Korsunskaya, U.Fayziyeva, F.U.Qodirova, F.Alimxodjayeva tomonidan o'tkazilgan tajribalar tasdiqlaydi. Talaffuz malakalari rivojlanishi bilan bolalar daktillashni og'zaki nutq bilan uygunlashtira boshlaydi; so'zlar va iborlarni yaxshi mustahkamlagach daktil nutqdan foydalanmasdan, og'zaki nutqni ishlatadilar; faqat qiyinchiliklar yuzaga kelganda yana daktil nutqqa murojaat etadi. Shu sababli har bir tovushni aniq talaffuz etilishiga e'tibor beriladi. Talaffuzga o'rgatishda konqyetrik metod asosida yaqinlashtirilgan talaffuz qilish ruhsat etiladi. Risoladagidek talaffuzga yaqinlashtirilgan talaffuzni noaniq talaffuzdan farq qilish va talaffuz kamchiliklarini to'g'rilab turish lozim.

F.F.Rau tomonidan talaffuzga o'rgatish chog'ida qo'yilmagan tovushlarni o'rnini bosuvchi quyidagi tovushlar bilan almashtirish tavsiya etiladi.

P-P"; P-B; P-B"

M-N-M"

T-D; T-T" ; D-D"

M-N";

V-F";

F-V;

S-Z-Sh; S-Z; Sh-J;

E-I-Y;

L-R-L";

K-G- K"-G"-X

Qo'yilmagan tovushlar, masalan "l" tovushni "n", yoki "t" tovush bilan almashtirishga yo'l qo'ymaslik kerak. F.F.Rau, V.I.Beltyukovlarning maktab yoshidagi o'quvchilar talaffuzidagi o'ziga hosliklarini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda undosh tovushlarning noaniq talaffuz etilishi, tovushlarni "yutib yuborish" holati, bo'g'inlab talaffuz etish, urgularga rioya etmaslik bolalar talaffuzining aniqligiga katta ziyon yetishi ko'rsatilgan. Unli tovushlardan a,u,o',i undosh tovushlardan l,g,q,g,s,sh,r tovushlarni to'g'ri talaffuz etilishi nutqning aniq bo'lishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga bunday hatolar hos hisoblanadi. Shuning uchun, noto'g'ri talaffuzni bartaraf etish qiyin bo'lganligi sababli, tovushlar noaniq talaffuz etilishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Daktil belgilar yordamida "yutib yuborilgan" va buzib talaffuz etilgan tovushlar talaffuzini to'rirlash mumkin bo'ladi. Masalan, "olma" so'zi o'rniga "omla" deb talaffuz etilsa, so'zni daktillab, bolaning hatosi ko'rsatiladi. Shuningdek, so'zlarni qismlarga bo'lib (lyokin bo'rinlab emas) gapirib, talaffuzdagi kamchiliklarni tuzatish imkonini beradi. hato tuzatilgandan so'ng so'zlarni yaxlit, bo'lmasdan, ravon talaffuz etish talab etiladi.

Ovozning balandligi, nutqning tezligi va so'zdagi urgular ham nutqning aniqligini belgilaydi.

I.A.Sokolyanskiy nutq juda baland bo'lmish kerak emasligini, baland ovoz tembrning buzilishiga olib kelish mumkinligini, past nutq aksariyat hollarda aniqroq bo'lishini e'tirof etadi. Urg'uli bo'g'inni ham juda intensiv talaffuz etish tavsiya etilmaydi, o'rg'uli unli tovushlarni uzoqroq talaffuz etib, urguni ko'rsatishni o'zi kifoyadir.

Nutq normal sur'atda bo'lishiga erishish uchun syokin sur'atni izchillik bilan tezashtirib borish zarur. Meyerda nutq orfoepiya qoidalariga javob berishi lozim. Biroq bog'cha yoshidagi bolalardan orfoepiya qoidalariga rioya etilishi talab etilmaydi. So'zning tuzilishi bolalar tomonidan yaxshi o'zlashtirilgandan keyin orfoepiya ustida ish olib boriladi. Maktabda yozishga o'rgatish chog'ida orfoepiya qoidalari osonroq o'zlashtiriladi.

So'zlar erkin talaffuz etiladigan paytda bolalar daktil nutqdan kechadilar. Biroq daktil nutqdan erta voz kechish, ya'ni daktillamasdan og'zaki gapirishni bolalardan talab etish, so'zning harfli tarkibini o'zlashtirilishini qiyinlashtiradi.

Barcha yuqoridagi ko'rsatmalarni frontal va yakkama-yakka mashg'ulotlarni o'tkazish chog'ida e'tiborga olish kerak. Mashg'ulotlar boshida o'tkaziladigan



nutq mashqlarga talaffuz, sur'at, o'rgu kabi nutqning jihatlarini ustida ishlash tavsiya etiladi.

Kar bolalarning nutqi mazmunli, ongli, tushunarli bo'lishiga erishish uchun og'zaki nutq yuqori saviyada bo'lishi talab etiladi. Og'zaki nutq ravon, aniq tushunarli bo'lishi uchun quyidagi shart-sharoitlar ta'minlanishi kerak:

1. Bolalarni muloqotda og'zaki nutqdan foydalanishga yo'naltirish.
2. Bolalarning umumiy rivojlanishini ta'minlash, daktil shaklidagi nutq zahirasini kengaytirib borish.
3. Yozuvli jadvalchalar va daktil nutqdan o'z vaqtida og'zaki nutqdan foydalanishga o'tish (yaqinlashtirib talaffuz etishdan boshlab aniq talaffuzga erishish).
4. Bolalar nutqidagi fonetik, leksik, grammatik hatolarni mashg'ulotlar va muloqot paytida to'g'rilab borish.

5. Nutqni egallagan kar bolalarni eshituvchi bolalar bilan muomalada bo'lishiga erishish

Kar bolalar nutqini shakllantirish davrida so'zli nutqning turli shakllarini, nutqni qabul qilish va bayon etishda har xil miqdor va nisbatlarda ishlatiladi. Ta'limning birinchi bosqichida (5-6 oy) davomida nutqni qabul qilishda yetakchi bulib yozma nutqni global o'qish, qisman labdan o'qishdan foydalaniladi. Daktil nutqdan mustaqil ravishda bayon etish uchun foydalaniladi. Keyinchalik, daktillash malakalari rivojlanishi bilan, daktil nutq yordamida muloqotda bulish ikoniyati ortib boradi.

Og'zaki nutqning roli tayyorlov va undan keyingi davrida unchalik sezilmaydi, u ancha vaqtgacha o'qitish predmeti bo'lib qoladi. Og'zaki nutqning muloqotdagi o'rni unchalik muhim bo'lmaydi. Labdan o'qish malakalarining rivojlanishi, lugatning boyishi, talaffuzning shakllanishi bilan bolalarning muloqotida og'zaki nutqning ahamiyati ortib boradi. Og'zaki nutq daktil nutk bilan uyg'unlashgan holda ishlatiladi. So'zlashish paytida daktilni qo'llanishi bolalar tomonidan so'zlar mazmuni va tarkibini to'liq o'zlashtirilib olinmaguncha davom etadi. Nutq materialini daktil shaklda berilishi yozuvli jadvalchalardan qabul qilishga nisbatan bolalardan nutqiy rivojlanishning yuqoriroq darajasida bo'lishini talab etadi.

So'zlarni jadvalchalardan, daktil o'qib farqlashga o'rganib bo'lgandan keyin, nutqiy materialni labdan o'qishga o'rganmogi lozim. Demak, nutqning turli shakllari (og'zaki, yozma, daktil)ning o'rni va ahamiyati nutqiy materialni o'zlashtirish darajasi, nutqning mazmuni xarakteriga ko'ra o'zgarib boradi.

Ta'limning birinchi yilida qabul kilishda yetakchi bulib yozma jadvalchadan foydalaniladi, undan keyin daktil va labdan o'qishga o'tiladi. Bolalar bog'chasi ta'limning so'nggi yilida barcha nutq materialini bolalar labdan o'qiy olishi zarurdir. Daktil nutq, yozma nutq yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi, ya'ni bola labdan o'qiy olmagan holda daktil yoki yozma nutq beriladi.

#### ***Ta'lim jarayonida nutqning turli shakllaridan foydalanish tartibi***

Nutqni idrok etilishi

Nutqning ifodalanishi

1. Yozilgan yoki gapirilgan so'zni global ravishda farqlash. (tayyorlov davrining boshida)

2. Yozuvli jadvalchalardagi so'zlarni daktillab o'qish (faol idrok etish asosida)

3. Daktil nutqni daktillayotgan shahsning ketidan daktillagan holda idrok etish.

4. O'zlashtirilgan so'zlarni labdan o'qib, gapirayotgan kishining ketidan takrorlash.

5. Yangi matnni o'qish.

1. Kattalar talabiga binoan global farqlanadigan so'zlar ishtirokidagi yozuvli katochkalarni ishlatish.

2. Muloqotda jadvalchalarda yozilgan so'zlarni daktillab o'qish (tayyorlov bosqichning ohiridan boshlab)

3. Muloqotda daktil nutqdan mustaqil foydalanish, ayni paytda og'zaki gapirish (ruldirab).

4. So'zlar talaffuzini yaqinlashtirib talaffuz qilish bilan birga daktillash.

b. Og'zaki nutqdan daktillamasdan, mustaqil foydalanish, asosiy tovushlarni aniq talaffuz etish, murakkab tovushlarni o'xshatib talaffuz etish.

b. Daktillamasdan aniq talaffuz etish.

Eshitish kobiliyatining pasayishi bolaning meyerda rivojlanishiga ta'sir etadi, jumladan sezgi, idroki, tafakkuri kabi psixik jarayonlari sust va o'ziga hos ravishda shakllanadi, nutqiy rivojlanishi tormozlanadi, shu sababli maxsus ta'lim berish bunday bolalarning kamol topishida muhim omil bo'lib qoladi.

Maxsus ta'lim berish sharoitida bolaning kamol topishi uchun zarur bo'lgan og'zaki va yozma nutqi rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolaning asosiy faoliyati o'yin bo'lganligi sababli, ularga ta'lim berish jarayoni murakkab hisoblanadi. Maxsus ta'lim samarali tashkil etilishi uchun bir qancha maxsus shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi.



Maxsus maktabgacha ta'lim muassasiga kelgan kundan boshlab tarbiyalanuvchilarning hulq madaniyatini tarbiyalash hamda ayni paytda nutqini o'stirish ishlari boshlanadi. Ta'limning dastlabki oylari tayyorlov davri bo'lib, bolalar samarali ta'lim olishiga tayyorlanadi.

Mazkur davrda bolalar kun tartibiga rioya qilishga odatlanadi, ularda madaniy gigiyenik malakalar shakllantiriladi, bolalar jamoa orasida, mashg' ulotlar, o'yinlar paytida o'zini tuta bilishni o'rganadi. Shu bilan bir qatorda bolalarning nutqi borliqni bilish va muloqot vositasi sifatida rivojlantiriladi.

Madaniy gigiyenik va madaniy-maishiy hulq malakalarini hamda o'quv malaka va ko'nikmalarini nutq bilan uygunlikda shakllantirish jarayoni pedagoglardan yuksak pedagogik mahorat va sabr-toqatni talab etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini o'stirish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

1. Bolalarda turli malaka va ko'nikmalarni tarbiyalashda nutqni o'stirish vazifasi ustun bo'lmasligi;

2. Shu bilan birga, bilim, malakalarni shakllantirish paytida qulay vaziyatdan foydalangan holda muomala uchun zarur bo'lgan minimal so'z boyligi o'zlashtirilishini ta'minlash kerak.

Madaniy gigiyenik malakalar va madaniy hulq malakalari shakllantirish jarayoni quyidagicha kechadi: barcha xatti-harakatlar dastlab 1,2 marta tarbiyachi tomonidan ko'rsatiladi, keyin bolalar bilan birga bajariladi. Bolalarga mashg' ulotlar paytida shovqin qilmasdan o'rnidan turishni, stulni joyiga qo'yishni, to'g'ri o'tirishni, yuvinish paytida kranni ochishni, sovun olishni, yengini shimarishni, sochiqni ushlashni, yuz qo'lni quruqlab artishni, ovqat paytida salftka, qoshiq, sanchqilardan foydalanishni, nonni ushatishni, mustaqil yechinish va kiyinishni o'rgatish kerak bo'ladi. haraktlar va ularning ketma-ketligi o'zlashtirilgandan so'ng, bolalardan u yoki bu harakatni bajarish ko'rsatmasi berishdan avval yozuvli jadvalcha ko'rsatiladi.

Bolalarda madaniy-gigiyenik malakalarni shakllantirish jarayoni izchillik bilan barcha ta'lim yillarida tashkil etiladi. Mazkur jarayon doimiy/ ravishda nutkiy vositalar bilan uygunlashgan holda olib borilsa, muloqot uchun zarur bo'lgan so'z va iboralar tabiiy va ongli ravishda o'zlashtiriladi. Kar bolalarni muvvafoqiyatli o'qitishida ularning sensor (sezgi, idrok, tasavvur) jarayonlarini, diqqat-e'tiborini, taqlidchilik qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichkintoylar ta'sirchanligi, hissiyotlarga beriluvchanligi, bilim va tajribalarning yetishmasligi, taffakurini yetarli rivojlanmaganligi bilan ajralib turadilar. Ta'lim-tarbiya jarayoni

noto'g'ri yunaltirilgan holda, ularda atrof-dagi borliq haqida noto'g'ri tushunchalar va tasavvurlarning shakllanishiga olib keladi.

Ba'zan eshituvchi bolalar ham tabiat hodisalarini ko'rib turib, undagi sabab va oqibatlarini adashtiradilar. Darahtlar qimirlayotgani uchun shamol esayapti, oy chiqqani uchun korongi bo'ldi kabi tushunchalar ularga hosdir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida tevarak atrofni idrok etish jarayonini boshqarish, mavjud bo'lgan tasavvur va tushunchalarni so'zlar vositasida ifodalash muhim omillaridir.

Bolalarning tasavvurlari, ya'ni ilgari idrok etilgan narsalarning siymolari ularda majud bo'lgan bilimlar mazmunini belgilaydi. Tasavvurlar aniqlashtirilishi, tartibga solinishi, umumlashtirilishi lozim. Shuningdek, tasavvurlar nutq bilan bog'lanmasa, ular o'z ma'no mohiyatini yo'qotadi.

Bolalarni ongli ravishda atrof-muhitdagi predmet va hodisalarni idrok etib farqlashga o'rgatib hamda to'g'ri tasavvur va tushunchalarni shakllantirib, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, tasavvurlarini tartibga solish tahlil qilish va umumlashtirish malakalarini rivojlanishini ta'minlanadi.

Bolalarning turli xil faoliyatlarni tashkil etib, ularni buyumlar va harakatlarda farqli va o'xshash belgilarni anglashga, buyumlar va ularning hossalari o'rtasidagi bog'lanishlarni tushunishga o'rgatiladi.

Daktil va og'zaki nutqni shakllantirish uchun bolalarning ko'rish idroki, diqqat e'tibori va taklidchiligining maxsus rivojlantirib borish zarur.

So'zli nutqni rivojlantirish, yozma jadvalchalardan samarali foydalanish maqsadida bolalarni harflar yozuvini idrok etishga, o'qishga o'rgatish, daktil nutqni rivojlantirish uchun daktilomalarni farqlash, mustaqil daktilash, qabul qilayotgan nutqdagi so'zlarni daktillashga odadlantirish kerak.

Og'zaki nutqni rivojlantirish uchun bolalarda to'g'ri nafas va ovozni rivojlantirish, nutq a'zolarining artikulyasiyasini shakllantirish, pedagog ketidan va u bilan birga so'zlarni talaffuz etishga, tovushlar talaffuzini farqlashga o'rgatish kerak. Qo'llaniladigan tayyorlov mashqlar nafaqat dastlabki bosqichda, balki butun maktabgacha davrda yildan yilga murakkablashgan holda bajariladi.

#### **Tayyorlov mashqlar: Taqlidchilikni rivojlantiruvchi mashqlar.**

Taqlid qilish ham ta'lim berish ham bilimlarni o'zlashtirish vositasidir. Diqqat kabi, taqlid qilish ixtiyoriy va ixtiyorsiz ko'rinishda bo'ladi. Aynan kattalarga taqlid qilish asosida kar bolalar madaniy hulq meyerlarini, bilim va malakalarni o'zlashtiradilar. Ongli ravishda taqlid qilish uchun diqqat-e'tibor kerak, taqlid



mashqlari o'z navbatda diqqatni rivojlantiradi. Kattalar bilan birgalikda harakatlarni bajarib bolalar ularga taqlid qilishga o'rganadilar.

Dastlab bolalarga qo'lni ko'tarish, tushurish, belni orqasiga berkitish, chapak chalish harakatlarini takrorlashga o'rgatiladi. Bolalar kir yuvish, sochni tarash, artish, supurish, cho'milish va boshqa kundalik maishiy harakatlarga ishtiyeq bilan taqlid qiladilar.

Barcha harakatlar ongli ravishda, emoqional bajarilishi kerak. Mashqlarda turli uyinchoklar, sharlar, bayroqchalar, shiqildoqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagog o'yinchoqlarni ko'taradi, tushuradi, berkitadi, shaqillatadi, qo'ldan qo'lga oladi, bolalar esa har bir harakatga taqlid qiladi. harakatlar o'rgatilgandan so'ng mayda, murakkabrok harakatlarni o'rgatishga o'tiladi, daktil alifboning elementlarini, o'xshash harflar, daktilemalarni tanlash, artikulyaqiyaga taqlid qilishga o'rgatiladi. Kattalar harakatlariga yaxshi taqlid qilayotgan bolalar rag'batlantiriladi. Taqlidchilikni rivojlantirish uchun «ko'zgu» o'yinini o'tkazish mumkin. Bolalar yarim doira shaklida o'tiradi. Pedagog harakatlarni bajaradi, bolalar takrorlaydi. O'yin «Mumkin-mumkin emas» Bolalar pedagog ketidan barcha harakatlarni bajaradi. Lyokin muayyan harakat ta'qiqlanadi, masalan bolalar qo'lni berkitish, yoki chapak chalish kabi harakatlarni bajarmasligi kerak. Pedagog shu harakatni bajarganda bola qo'lini tizzasiga kuyishi kerak. Pedagog harakatini takrorlagan bola yutkazadi. Boshida o'yin kattalar ishtirokida o'tkaziladi 2-3 marta takrorlangan uyinning nomi jadvalchada yoziladi. «Mumkin», «mumkin emas» degan so'zlarning ma'nosi turli faoliyatlar jarayenida aniqlashtirilib, kengaytiriladi. Taqlidchilik va diqqatni rivojlantiruvchi mashqlar orasida deyarli farq bo'lmaydi.

#### **Diqqatni rivojlantiruvchi mashqlar**

«Bayroq ko'targan bolalar» o'yini. Loto kartasida bayroq ko'targan 12 bola tasvirlangan buladi. Bayroqlarning va bolalar kiyimining rangi har xil bo'ladi. Kartaning yonida bolalar tasvirlangan 12 ta kartochka ko'yiladi. Bolalar karta rasmlariga mos bo'lgan kichik kartochkalarni topib karta katakalarining ustiga qo'yishi kerak.

Xuddi shunday turli koptok, lenta, shar ushlagan qizlarning rasmi tasvirlangan kartalardan foydalanish mumkin.

Berilgan namuna asosida sanoq tayoqchalar, mozaika, «lego» dan turli shakl, naqshlarni yasash bolalarning diqqatini rivojlanishiga yaxshi hizmat qiladi. Pedagog biror shaklni yasab ustini salfetka bilan yopadi va bolalarga mustakil

ravishda, ko'rsatilgan shaklni yasash taklif etadi. Agar bola topshiriqni uddalay olmasa, salfetkani ochib, yasalgan shakl yana ko'rsatiladi. Keyin turli tanish predmetlar shaklini yasashga o'tiladi.

Ta'limning 2-yilida bolalar orzaki va yozma ravishda berilgan topshiriqlarga asosan turli naqsh va shakllarni yasashi mumkin. Masalan, «uy va devorni yasa», «yulduzni yasa», «minorachani yasa» kabi topshiriqlar beriladi.

Shuningdek, namunada ko'rsatilgan rangdagi munchoqlarni ma'lum tartibda terish, bir xil yoki har xil rangdagi geometrik shakllardan naqsh tuzish mashqlarini o'tkazish mumkin.

Bolalarning diqqat e'tiborini rivojlantirish, turli rang, shakllarni ajratishga o'rgatish maqsadida «Mos rangni tanla», «Shaklini tanla» kabi didaktik o'yinlarni o'tkazish mumkin. Buning uchun 4ta katakli 4ta tabliqa tayyorlanadi. har bir tabliqada har xil rangdagi bir turdagi predmet: ko'ylak, koptok, piyola, choynak tasvirlanishi mumkin.

Tabliqaga mos 16 xil 5x8 sm bo'lgan kartochka tayyorlanib, kartochkalarda 4ta kizil, yashil, sarik kuylak, 4 ta koptok, 4ta piyola, choynak tasvirlanadi. Tabliqalar bolalarga tarqatilib bolalar ularga tegishli kartochkalarni tanlaydi. Ushbu material bilan 3 variantda o'yin o'tkazish mumkin.

1-tur Bolalar tabliqalardagi rasmlarga mos kartochkalar tanlaydi.

2-tur Bolalarga alohida kartochkalar tarqatiladi. Pedagog kartochkani ko'rsatadi, xuddi shunday kartochkasi bo'lgan bola kartochkani ko'taradi. So'ng bolalar og'zaki ravishda berilgan topshiriqqa muvofiq tegishli kartochkani ko'rsatishi kerak. Masalan, «kimda koptok?» degan savolga bolalar koptok rasmini ko'rsatishi kerak bo'ladi.

3-tur «barcha qizil predmetlarni bering» degan topshiriq beriladi. Bunda bolalar ranglarni predmetlarning shakli va tuzilishidan qat'iy nazar farqlashni o'rganadi. Bu o'yinni o'zlashtirgach, boshqa materiallardan, masalan geometrik shakllardan tabliqa va kartochka tayyorlab o'yin o'tkazish mumkin. Shuningdek, diqqatni rivojlantirish maqsadida quyidagi harakatli o'yinlarni o'tkazish tavsiya etiladi.

1. «Signalga qarab yugur» o'yini. Buning uchun svetoforga o'xshash moslama tayyorlanadi. Qizil rang ko'rsatilganda bolalar tuxtaydi, yashil rangda yuradi.

2.«Sharni dumalat» o'yini. Bolalar bir katorga chizilib turadi. Ularga rangli sharlar berilib ro'paradagi mo'ljalga urish taklif etiladi.

3.«Eslab qol» o'yini. Bolalar ikki qator bo'lib chiziladi. Qatorning boshida turgan «yetakchilar»ga o'yinchoqlar beriladi. Signalga ko'ra(chapak chalish,



bayroqni ko'tarish), bolalar tarqalib ketadi. Yana signalga ko'ra bolalar joyiga turishi kerak.

4.«Eslab qol» o'yinining boshqa turi. Bolalarga turli o'yinchok, rasmlar beriladi. Ma'lum belgiga muvofiq bolalar o'yinchoklarini stol ustiga qo'yib xonada yuguradilar. Shu vaqt tarbiyachi stol ustidagi rasmlarning o'rnini o'zgartirib qo'yadi. Belgiga muvofiq bolalar uz o'yinchoq yoki rasmini topib stolchasiga o'tirishi kerak.

Diqqat-e'tibor va taqlidchilik qobiliyati bolalar nutqini o'stirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq bolalar nutqini o'stirish uchun diqqat va taqlidchilikni rivojlantirish mashqlari bilan chegaralanmasdan, so'zlashuv nutqni shakllantirish, daktillash, talaffuz qilishga oid mashqlarni ham o'tkazish kerak.

#### 4-5 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini o'stirish yo'llari

Bog'langan nutqni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga o'qish va tushunishni o'rgatish keng ma'noda muomalaga o'rgatish demakdir. Mazkur yo'l eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tomonidan so'zlashuv nutqdan cheklangan miqdorda foydalanishining kompensatsiya vositasi hisoblanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan qanchalik vaqtli maxsus ta'lim jarayegi boshlansa, uning shaxsi va nutqining rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. Shu sababli nutq o'stirish bo'yicha dasturda to'g'ri - bolalarning lugatini onson va tez sur'atlarda boyitish vositasi sifatida hamda tan ma'noda o'qishga o'rgatish sifatida qabul qilinadi. Dastur talablari og'zaki ravishda yoki daktil berilgan bog'langan nutqni tushunishga hamda o'z fikrini ogaki, daktil, yozma revishda bayon etishga o'rgatishdan iboratdir.

Maktabgacha tarbiya muassasa ta'limining ohiriga kelib, bolalar o'zlashtirilgan so'z boyligd va grammatik tushunchalar doirasida, sodda yeyiq gaplardan tuzilgan hikoyani (60-70 tanish so'zlar) tushunishni, uning mazmunini so'z orqali va tasviriy faoliyat vositasida bayon etishi kerak. Shuningdek, bolalar bajargan ishni, idrok etilgan narsani, boshdan kechirgan voqeyani bayon eta olishlari kerak.

Ma'lumki, so'zlashuv nutqni o'stirish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ma'lum vaziyatlarda dialogga o'rgatish bilan cheklanadi. Ya'ni, suhbat «shu yerda» va «hozir» bo'layetgan narsa haqida bo'ladi. Tilchilar bunday holni «so'zlashuv nutq» deb, psixologlar esa vaziyatli (situativ) nutq deb tushunadilar.

Boglanishli nutqni rivojlantirish dasturida sodda yeyiq gaplar vositasida ta'rggflangan narsa va hodisalar haqida bayon etilgan matn kontekstlarini tushunish ham nazarda tutiladi.

Topshiriqlarini bajarishga undaydigan so'zlar, atrofdagi narsalarninig nomlari-bolalar tomonidan o'zlashtiradigan birinchi so'z va iboralaridir. Tekshiruvlarning ko'rsatirishicha, bola tomonidan buyruq maylidagi so'z va gaplarnpng tushungani, xuddi shu so'zlar yerdamida tuzilgan darak gaplarning tushunganini bildirmaydi. Shu sababli, bolalarga buyruq gapni biror harakatga undov sifatida qabul qilishga o'rgatib, blr vaqtniyag o'zida xuddi shu so'zlardan tuzilgan habar gaplarni idrok etib. tushunishga o'rgatib borish zarur.

O'qigan so'zlar ketida bolalarda muayyan timsollar paydo bo'lishiga, hamda ular o'z fikrlarini bayon etish uchun o'xshash grammatik shakllarni ishlatishiga erishish zarur.

Ta'kidlanganidek, o'qitishning dastlabki bosqichidanoq nutqni, biror hatti-harakatga undov sifatida qabul qilishga o'rgatiladi. Shunday qilib, asta syokin so'z-bola uchun atrofdagi narsalar, ularning sifat va xossalari, bajaradigan hatti-harakatlarni belgilash vositasiga aylanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, eshituvchi bolalar kabi, so'zlashuv turidagi nutq asosida gapirishga o'rgatiladi. Hyetining uchinichi yilida eshituvchi bolada, bevosita so'zlashuv muloqotidan tashqari nutqiy rivojlanishining yana bir manbaasi, ya'ni katta kishilar hikoyasi paydo bo'ladi. Kattalar xikoyasi, bolaning o'raydigan vaziyat va holatlardan chetga olib chiqadi. Kontekstli, ya'ni ma'lum vaziyatdan chetlangan nutqni tushunish uchun muayyan tayyorlov ishning olib borilishi nazarda tutadi. Bolalar bilan maxsus tayyorgarlik ishi olib borilganla, ikki yeshga kelib ular eshitgan nutqni tushunib, eslab qoladi va qayta hikoyalab beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib borilgan tadqiqotlarda so'zlashuv nutqninig minimumini o'zlashtirgan bolalar uchun ham yuqoridagi hulosalar tegishligini ko'rsatdi.

Idrok etilgan nutqni tushunishi, eslab qolishi, qayta hikoyalashi eshituvchi bolalr nutqinig o'sishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Eshitishdan mahrum bo'lgan bola uchun bunday qobiliyat yanada ko'proq ahamiyatga egadir, sababi, so'zlashuv nutqdan foydalanish imkoniyati ularda nihoyatda cheklangan bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan nutqni o'zlashtirish xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Eshituvchi bolalar 2,5 yeshda nutqni tushunib, 4-5 yeshga kelib eshitganlarini qayta so'zlab bera oladigan bo'lsa, o'qishni 6-7 yeshdan boshlab o'rganadilar. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim olayetgan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uch yeshdan



o'qishga o'rgatiladi. Dastlab bolalar global ravishda, daktil yordamida o'qiydilar, asta syokin ovoz chiqarib analitik o'qishga o'tadilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun so'zni o'qib idrok etish eng qulay, samarali, oson hisoblanadi. Shuning uchun, bevosita muloqotda ham qo'llaniladigan so'zlar dastlabki bosqichda, daktilni tez o'qishga o'rganishidan avval yozma ravishda beriladi. Topshiriqlar ham yozma jadvalchalarda berilib, bolalar o'qishga o'rganadilar. So'zni daktil o'qib chiqish labdan hamda qo'ldan daktilni o'qishdan osonroq kechadi.

Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bola so'zlashuv nutqni o'qish texnikasi bilan uygunlikda o'rganadi. Eshituvchi bola esa so'zlashuv nutqni o'z o'zidan o'rganib oladi. o'qishni esa, odatda maktabda o'rganadi.

Bolalar nutqini o'stirish metodikasini ishlab chiqishga oid izlanishlar so'zlashuv nutqni va bog'lanishli nutqni o'stirish bir hil tamoyillar asosida olib borilishini no'rsatdi (B.D.Korsunskaya, L.P.Noskova, L.V.Golovchik). Yangi nutqiy material yozma ravishda beriladi. Bolalar berilgan materialni tushunishga o'rgatiladi. Undan keyin material mustaqil ravishda ishlatiladi. Nutqni tushunish va uni qo'llash tez sur'atda kechishi uchun maxsus ish olib boriladi. Keyinchalik, muayyan murakkablikdagi matnlarni tushunish darajasiga yetib, bolalar dastlab yozma ravishda qabul qilgan nutqni bog'lanishli bayon eta olishlari kerak. Maktabgacha yoshining ohiriga kelib, 3-4 yillik ta'limdan so'ng, bolalar o'zlashtirgan leksika va grammatika doirasida mustaqil ravishda, sodda yeyiq gaplar yordamida o'z fikrlarini bayon etishlari kerak.

Og'zaki gapirib berishni o'rgatishdan avval bolalar o'qishga o'rgatiladi. Eshituvchi bol sharda buning aksi bo'ladi. Bunday hol, bolalarning nutqining shakllanish xususiyatlariga bogliqdir. Dasturga muvofiq eshituvchi bolalar og'zaki hikoyani tushunishlari va o'z fikrlarini bog'lanishli nutq vositasida bayon etishlari kerak. Eshitmaydigan bola esa yozma berilgan matnni tushunishi va og'zaki-daktil ravishda bayon etishi kerak. Bundan keyingina, og'zaki qabul qilingan nutqni tushunish o'rgatiladi. hikoyani og'zaki-daktil shaklda mustaqil bayon etishdan avval, bolalar yozma berilgan jadvalchalardan foydalanib gapiradilar.. Bog'langan nutqda so'zni to'g'ri ishlatishi uchun. bola nafaqat uning mazmunini tushunishi, balki so'zning mazmunini gapning ma'nosi bilan solishtirishi lozim. Og'zaki nutqni qabul qilish jarayenida so'z va gapning ma'nosini ilgab tushunish malakasi hali mustahkamlanmagan davrda bolalarga o'qigan matnlarni hikoyalarga va mustaqil so'zlab berishga o'rgatish kerak. Barcha so'zlar bolalarga tanish bo'lgan holda ham bunday ish bajarilmog'i kerak. Mustaqil nutq tushunib yetilgan nutq asosida

rivojlanishi mumkin. Shu bilan birga mustaqil bayon etish malakalarini egallanishi bog'lanishli nutqni to'la tushunishiga xizmat qiladi. Nutqni gushunish malakasi takomillashishi va tushunayotgan so'zlar doirasi kengayishi bilan passiv nutqdan faol mustaqil nutqqa o'tish yaxshiroq kechadi.

Umumta'lim maktab va maxsus maktab birinchi sinf o'quvchilarining yozma va og'zaki nutqining o'ziga hosliklarini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar (B.D.Korsunskaya, N.P.Noskova) natijasida qiziqarli ma'lumotlar olingan. o'rganishlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki hikoyalari lug'at va mazmun jihatdan kambag'alroq bo'lishini ko'psatdi.

Eshituvchi bolalarning okzaki va yozma nutqi o'rtasida katta. farq bo'lsa, eshitmaydigan bolalarda bunday tafovut sezilarli bo'lmaydi. Kar bolalarning yozma hikoyalari esa eshituvchi bolalarning matnlaridan yaxshiroq bo'lgan. o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki bayon qilish malakasini rivojlantirish uchun ularning yozma ravishda hikoyalab berishni rivojlantirishga doir mashqlar o'tkazish foydalidir. Mashqlar bog'lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qilib, uni egallanishini osonlashtiradi, bu yo'l maktabgacha yeshdagi bolalar uchun qulaydir. Ta'lim jarayenida yozma va daktil berilgan so'zlarni ishlatilishi, nutqni ko'rib idrok etishga yordam beradigan hamda og'zaki o'zlashtirilishini osonlashtiradigan yo'llardir.

Shunday qilib, ta'limning birinchi yilidan boshlab bog'lanishli nutqning rivojlantirilishi yozma berilgan sodda eyiq gapni tushunishga o'rgatishdan boshlanadi.

Mazmun bo'yicha bu ish ko'rgazmali idrok etilgan narsalarga yozuvlar yezishdan iborat bo'lib o'qishga o'rgatishning dastlabki bosqichi hisoblanadi hamda nutqiy muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi.

Og'zaki so'zni idrok etilishini cheklangan bir sharoitda - o'qish kuchli ta'lim vositasi bo'lib qoladi. hikoyaning mazmunini, ya'ni undagi so'z va gaplar ma'nosini tushungandagina, o'qish samarali ta'lim berishning vositasi bo'lishi mumkin. Bolalar matn mazmunini tushunmagan holda hikoya qilish, o'qishdan faqat zarar topish mumkin, sababi ular alohida so'z, matn bo'laklarini ma'nosini tushunmagan holda eslab qoladi. Bunday o'qish natijasida kitob bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatmaydi, kitobga, bilim manbaasi sifatida qabul qilinmaydi.

Hikoya mazmuni va ma'nosini tushunishlari uchun, matnni tushunishga hamda so'z bilan ifodalangan narsalarni ko'rgazmali tasavvur qilishga maxsus o'rgatib borish talab etiladi. So'zlar asosida narsalar timsolini ko'ra bilishi, so'zlar



vositasida fikrini bayon etishi uchun, o'quvchilar aniq tasavvur eta oladigan so'zlar minimumini egallamogi lozim. Bundan tashqari bolalar nutqning grammatik meyerlarini amaliy qo'llamogi kerak: so'z yasash va o'zgartirishi, sodda yoyiq gapni tuzishni, so'roq, buyruq, darak gaplarni ajratishni bilmogi kerak.

So'zlashuv nutqirivojlantirish chog'ida bolalar eng ko'p ishlatiladigan, zarur nutqni o'zlashtirish bilan birga ular so'zlar ma'nosini bilib oladilar, luqatini boyitadilar.

Bog'lanishli nutqni tushunish va bayon etishda bolalarni sodda yeyiq gaplarni tushunish va mustaqil ravishda tuzishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Darak matnlarni tuzishga o'rgatishda so'zlarni yasash va o'zgartirish, moslashtirish, matndagi muhim jihatini ajratish, izchillik bilan hikoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish maqsadida har xil ish turlari qo'llaniladi. Ish turlari barcha o'quv yillarda dastur alablariga muvofiq hamda o'zlashtirish darajasiga ko'ra murakkablashtiriladi.

Bog'lanishli nutqni o'stirish bo'yicha ish turlari:

1. Bajargan topshiriqlar haqida bayon etish.
2. Bitta rasm yoki rasmlar turkumiga sarlavha yoki matnlar yezish.
3. O'qilgan matn bo'yicha savollarga javob berish.
4. O'qilgan matndagi obrazlarni aniqlash.
5. Predmetlar, harakatlar yoki hodisalar haqida ta'riflab berish.
6. Hikoya qilib berish yoki izohlab o'qish.
7. Mustaqil o'qish.
8. Qayta hikoyalash.

#### Savol va topshiriqlar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'stirish vazifalarini sanab bering.
2. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida necha bosqichda ish olib boriladi?
3. Dastlabki davrda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'stirishning o'ziga xos tomonlarini aytib bering.
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini o'stirish yo'llari haqida so'zlab bering.

### III BOB ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING TURLI FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH JARAYONIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH

#### Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kun tartibini tashkil etish jarayonida nutqini o'stirish
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jismoniy tarbiyalash jarayonida nutqini o'stirish
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tasavvurlarini aniqlashtirish, va so'z ustida ish olib borish

#### 1-§ Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kun tartibini tashkil etish jarayonida nutqini o'stirish

Bolalar mustaqil nutqini rivojlantirishda, ularni muloqot qilishga undash, tushunadigan nutq boyligini oshirib borish talab etiladi. Bolalar so'z boyligi ortib borishi, nutqni tushunishga o'rganishi natijasida so'zli nutqining rivojlanib borishini ta'minlanadi.

Ta'limning birinchi yilining ohirida 300 ta tanish bulgan suzlardan 150 tasini mustaqil nutqida ishlatilishi talab etilsa, ta'limning 2-yilida tanish bulgan 8000 ta so'zdan 300 tasini muloqotda mustaqil qo'llanadi.

O'yin, mehnat, o'quv faoliyatida kundalik hayot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bolalarda muloqot qilish, ya'ni o'z hoxish-istaklarini so'z bilan ifodalash ishtiyoqi paydo bo'ladi. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotida korreksion ta'lim jarayoni bolalarning o'ziga-o'zi hizmat ko'rsatish ovqatlanish, kiyinish, yechinish), o'yin, mehnat, nutqini o'stirish, matematik tasavvurlarni shakllantirish, tasviriy faoliyat, qurish-yasash, plastilin va loydan narsalar yasash kabi faoliyatlar asosida tashkil etiladi.

Turli faoliyatlar sohasida dastlabki bilim va malakalar kattalar tomonidan ko'rsatib berib tushuntirish vositasida egallanadi. Amaliy faoliyat jarayonida muloqotda bolalar va pedagoglar bir-biriga tushunarli lugatni (so'z va iboralarni) tushunishi va ishlatmogi zarur. So'zlashuv muloqot o'rniga imo-ishora vositasida muomala qilinishi kar bolalar nutqiy faoliyatining cheklanishiga olib keladi.

Demak, maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglari oldida kar bolalarning turli xil amaliy faoliyatlarini rivojlantirib borib, zarur so'z va iboralarning o'zlashtirilishini ta'minlash vazifalari turadi. Turli faoliyatlarda bolalar nutqini faollashtirish, so'zlashuv muloqot malakalarini shakllantirish ishlari tashkil



etilib, so'zlar ma'nosi aniqlanadi, lugat mustahkamlanadi. Nutqni rivojlantirish tamoyillaridan biri- nutqni muloqot qilish va borliqni bilish vositasi sifatida rivojlantirishdir. Ya'ni, ta'lim dasturining barcha bulimlarida nutq o'stirish bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan so'z boyligi beriladi.

Kundalik hayotni tashkil etishda turli ko'girchoqlarni jalb etilishi, bolalarga o'rgatilayotgan narsalarni baholashga, bolalarni rag'batlantirishga, muloqotga kirishishga yordam beradi.

Sayrlarda, tabiat hodisalarini, insonlar mehnatini kuzatish jarayonida bolalarning e'tibori jonli va jonsiz tabiatga qaratiladi. Quyoshning charaqlashi, osmondagi bulutlar, shamol va boshqa hodisalar doimiy kuzatilib, so'z bilan nomlanadi. Masalan, charaqlagan quyoshni ko'rgan bolalar zavqlanadi. Tarbiyachi shu vaqt bolalarga «quyesh» deb yezilgan jadvalchani ko'rsatadi. Bolalar jadvalchadagi yozuvni bir-necha marta o'qib, so'zni eslab qolishga harakat qiladi va boshqa bolalarga ko'rsatadi. So'ng sayr davomida jadvalchadagi yozuv osmonda ko'ringan quyosh bilan solishtiriladi.

Boshqa hollarda bolalar diqqat e'tiborini jalb etib, bulut ko'rsatiladi va «bulut sharga o'xshaydi» «bulut quyonga o'xshaydi» deydi. Bolalar qizikib, bulutga qarab uni tanish predmet va o'yinchoqlar bilan solishtiradilar: ayiqqa, uychaga, otga, shapka, darahtga o'xshatadilar.

Tevarak atrof bilan tanishtirish jarayonida tarbiyachi quyoshning holati va joylashuviga qarab soyaning uzayib borishi va qisqarishini ko'rsatib turib tushuntiradi. Bu ma'lumotlarni bolalar tez va osonlik bilan o'zlashtirishadi va quyidagi hulosalar chiqaradi: Rasmga qarab bola «havo yaxshi»- deydi. «Qanday bilding?»-suraydi pedagog. «Quyesh bor» dedi bola. «Qani quyesh?»- «Bulutning orqasida».- «Qanday bilding?» «Mana soyasi» deb tushuntiradi.

Urug'larni saralab ularni ekayotgan, o'simliklarni parvarish qilayotgan chog'ida va maishiy ho'jalik mehnat jarayonida muloqotga kirishayotgan bolalarda tabiat hodisalari haqida to'g'ri tasavvurlar hosil bo'ladi, ularning nutqi yangi so'z va iboralar bilan boyidi.

Sayrlarda doimiy ravishda ob-havo kuzatuvlari olib boriladi. Tarbiyachi «Bugun havo kanday?» deb so'raydi. Dastlab savol jadvalcha yordamida berilib, bolalar daktil o'qiydi. Javob berish uchun ham «issiq, illiq, sovuq, yomgir, qor» deb yozilgan jadvalchalar tayyorlanadi. Tarbiyachi tegishli jadvalchani kursatib, javob beradi. Jadvalchalardan har kuni foydalanib, bolalar zarur lugatni o'zlashtiradi hamda savollarga jadvalchalar yordamida javob beradilar.

Ijtimoiy hodisalar ham albatta kuzatilib borilishi kerak. Insonlar mehnati, o'zaro yordam, milliy qadriyatlar, bayram va tantanalar, boshqa hodisalar bilan bolalar tanishtiriladi. Dasturga muvofiq oshpaz, shifokor, enaga, farrosh, tarbiyachi, haydovchilar mehnati kuzatib borilib, olingan bilimlarni so'zlar, gaplar kichik matnlar yordamida bayon etish o'rgatiladi. Tabiat hodisalari, ijtimoiy voqaealar bilan tanishtirish jarayonida, so'zlar ma'nosini tushuntirib o'tirmasdan, idrok etilgan narsa va xodisalarni so'zlar vositasida ifodalashga, muloqot qilishga o'rgatib boriladi.

Bolalarning uyg'un rivojlanishida bolalar bog'chasida o'rnatilgan kun tartibiga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kun tartibida amalga oshiriladigan faoliyatlarning doimiy takrorlanib borilishi natijasida bolalarda madaniy hulq malakalari tarbiyalanadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning kundalik hayoti ularning nutqini rivojlantirish bilan bog'lik holda tashkil etiladi.

Kun tartibini bajarish jarayonida bevosita muloqot qilish va bolalar nutqini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Yangi so'zlar va iboralarni bolalarga tushuntirish maqsadida ko'rsatib berish, tushuntirish kabi usullardan foydalaniladi. Bolalar turli faoliyatlar jarayonida narsalar, harakatlar va so'zlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni tushunib boradi, hamda asta syokinlik bilan muloqotda nutqdan foydalana boshlaydi.

Bolalarda madaniy hulq malakalarini tarbiyalab borib, nutqni muloqot vositasi hamda biror bir harakatga undash vositasi sifatida qabul qilishga o'rgatiladi. Bolalar ularga murojaat etilgan nutqni, atrofdagi narsa va xodisalar nomini yaxlit (global) idrok etigan holda pedagog bilan birga va uning ketidan gapirib nutqiy muomala qiladi. Shunday qilib, kar bolalar nutqini o'stirish jarayoni ularda tasavvur va tushunchalar va amaliy malakalarni shakllantirish bilan bog'lik holda kechadi.

Guruh honalaridagi barcha narsalar va jihozlar yoniga yozuvli jadvalchalar qo'yiladi, shuning uchun kerakli narsalarni olayotganda, jadvalchadagi yozuvdan uning nomini bilib oladi.

Ta'limning birinchi yilida bolalarni nutqiy muhitga olib kirish, murojaat etilgan nutqni tushunishga o'rgatish, bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqini uygotish kerak bo'ladi. Masalan, sayirga hozirlanayotgan bola sharfini bog'lay olmaydi, biroq mustaqil ravishda yordam so'rashni bilmaydi. Tarbiyachi uni tegishli jadvalcha yoniga olib boradi hamda daktil va og'zaki ravishda «sharfni bog'lang» deb aytishga undaydi. Boshqa holda ko'ylagining tugmasi uzilib ketganda, bola uni ko'rsatadi. Tegishli jadvalcha qo'l ostida bo'lmasa pedagog



daktil yordamida tushuntiradi, yoki bloknotga «Tugmacha uzildi, tikib bering» degan soʻzlarni yozib beradi (katta gurux).

Yuqorida aytilganidek, bolalar bogʻ cha kun tartibiga rioya qilishga, jamoada oʻzini madaniyatli tutishga oʻrganadilar. Tarbiyalanadigan madaniy hulq malakalari dasturlarda belgilanadi.

Dastlab bolalarga qoʻyiladigan talablar cheklangan boʻladi, biroq shunda ham pedagog va tarbiyachi oʻzaro kelishgan holda ularga yagona yondashuvni amalga oshirishi kerak boʻladi. Bunda albatta bolalarning imkoniyatlari hisobga olinadi va madaniy hulq malakalarini shakllantirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratiladi. Birinchi kundanoq bogʻ cha qoidalar bolalarga tushuntiriladi.

**Nimani qilish zarur.** Guruhga kelib hamma bilan salomlashish kerak (dastlab bosh iringʻ ash, qoʻlni koʻksiga qoʻyish mumkin). Kattalar nutqiy koʻrsatmasiga koʻra harakat qilish. Murojaat etayotganda, ayniqsa kattalarga, oʻz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda jadvalcha, daktil, ogʻzaki nutqdan foydalanish. Tegishli vaziyatlarda «iltimos, rahmat, mumkinmi?» kabi soʻzlardan foydalanish. Baqirmasdan, hotirjam gapirish, gapirayotgan kishining yuziga qarash. Aniq talaffuz etish va daktillash, xonada kiyimlarni tartib bilan tahlalab qoʻyish, yalang oyoq polga turmaslik. Dasturhon atrofida chiroyli oʻtirish, ovqatni toʻkmasdan tartibli yeyish, ovqatlangandan keyin ogzini salfetkaga artish. Mashqulotlarda tarbiyachi va pedagogga qarab oʻtirish. Kerak boʻlganda, kattalardan soʻrash (nomi nima?, qanday aytiladi? va h.k.)

**Nima qilish mumkin.** oʻyin patida boʻsh oʻyinchoqni olish. oʻyinchoqni, qoʻshimcha ovqatni, biror yordamni soʻrash. Charchagan boʻlsa, borib oʻynash. Tushunmagan boʻlsa soʻzni takrorlashni jadvalcha koʻrsatib soʻrash. Boshqa oʻyinni oʻynashga ruhsat soʻrash va h.k..

**Nimani qilish mumkin emas.** Yalang oyoq polga turish, yuvinayotganda suvni sachratish, boshqa bolalarga halaqit berish mumkin emas. Baqirish, urishish, oʻrtoqlaridan oʻyinchoqni tortib olish, sindirish, tashlab yuborish, ruhsatsiz mashgʻ ulotdan ketib qolish, sayrda kattalardan qochib ketish mumkin emas.

Albatta, yuqoridagi tartib va qoidalar bilan bogʻcha qoidalar cheklanmaydi. Keltirilgan qoidalar toʻldirilishi va konkret vaziyatlarda oʻzgartirilishi mumkin.

Qoidalar bolalarga tushuntirib oʻtirilmasdan, ularni soʻzsiz bajarish talab etiladi. Bunda bolalar tomonidan hulq malakalari va «mumkin», «mumkin emas», «kerak» kabi tushunchalar oʻzlashtiriladi.

## 2-6 Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning jismoniy tarbiyalash jarayonida nutqini oʻstirish

Maksus maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarning harakatlanish faoliyatidagi kamchiliklarni bartanaf etish, soʻzlashuv nutqini oʻstirish maqsadida umumiy rivojlantiruvchi jismoniy mashgʻ ulotlardan tashqari korreksion mashqlar ham bajariladi. Bu jarayonga alohida yondashish lozim boʻladi.

Gavdani toʻgʻri tutishni oʻrgatish uchun qorinda yotgan holda mashqlar qilish, gimnastik narvonga chiqib tushish mashqlari bajariladi. Muvozanatni saqlashga kanatdan yasalgan yulakchadan, taxta, qiya qoʻyilgan taxta, oʻrindiqli ustidan yurish mashqlari xizmat qiladi. Yassioyeqlikni bartaraf etish va oldini olish maqsadida bolalarga kanatni ustida yurish, oyoq panjalari bilan bilan arqonni dumalatish, kanat ustida turish, yonlamachasiga yurish, oyoq uchida, yonida, toʻvonda yurish, gimnastik narvonga tirmashib chiqish va tushish mashqlari oʻrgatiladi.

Tarbiyalanuvchilarning nafas organlari hamda koʻkrak qafasining faoliyatini yaxshilash uchun mashqlar majmuasini bajariishni tavsiya etiladi.

Nafas mashqlari bolalarda birtiyokis, nutkiy nafasni shakllantiradi, fonetik ritmika nafas, ovoz, talaffuz va harakatlarni rivojlantiradi.

Psixolog va fiziologlarning tadqiqotlari ogʻzaki nutkning rivoji umumiy xarakat faoliyati bilan bogʻlikligidan dalolat beradi (A.Pavlov, V.S.Vigotskiy).

A.A.Befanining tadqiqotlarida musiqani idrok etishga, musika ohangi va maromini qabul qilishga qoʻl harakatlari ham yordam berishi koʻrsatilgan. Ilk yoshidagi bolalar bilan olib borilgan tadqiqotlar nutqning oʻsishi qoʻlning mayda harakatlarning rivojlanishi bilan bogʻlikligini isbotlab berdi. (A.A.Befany Ritmik soʻzlarni idrok etish jarayonida harakatlarning roli)

Shunday qilib, harakat qilish mashqlarini nutqiy mashqlar bilan uygulashtirib oʻtkazilishi eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarni ogʻzaki nutqini oʻstirishda muhim oʻrin tutayotgani tadqiqotlarda tasdiklangan.

Nutq oʻstirish mashgʻ ulotlariga harakatlarni tovushlar, boʻgʻinlar, soʻz, jumalar talaffuzi bilan uygulashtirib bajarishga qaratilgan fonetik ritmika mashgʻ ulotlari kiritiladi. Fonetik ritmika nutqni va harakatlarni, analizatorlar faoliyatini rivojlantirib, eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar nutqini eshituvchi bolalar nutqining ohangi va maromiga yaqinlashtirilishiga yordam beradi.

Mashgʻ ulotlarda harakatlar bilan birgalikda eshituv qobiliyatini rivojlantirishga oid ish ham olib boriladi. Bolalar baraban, doyra tovushlarining ohangiga va maromiga mos ravishda harakatlarni bajarishiga oʻrgatiladi. Musiqa



mashg'ulotida musiqa ohanglari jo'rligida gimnastik mashqlar bajaradi, qo'shiq aytadi, raqsga tushadi, o'ynaydilar.

Borliqni idrok etish jarayoni harakat va faoliyat bilan boglikdir, ya'ni harakatlarning rivojlanishi bolalarning akliy usishiga yordam beradi. Jismoniy tarbiyalash jarayonida bolalarning so'zlashuv muloqoti uchun zarur bo'lgan nutk ham shakllanib boradi.

Tarbiyachi aytgan so'zlari va ko'rsatgan yozuvli kartochkalari bolalar tomonidan global idrok etiladi, ya'ni ko'rib—eshitiladi.

Daktilologiyani o'zlashtirgan bolalar kartochkada yozilgan so'zni daktillaydi va og' zaki o'qiydi. Kun tartibidagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida ham bolalarning nutkiy muloqoti shakllanib boradi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarga so'zli nutq vositasida muomalada bo'lish o'rgatiladi. Jismoniy tarbiya dasturida harakatlarni o'stirishga oid lugat boyligi belgilangan. har bir o'rgatiladigan yangi harakat nutqsiz ko'rsatilib, bolalar uni taqlid asosida bajaradi. harakat o'zlashtirilgandan so'ng, nutkiy ko'rsatma asosida bajarilishiga o'tiladi. Keyinchalik barcha o'zlashtirilgan harakatlar faqat nutqiyl ko'rsatma asosida bajariladi.

Pedagog o'z ko'rsatmalarida topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan so'z va iboralardan foydalanadi.

Bolalar gavda qismlarining nomini, harakat yunalishini(yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o'ngga, chapga, aylanish,sakrash) jismoniy tarbiya jihozlarining nomi va qanday maksadda ishlatilishi, ularni asrash va foydalanish, shuningdek, kiyim — kechak va poyabzalni toza saqlash qoidalarini bilishlari kerak.

Jismoniy mashqlar bilan shurullanish jarayonida bolada tabiat hodisalari, ijtimoiyl hayet, hayvonlar, qushlar, hashoratlar hakidagi tushunchalari mutahkamlash zarur.

Jismoniy mashqlar bilan shugullanish jarayenida bolada tabiat xodisalari, ijtimoiyl hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagibilimlar mustahkamlanadi.

Jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish jarayenidakar va zaif eshituvchi bolalarning dialogik va monologik nutqi rivojlanib boradi. Ya'ni, tarbiyalanuvchilar ularga qaratilgan nutqni tushunishga, topshiriqlarni bajarishga, iltimos va istaklarini bildirishgao'rganadi. Shunigdek, o'rtoqlari va boshqa shaxslarga o'qituvchining topshirigiga binoan va mustaqil ravishdamurojaat etishga odatlanadilar; savollar berishga va javob qaytarishga o'rganadilar; bajarilgan va bajariladigan harakatlar haqida gapirib berishga o'rganadilar; dialogda ishtirok

eatadilar. Jismoniy tarbiya mashg' ulotlari bilan bog'liq holda muloqot qilishga o'rgatiladi.

### **3-5 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tasavvurlarini aniqlashtirish, va so'z ustida ish olib borish**

#### **Nutq o'stirish mashqlari**

Kar bolalarning tasavvur va tushunchalari har xil vositalar yordamida hosil bo'ladi. Aksariyat tasavvurlar va ayrim birlamchi, oddiy tushunchalar bolalarning kundalik hayotida atrof olam bilan tanishuvi chog' ida shakllanadi. Odatda, tasavvurlar bolalarning turli faoliyatlari jarayonida kattalar rahbarligida shakllanadi. Ba'zi tushunchalar bolalarning nutqiyl muloqoti jarayonida o'zlashtiriladi. Jonli muloqotda tushunchani ifodalovchi so'zning mazmuni va ma'nosi aniqlanadi, tushuntiriladi, mustahkamlanadi.

Bevosita muloqotda shakllantirish bilan bir qatorda tushuncha va tasavvurlar maxsus nutq o'stirish mashg' ulotlarida ham uygunlashgan holda rivojlantirilishi yaxshi samara beradi.

Maxsus nutq o'stirish mashg'ulotlarning asosiy maqsadi bolalarda mavjud bo'lgan tushuncha va tasavvurlarni niqlashtirish va so'z ustida ishlash, ya'ni nutqni leksik va grammatik jihatdan rivojlantirishdir.

Nutq bu muloqot va tafakkurning umumlashtirish jarayonlarining uyg'unlinidir. Agarda so'z umumlashtirish xususiyatiga ega bo'lmaganda u muloqot vositasi sifatida hizmat qila olmas edi. Nutq va tafakkur uzviyl bogliqdir, so'zlar nafaqatgina bitta narsaga, balki bir guruhdagi narsalarga taa'luqli bo'lib, ularning ma'nosini umumlashtiradi. (L.S.Vigotskiy).

Eshituvchi bola voqyelikni bilish jarayonida narsalarni sezadi, idrok etadi, bir biri bilan taqqoslaydi, ularning o'xshashligi va farqini aniqlaydi: analiz va sintez yo'li bilan. narsa va hodisalarning mohiyatini ochadi, fikran ularning belgilarini ajratadi. Natijada odamda voqyelikdagi narsa va hodisalar to'g'risida tushuncha hosil bo'ladi,u hayotiy tajriba orttiradi. Kar bolalar esa borliqni saqlanib qolgan analizatorlar va vositasida idrok etishi va sezishi oqibatida tasavvurlari va tajribalari nisbatan cheklanadi. Nutqi hali rivojlanmagan kar bolalarda umumlashtiruvchi tushunchalar mavjud bo'ladi,ular imo-ishoralar vositasida ifodalanadi. Eshituvchi bolalardan farqli ravishda, kar bolalarning umumlashtiruvi tushunchalari ko'rgazmali-obrazli tabiatga ega bo'ladi. Nutqi rivojlanib borishi bilan, bolalarda tafakkur jarayonlaridan biri so'z-mantiq umumlashtirishlar yuzaga keladi.



Kar bolalarga hayotiy tajribani nutq bilan uyğunlikda orttirilishini ta'minlagan holda, mazmunli bog'lanishli nutqni hamda tafakkurni har tomonlama rivojlanishiga, tasavvur va tushunchalarning shakllanishiga yordam beramiz.

Ba'zan ilk davridayoq o'zlashtirilgan so'zlar insonning so'z zahirasida butun hayoti davomida saqlanadi, so'z vositasida ifodalanyotgan tushunchalar, umumlashtirilgan timsollar dunyoqarashi kengayishi, tafakkurining o'sishi bilan o'zgarib boradi (A.A.Lyublinskaya).

Nutqiy rivojlanishining ilk bosqichida bolalar tomonidan o'zlashtirilgan so'zlarning ma'nosi aynan qandaydir vaziyat, narsalar bilan bog'lanadi. T.Ye.Konnikovning tadqiqotlarining ko'rsatishicha «eshikni yop» degan iborani o'zlashtirgan 1 yoshu 3 oylik bola, «Qo'zingni yop, senga bir narsa beraman» degan murojaatga javoban eshikni yopishga yugurib ketadi. Kar bolalarga ham so'zni aynan bir narsa bog'lash hosidir.

So'zlarni muayyan vaziyatda o'zlashtirgan kar bola, so'zlar ma'nosida aynan bir hildagi narsalar va harakatlar bilan borlab, boshqa o'xshash narsalar bilan taqqoslay olmaydi. Maxsus mashg'ulotlarda bolalarga so'zni umumlashtiruvchi tushuncha sifatida qabul qilishni o'rgatiladi.

Umumlashtirish deganda psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyat alomatlarini topish va shu umumiylik asosida ularni birlashtirish tushuniladi. Boshqa fikr yuritish operaqiyalari kabi umumlashtirish ham so'z, nutq yordamida ro'yobga chiqadi.

Umumlashtirish jarayoni so'z ta'sirida vujudga kelgan ikkinchi signallar sistemasiga asoslanadi. Akademik I.P.Pavlov fikricha, nutq signallari tufayli nerv faoliyatining yangi prinipi - abstrakqiyalash va bu bilan birga, oldingi sistemaning behisob signallarini umumlashtirish vujudga keladiki, bunda ham o'z navbatda ana shu mumlashtirilgan yangi signallar tagin analiz va sintez qilinaveradi. Umumlashtirish mazmunga ko'ra tushunchali umumlashtirish va yaqqol ko'rgazmali umumlashtirish turiga ajratiladi.

So'zning ma'nosi uning grammatik shakliga bogliqdir. Nutqning ma'nosini o'zlashtirish uchun ma'nosi ma'lum bo'lgan bir xil grammatik shakldagi turli so'zlarni solishtirib, so'z yasovchi va o'zgartiruvchi qo'shimchalariga qarab so'zlarni ajrata olish, tahlil va sintez qila olishi kerak. J.I.Shif, maktab yoshidagi kar bolalarni o'rganib, «so'zlar ma'nosini anglash, umumlashtirish, grammatik jihatdan o'zgartirish kar bolalar uchun murakkab hisoblanadigan, lyokin uddalay olinadigan intellektual jarayon» - deb e'tirof etadi. Shundan kelib chiqqan holda nutq o'stirish metodikasida leksik (tushunchali) va grammatik

umumlashtirishlarni shakllantirish nazarda tutiladi. Bevosita muloqot jarayonida va ayniqsa nutq o'stirish mashg'ulotlarda bitta so'z orqali turdosh narsalar, harakatlar, sifat va xossalarni ifodalash mumkinligini ko'rsatib borish lozim. Bola biror bir so'zni bilib olganda unda muayyan narsa, xodisa, xossaning obrazi paydo bo'lishi hamda bu obraz umumlashtiruvchi tabiatga ega bo'lmogi kerak. Lingvistikada so'z-alohida tushunchalarni ifodalovchi nutq birligi deb tan olinadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi kar bolalar nutqini o'stirishda dastlab leksik umumlashtirilar, so'ng grammatik umumlashtirishlar amalga oshiriladi.

Bir xildagi narsalarni bir so'z bilan ifodalash asosida leksik umumlashtirishlar hosil bo'ladi. Masalan, bolalarga turli materialdan tayyorlangan, har xil fasondagi bosh kiyimlarni «shapka» deb nomlash mumkinligini, «yuv» so'zi idish, kiyim, qo'l, oimalarga taalluqli bo'lishini, «oq»so'zi bilan qor, gul, ko'ylaklarning rangini belgilash mumkinligi tushuntiriladi. Natijada bolalar sifat, belgi, xossalari o'xshash narsalarni bitta tur, toifaga umumlashtirishga va bitta nom bilan atashga odatlanadi. Bunday umumlashtirishlar mazmuniga ko'ra elementar xarakterga ega bo'ladi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlariga qo'yilgan talablarning amalga oshirilishi uchun maxsus shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Mashg'ulotlarda pedagog bolalarga tanish bo'lgan tasavvurlarni aniqlash bilan cheklanmasdan, yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi so'zlar bilan tanishtirishi kerak. Maxsus mashg'ulotlarda, pedagog bolada ba'zi tushunchalarni hosil kilishi va yangi so'zlar bilan tanishtirishi mumkin.

Lyokin, shuni ham esda tutish kerakki, maxsus mashg'ulotlarda berilgan tushuncha va so'zlar ustida ishlash shu bilan yakunlanmaydi. Bu mashg'ulotlarda bolaga yangi so'zlarni keng muloqot ko'llashi uchun zamin hozirlanadi, ya'ni so'zning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi va unga borliq, tasavvur va tushunchalarning boskichma-boskich rivojlanishi ta'minlanadi. Bunday maxsus mashg'ulotlar maktabgacha yoshdagi kar bolalarning tafakkuri va nutqining rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Maxsus mashg'ulotlarda va bevosita erkin muloqatdagi nutq uyg'unlashgan holda, ikkala ta'lim usuli bir-birini doimo o'zaro to'ldirib turadi.

Maktabgacha yoshdagi kar bolalarning nutqiy muloqoti cheklanganligi sababli, ba'zi so'zlar va tushunchalarni maxsus mashg'ulotlarda o'zlashtirishga to'rri keladi. Bunday mashg'ulotlarda tabiiy nutqiy muhit yaratilishi, didaktik talablarga rioya etilgandagina bolalar o'zlashtirgan so'zlarni jonli muloqotda qo'llay oladi.



Namuna sifatida rang, shakl va kattalik haqidagi elementar tushunchalarni yuzaga kelishini ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda narsalarning shakli, rangi, kattaligi haqidagi elementar tushunchalar amaliy faoliyatda, narsalarni har tomonlama o'rganib chiqish jarayenida hosil bo'ladi.

Mavzukur tushunchalarni 3 yoshli bolalar ham farqlay olishlari sababli, ular ta'limning dastlabki yilidanoq beriladi. Sezgi va idroklarni rivojlanishi asosida voqeyelikni o'zlashtiradilar ularning tafakkuri, xotirasi va hayeli taraqqiy etadi.

Narsalar haqida tasavvurlarning shakllanishida so'zning ahamiyati kattadir. So'zlar yordamida bolalar idro etayetgan narsalarning aloxida sifat, xossa va xususiyatlarini ifodalaydilar.

Rasm chizish mashg'ulotlarida bolalar rangni bildiruvchi so'zlar bilan tanishib boradilar, (qizil, ko'k, yashil, va x..k.), qurish-yasash mashg'ulotlarida kub, shar, gisht kabi so'zlar bilan, applikaqiyalarni qirgib yepishtirish chog' idaa esa doira, kvadrat, uchburchak, turri to'rtburchak suzlari bilan, loy ishi mashg' ulotlarida katta, kichik, uzun, kalta kabi so'zlar bilan tanishib boradilar.

Albatta, kichik gurux bolalari so'zlarni tez uzlashtira olmaydilar, bu boshlangich tanishuv bo'lib, so'zlar global idrok etiladi. Dastlabki tanishuvning ahamiyati shundan iboratki, bolalarning atrofidagi har bir predmet va uning belgilari so'z bilan ifodalanishi haqida tushuncha beriladi va maxsus nutq o'stirish mashg' ulotlariga kiritiladi.

Maxsus nutq o'stirish mashg'ulotlarida mavjud tasavvurlar aniklashtiriladi va bolalarning muloqotiga kiritiladi, o'zlashtirilgan so'z va iboralar keyinchalik erkin muloqotda ishlatiladi. Uxshash predmetlarni taqqoslash, farqlash imkoniyatini yaratish bu mashg' ulotlarni tashkil qilish qoidalaridan biri hisoblanadi.

Predmetlar har tomonlama to'liq qabul qilinishi uchun hamma ko'rsatilgan belgilar ayni paytda so'z bilan ifodalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, kichik yoshdagi bolalar so'zlarni tez eslab qolish qobiliyati rivojlanmaganligi sababli narsalarning sifat va belgilarini ifodalovchi so'zlar alohida- alohida kiritilib, ular to'liq o'zlashtirilgandan keyingina barchasini ishlatish mumkin. Dastlabki nutq, o'stirish mashg' ulotlar kattalik haqidagi oddiy tasavvur va tushunchalarni aniqlashtirishga bagishlanadi, sababi muloqot davomida «katta» va «kichik» so'zlarni tez-tez ishlatish zarurati seziladi.

Tajriba shuni ko'rsatadi-ki, ushbu so'zlarni nutqida qo'llay ololmagan bolalar ularni imo-ishora vositasida ifodalashni boshlaydilar. «Katta» va «kichik» so'zlar ma'nosini aniqlash va mustahkamlashga doir namunaviy mashg' ulotlarni ko'rib

chiqamiz. Jihozlar: 1) 2 ta koptok, 2 ta ayiqcha, 2 ta paravoz, 2 ta kemacha, 2 ta stolcha va 2 ta stulcha — bolalar uchun va kattalarga, keyinchalik uyinchoqli mebel (bir xil shakl va rangda, lyokin biri ikkinchisidan kattaroq).

2. «Katta», «Kichik» so'zlari yozilgan jadvalchalar. Narsalarni jufti bilan taqqoslash yuli bilan bolalarga kattalik qiyosiy xususiyatlarga ekanligi ko'rsatiladi.

Avval, tayyorlab qo'yilgan predmetlar, o'yinchoqlar bolalar kuzidan berkitib qo'yilgan bo'lishi kerak. Pedagog predmetlarni bittalab ko'rsatib so'raydi: Bu nima? Bolalar ko'rsatilgan predmetni mustaqil og' zaki-daktil ravishda yoki gapira olmasalar yozuvli jadvalchalar yordamida nomlaydilar.

Shundan so'ng pedagog jadvalchalarni doskaga qo'yadi (birini o'ng tomonga, ikkinchisini chapga). Keyin pedagog bir juft predmetni, masalan, katta va kichik koptokni ko'rsatib, taqqoslaydi. Bolalar pedagog ketidan qaytarib «katta koptok» deb talaffuz qiladilar:- va koptokni jadvalcha yoniga qo'yadilar. Keyin «kichik koptok» - deb uni ham mos jadvalcha yoniga qo'yadilar. Shunday qilib xamma o'yinchoqlar qo'yib chiqiladi.

Uchinchi juft predmetlarga kelganda, bu vazifani biror bolaga bajarish uchun berilishi mumkin. Bolalar bu vazifani tushunadilar va uni bajara oladilar. Mashg'ulot ohirida olalar o'rgangan so'zlarni 4-5 marta takrorlab, ularni daktil orqali ifodalashga harakat qiladilar. So'ng pedagog xamma predmetlarni aralashtirib, bolalarga yozuvli jadvalcha orqali quyidagi vazifalarni beradi: «katta koptokni ber, kichik koptokni ber va x.k».

Ko'rsatilgan predmetlarning nomini aniqlashga oid mashqlar beriladi va shu bilan mashg' ulotga yakun yasaladi.

Keyingi mashg'ulot «katta» va «kichik» so'zlarini qaytarish bilan boshlanadi. Topshiriqlar bajarishda boshqa o'yinchoqlar va predmetlar ishlatiladi. Shunday qilib, bu Mashg' ulotlar bosqichma-bosqich olib boriladi. Mashg' ulotlar ohirida «katta» va «kichik» so'zlar to'liq o'zlashtiriladi.

Xuddi shunday mazmundagi mashg'ulot asosiy ranglar nomlarini o'zlashtirish uchun olib boriladi. Dastlab uch xil rang nomlarini olish kifoya qiladi. Bolalar bu ranglarning nomini o'zlashtirgandan so'ng esa qolgan ranglar va ularning nomlarini yengil o'zlashtiradilar.

Agar dastlab bolalarga ushbu ranglarni belgilariga qarab farqlashga oid mashqlari to'rri o'tkazilsa, ularning uzlari qolgan ranglar haqidagi ma'lumotlarni so'rab oladilar. Xuddi shunday, puxta o'rgatish natijasida kattaroq bolalar rang tuslarining nomlarini ham farqlashga o'rganadilar. Ranglarni farqlashga oid mashqlar orqali bolalarni atrofidagi predmetlarga qarab ranglarni aniklash, ularni



to'g'ri ajratishga o'rgatib borish kerak. Bolalarga ranglarni nomlash va farqlashga o'rgatib, qushimcha tarzda «havo rang, olov rang, sabzi rang, pushti rang» kabi so'zlar kiritib boriadi. Natijada bolalarni birmuncha kengroq umumlashtirishga olib kelish uchun, katta guruxlarda yil ohirila «och», «tuq» kabi tushunchalarini ham kiritish lozim. Shu tariqa geometrik shakllarni ajratish va kerakli so'zlarni o'zlashtirish mashg'ulotlari ham o'tkaziladi.

Bolalar amaliy faoliyatda «qurilish materiallari»dan foydalanib hajmli shakllarni farqlashga o'rganadilar. Biroq, tasviriyl faoliyat jarayenida, ya'ni rasm mashg'ulotlarida, applikaqiya, kogozdan narsalar yasash, konstruktorlash chog'ida bolalar yassi shakllar bilan ham ish yuritadilar. Ta'limning uchinchi yilida, bolalar predmetlar shakllarini to'g'ri idrok eta oladi, ya'ni bolalar «gisht» shaklini oson o'zlashtira oladi. Birinchi va ikkinchi yillarda esa, ular hajmli predmetlarga qarab, «kub», «shar», «kvadrat» va «dumaloq» kabi so'zlarni ishlatadilar.

Shakllar nomini to'rri aytish, hatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun, bolalar ko'zdan kechirayetgan barcha shakldagi predmetlar ustidan barmoq yurgazish tavsiya etiladi. Masalan: bola piyola ustidan barmoq yurgazib turib, barmogurbilan havoda doira shaklini chizadi.

«Shakli nimaga o'xshaydi?» savoli bilan predmetlarning shaklini aniqlab borish, nomlarini o'rganish yaxshi samara berishi mumkin. Masalan: sovun gishtga o'xshaydi, guldon sharga o'xshaydi va hokazolar.

Bunday mashg'ulotlarni o'tkazish va tayyorlashda birinchidan: ta'limning birinchi yilida predmet rangining nomini tugri qullab javob berish talab etilsa, keyinchalik ikkinchi o'quv yilida so'z birikmalari, jumla (qizil shar, sariq koptok) aytishga undash lozim. Ikkinchidan, ta'limning birinchi yilida bolalarga alternativ savollar qo'yish lozim, ya'ni qanday rang? shakl, kattalik? degan savol berilmaydi. Bunday savollar ta'limning ikkinchi va uchinchi yilida o'rta guruhlarda berish, dastlabki bosqichda esa bolalar ushbu so'zlarni o'zlashtirib, doirani kvadratdan, oq rangni yashildan ajratsalar yetarli bo'ladi. Savolning ikkinchi kismini ma'lum vak.tdan keyin tushunib olishi uchun savolni kuydagicha berish lozim: Qanday rangda - qizil yoki yashilmi, qanday kattalikda? — kattami, kichikmi va hokazo.

Bolalarda narsalarning alohida belgilarini farqlash malakalarini shakllanganda, ularni avval ikkita belgini keyinchalik baravariga uchta belgilarni taqqoslashga o'rgatish kerak. Buning uchun maxsus jihozlar tayyorlanadi: korozdan: changilar, uylar, qalpoqchalar, loydan idishlar, har xil mevalar, sabzavotlar va hokazolar yasaladi. Katta guruh bolalari bu narsalarni rasm, applikaqiya, qurish-yasash mashg'ulotlarida tayyorlab kichikintoylarga sovg'a

qilsalar, syujetli o'yinlarda qo'llasalar bo'ladi. Ayrim jihoz va rasmlarni pedagogning uzi tayyorlaydi.

Yilning ohirida bolalar nafaqat atrofdagi narsalarning belgilarini topib nomlashlari, balki murakkabroq mashqlarni ham bajara olishlari kerak. Masalan: har xil predmetlar ichidan katta qizil doirani, kichkina yashil kvadratni, katta sariq uchburchakni tanlab olish va x.k.

Bunday mashq yerdamida material o'zlashtirilishi tekshiriladi va ayni paytda berilgan so'zlarni mustahkamlanishi ta'minlanadi.

Birinchi ta'lim yilida olib borilgan barcha ishlar, borliqdagi predmetlar haqidagi bilimlarini kengaytirish va keyinchalik bu tushunchalarni aniqlashtirish va mustahkamlash uchun asos bo'ladi.

Ta'limning ikkinchi yilida bolalar atrofdagi barcha predmetlardagi belgilarini umumiy savol orqali aniqlashga o'rganadilar: qanday rangda? shaklda? kattalikda? Predmetlarning belgilari asosida topishmoqlar topishga o'rganadilar. Bu oddiy topishmoqlar sifat, xossa va boshqa belgilar haqidagi tasavvurlarini oydinlashtiradi, belgilarni ifodalovchi so'zlar vositasida predmetlarni taniy olish, farqlash, ularni talqin qilishda so'zlardan foydalanishga o'rganadilar.

Bilish faoliyatni rivojlantirish uchun turli predmetlarni taqqoslashga o'rgatish zarur. Shu sababli, bolalarda atrofdagi predmetlarni nomlash, o'xshash belgilar bo'yicha farklash, o'xshash tomonlarini topishga vaqtida tayyorlab borish katta ahamiyatga ega. Shu sababli o'quv dasturlarga predmet, xossa va sifatlarni aniklash ustida ishlashda kerak bo'lgan tushunchalar qatoriga «bir xil», «har xil», «o'xshash» kabi tushunchalar xam kiritiladi. Bu tushunchalar ta'limning ikkinchi yiliga mo'ljallangan bulsa-da, bolalar birinchi yilning ohirida bu tushunchalarni egallab, taqqoslash, umumlashtirish oladilar.

Ta'limning birinchi yilida har xil so'zlar va so'z birikmalarini, harf tuzilishi jihatidan murakkab bo'lgan so'zlar va iboralarni eslab qolish bolalar uchun qiyindir. So'zlarni qiyinlik bilan eslab qolishni inobatga olib, ularni fakat jonli muloqot orqali o'zlashtirilishini kutib bo'lmaydi. Shuning uchun bu so'zlarni maxsus Mashg'ulotlarda qo'llay boshlab, bilish faoliyati va nutqining rivojlanishiga erishish mumkin.

Atrofdagi voqelik haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularni umumlashtirishga, taqqoslashga o'rgatishda ma'lum tushunchalar bo'ladi. Buning uchun quyidagi mashg'ulotlar olib borish mumkin.

#### **Birinchi mashg'ulot.**



Predmetning bir nechta belgilarini sezish va idrok etish va farqlash. Taqqoslash uchun predmet (masalan: piyolalar, kosalar, har xil rang, shakl va kattalikdagi likopchalar) Jadvallardan yangi so'zlar kiritish: bir xil, har xil.

#### **Ikkinchi mashg'ulot.**

Yangi obyektlarda tassavurlarni kengaytirish, so'zlarni mustahkamlash. Daktil shaklidagi so'zlarni ajratish (o'yinchoq, mebel, kiyim-kechak va hokazolarni juftlikda taqqoslash).

#### **Uchinchi mashg'ulot.**

So'zlarni mustahkamlash, ularning ma'nosini maxsus tayyorlangan, bitta va undan ko'p belgisi bilan farq qiladigan didaktik jihozlar bilan kengaytirish. «o'xshaydi» «bir hil», kabi tushunchalarni shakllantirish. (o'yinchoqlar, applikaqiyalar, rasmlar).

#### **To'rtinni mashg'ulot.**

«Loto» uyini orqali tushunchalarni aniqlash, so'zlarni mustahkamlash. Bir xil, har xil, o'xshash suzlariga mos rasm, kartochkalar topish.

**Maqsad:** Bolalarga bir xil predmetlarni o'xshashi va farqli bo'lishini ko'rsatish. «Xar xil», «bir xil» yangi so'zlar bilan tanishtirish. Mashg'ulot uchun bolalar nomini biladigan tanish predmetlarni olish kerak. Jihozlar:

1. 3 ta katta bir xil, 3 ta kichkina bir xil chashkalar (kosa, piyola). Katta va kichik fakat xajmi bilan emas, rangi va shakli bilan ham farq qilib kerak.

3 ta kichkina likobchalar, 3 ta katta chuqur likobchalar (rangi xam xar xil), 3 ta choy qoshiq, 3 ta osh qoshiq. Kubiklar 4 ta kichkina qizil, 4 ta o'rtacha ko'k, 4 ta katta yashil.

So'zlar uchun tirgovichlar va «bir xil», «har xil» so'zlar yozilgan jadvalchalar.

4. Predmetlar nomi yozilgan so'zli jild.

Mashg'ulotning borishi;

Bolalar stol atrofida o'tiradilar. Pedagogning o'ng va chap tomonlarida yopiq qutilarda jihozlar bo'ladi.

Pedagog piyolalarni oladi. Bu nima? deb so'raydi. Bolalar nomini aytadilar. Bolalar qanday rangda? Shaklda? hajmda? savolini o'zlashtira olmaganlaricha savollar javob berishga qulay holatga keltirib beriladi.

**Masalan:** Pedagog: Kuk piyolami yoki oqmi? Bolalar: Ko'k. Pedagog xuddi shunday ikkinchi piyolani oladi va shu savolni takrorlaydi. So'ngra pedagog ikkala piyolani o'xshashligini bolalarga ko'rsatadi. Shundan so'ng pedagog stolning o'ng tomoniga «bir xil» degan yozuvli jadvalchani qo'yib, yoniga piyolani qo'yadi. Bolalar yangi so'zni daktilda qaytaradilar va nomlaydilar. Shu tarika pedagog bir

juft piyolalarni olib, o'zaro bir xil, lyokin birinchi juftdan farq qiluvchi piyolalarni olib ko'rsatadi va tegishli jadval yoniga qo'yadi. So'ngra qolgan ikkita piyolani oladi va ularni taqqoslaydi: Bu piyola - oq, buni esa ko'k. Qo'yilgan savollartga bolalar javob beradilar. Bu katta, buni esa kichkina. Pedagog hulosa qiladi: «Xar xil» va stolning chap tomoniga qo'yib «har xil» deb yozilgan jadvalchani qo'yadi. Bolalar yangi so'zlarni qaytaradi. Xuddi shunday qilib qoshik va boshqa narsalar bilan mashqlar mustaqil bajariladi.

Bolalarda faqat shu ikkita predmet bir xil yoki har xil ekan degan tushuncha hosil bo'lmashiga uchun endi uchadan predmet qo'yiladi. Pedagog bolalarga harakatli uyini o'ynashni buyuradi. Bolalar harakatli uyinni o'ynayotganda pedagog predmetlarni qutilarga joylab, jadvalchalarining o'zini qoldiradi. Bolalar yana joylariga o'tirganlarida pedagog juft predmetlarni tarqatadi va bolalar predmetlarni ikkita jadvalchalar birining yoniga mustaqil olib borishlari kerak. Ular o'rtoqlarining ishini to'g'ri, noto'g'riligini tekshiradilar va birgalikda so'zlarni takrorlab boradilar.

Shu bilan mashg'ulot yakunlanadi. Agar mashg'ulot ta'limning ikkinchi yili olib borilayotgan bo'lsa, pedagog bolalarga quyidagi vazifalarni ham beradi:

Menga bir xil kubiklarni ber, har xil chashkalarni ber va hokazo. Shu tariqa pedagog o'yinchoqlarni qutilarga yigadi va navbatchiga joyga olib borishni buyuradi. *Mashg'ulot.*

**Jihoz:** bir xil va har xil koptoklar, matryoshkalar, o'yinchoq idishlar, hayvonchalar, ko'rirchoq va bolalar kiyimi. **Maqsad:** Predmetlarni taqqoslashga doir mashqlarda, o'xshash va farqli jihatini topish, bir xil va har xil so'zlarini mustahkamlash. Predmetlarni navbatma-navbat ko'rsatib, pedagog bolalarga «bir xil», «har xil» so'zlardan tashqari predmetlarning alohida belgilarini ajratish va taqqoslashga yordam beradi. So'ngra bolalardan atrofda o'xshash va har xil predmetlarni topish talab qilinadi. Bolalar xonadagi bir xil derazalar, stullar, gullar borligini, har xil ikkita banka, pedagog va tarbiyachining sumkalari, fartuklar va hokazolar borligini aniqlaydilar. har gal taqqoslanayotgan predmetlarni «bir xil» «har xil» so'z bilan belgilab borish kerak. Birinchi yilda narsalarning o'xshash va farqli tomonlarini so'z bilan ifodalash talab kilinmaydi, bu talabni ikkinchi o'quv yilida qo'yish mumkin.

#### **Mashg'ulotlar:**

Ta'limning ikkinchi yilida o'tkaziladi.

Jihozlar: rangi har xil, kattaligi bir xil, kattaligi har xil, rangi bir xil -ikkita ayikcha. Applikaqiya- kattaligi va rangi bilan farq qiladigan to'rtta uy va hokazolar.



Maqsad: narsalar farqi va o'xshashligini aniqlaydigan mashqlar

o'tkazish, yangi «o'xshaydi» so'zi bilan tanishtirish. Pedagog ikkita qizil-biri katta, biri kichik koptpkn ko'rsatib «Bir xilmi?» deb suraydi. Bolalar odatda predmetni hajmiga ko'ra «har xil» deyilar. Kamchilik bolalar koptokning rangi bir xilligiga e'tibor beradi. Pedagog ikkala koptokning rangini bir xilligini aniqlab beradi. Bolalare'tiroz bildiradi. Albatta, bir vaqtning o'zida ham hajmini ham rangining o'xshashliklarini bir vaqtning o'zida anglash qiyin. Buning uchun uchinchi obyekt, ya'ni hajmi kattaroq va kichikroq bo'lgan yashil koptok kiritiladi. Endi bolalarga koptoklarni o'xshash va farqli tomonlarini ilg'ab olishi osonroq bo'ladi. Pedagog «uxshaydi» so'zini kiritadi. Suzlar juftlikda solishtiriladi: bu koptoklar bir xil: qizil va katta, bu koptoklar har xil: kattasi qizil, kichigi ko'k, bu koptoklar o'xshash: ikkitasi ham qizil, lyokin birinchisi katta, ikkinchisi kichik.

Pedagog predmetlarning alohida belgilarini taqqoslab ko'rsatadi va nomlaydi: «xar xil», «bir xil», «o'xshash». Ularni qanday aniqlash mumkin bo'lgan belgilarni ta'kidlab utadi.

Mashq uchun maxsus tayyorlangan applikaqiya ishlanadi.

Mashg'ulot

Turtinchi va keyingi mashg'ulotlar oddingi mashg'ulotlardan deyarli farq qilmaydi. bu yerda odatdagidek, so'zlar mustahkamlanadi, o'yin («loto», «Topshiriqli kartochka, topishmoqar»)da, tasviriy faoliyatda mavjud tushunchalar aniqlashtiriladi va hokazo. o'yin uchun bolalarga uchta yangi suzlar yozilgan kartochkalar va bir xil, har xil, o'xshash bo'lgan predmetlar rasmi tasvirlangan kartochkalar tarkatiladi. Bolalar so'zlarni o'qib, so'zlarga tegishli rasmlarni tanlaydilar. Topshiriqni tez va to'g'ri bajargan bolalar o'yin goliblari hisoblanadi. Yul qo'yilgan hatolar bolalar tomonidan tahlil qilinadi. Bolalarda predmetlarni farqlash va o'xshash tomonlarini topish tushunchalarini erta shakllanishi keyinchalik tegishli so'zlarni kundalik nutqida oson ishlata olish imkoniyatini beradi. Masalan, Naima va Zeboning bir xil tufligi bor; gilos va o'rikning barglari har xil, muz oynaga uxshaydi, qizcha onasiga o'xshaydi va hokazo.

Narsalarni taqqoslash, farqlash malakalari ta'lim berish jarayonida rivojlantiriladi. Bolalar nafaqat predmetlarni, balki tabiat obyektlarini, hayvonlarni, o'simliklarni solishtira boshlaydilar.

Masalarn, quyon va mushuk-har xil hayvonlar. Quyonning quloqlari uzun, mushukniki kalta, mushukning dumi uzun, quyonniki kalta. g'vvoyi kuyon va uy quyoni o'xshash. Kuzatuvdan misol keltiramiz. Tarbiyachi rasm ko'rayotgan bolalardan so'raydi: rasmda nechta jo'ja tasvirlangan? Bitta bola 5 ta, deb javob

beradi, boshqasi, maxsus mashg'ulotlarda solishtirish ko'nikmasi shakllangan bola esa «Zta» degan javobni beradi va o'z javobini isbotlay boshlaydi: 3 ta jo'ja, ikkitasi har xil- tumshug'i har xil, oyoqlari har xil, bu jo'ja emas, o'rdakcha, deb daktilda tushuntiradi. So'zlarni joyida, to'g'ri o'zlashtirishda bolalar kup qiyinchiliklarga duch keladilar. Masalan, mulokat jarayonida pedagog konkret belgini bildiruvchi «singan» so'zini beradi. Kichik guruhdagi bolalar so'zni o'zlashtirdilar. «Pachoqlangan» va «yirtilgan» «buzilgan» so'zlarni bilmaganligi uchun bolalar ular o'rniga hamma narsalarga «singan» suzini ishlata boshlaydi. Singan, pachoqlangan, yirtilgan kabi so'zlarning differenciaqiysi nisbatan qiyinroq bo'lgani uchun, bu so'zlar dasturda kechroq kiritilishi ko'zda tutilgan edi. Ta'limning ikkinchi yilida ikkita paralel guruxdagi maxsus mashg' ulotlarda bu mavzu o'tilganda quyidagilar aniqlandi.

Ikkala guruh so'zlarni tez o'zlashtirdilar va farqladilar. Tez kunda bu so'zlarni muloqotda ko'llay boshlaganlari kuzatildi. Biroq, «singan» so'zi bir yil oldin utilgan gurux bolalar tomonidan «yirtilgan» va «pachoqlangan so'zlar o'rniga ham «singan» so'zini ishlatishda davom etayotganlari kuzatildi. Pedagog va tarbiyachining eslatmalaridan keyin esa bolalar darhol hatolarini tuzatadilar.

Shu vaqtning o'zida parallel guruhdagi bolalarda hatolar kuzatilmaydi, sababi, ular bilan maxsus o'rgatish mashqlari olib borilgan. Bu misol birinchi guruhda predmetlarni solishtirish bo'yicha maxsus mashg' ulotlar olib borilmaganidan dalolat beradi.

Ikkinchi misol: tarbiyachi bolarga yangi yil archasini ko'rsatib, «archa» so'zi bilan tanishtiradi. Kichik guruh bolalari bu so'zni tez va oson o'zlashtiradilar. rzda esa hiyebonga borganda tarbiyachi archani ko'rsatib so'raydi: Bu nima? Bolalar har xil javob beradilar: shox, butacha, daraht. Tarbiyachi bolalar so'zni esdan chiqargan deb o'ylab ularga eslatadi: bu archa. Lyokin bolalar birgalikda e'tiroz bildiradi: «esingizdan chikibdi, archa zalda, uyincholqari bor». Demak, bolalarda archa haqida noto'g'ri tasavvur shakllangan. Bunday hatoga yo'l qo'ymaslik uchun, archa so'zi bilan dastlabki tanishuvda tabiiy archani ko'rsatib, zaldagi archani esa bezatilgan archa deb tanishtirish kerak.

Boshqa gurux bolalari esa tushunchalar to'g'ri berilganligi sababli, tabiiy archa va zaldagi bezatilgan archa o'rtasidagi farqni to'g'ri va oson ajrata bilganlar. Bu ko'nikmalar tasviriy faoliyat mobaynida mustahkamlanib boriladi. Albatta, bunday hatolar meyerda eshitadigan bolalarda ham uchrashi mumkin. Lyokin eshitadigan bolalarda bu hatoni tuzatish oson, to'rt-5 yoshli kar bolaning hatosini tuzatishga esa ko'p vaqt va maxsus mashg' ulotlar o'tkazish kerak buladi.



Shuning uchun bunday hatolarni tuzatishdan ko'ra, mashg'ulot o'tayotgan vaqtda kerakli so'zlarni puxta tayyorlangan maxsus mashg'ulotlarda bergan ma'qul. Bolaning bajara olaman, dila olaman so'z birikmasi o'rniga bilaman iborasini qullayotganini :P'P'ayotgan pedagog uni to'g'rilab misol keltiradi: Men rasmni chiza olaman (bilaman emas), javobni bilaman (bajara olaman emas) va hokazo, bola bu so'zlarni pedagog ketidan qaytaradi. Mumkin, mumkin emas (avval uyinda), bilaman, bilmayman, esimdan chiqdi (mashg'ulotda), charchadim (sayrda) va xokazo tushunchalarning murakkabligiga qaramay, ularni maxsus mashg' ulotlarda shakllantirilishiga muhtojlik sezilmaydi. So'zlarni muloqotda tez-tez ishlatilgandagina ularning o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

Shu maksadda tajriba mashg'ulotlari asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Berilgan dastur asosida rejalashtirishda alohida maxsus mashg'ulotlarni emas, balki bir biri bilan uzviy bogliq bo'lgan va ma'lum oddiy tushuncha va so'z boyligini o'zlashtirishga mo'ljallangan mashg'ulotlar tizimini rejalashtirish maqsadga muvofiq.
2. Mumkin o'rinlarda kerakli tushunchalarni shakllanishda avval jonli muloqotda tanishtirilib, keyinchalik maxsus mashg'ulotlarda bu so'zlarning ma'nosi kengaytiriladi, shuningdek tushunchalar aniqlashtiriladi. (Masalan: och-yop, yuv-art, kir-chiq kabi so'zlarni bolalar mashg' ulotlardan avval, muloqolt davomida o'rganadilar).
3. Bu turdagi mashg'ulotlar uchun imkon qadar tabiiy vositalardan foydalanishga harakat qilish kerak. Masalan: mebel, idishlar, xayvonlar, uyinchoqlar, rasmlarini ta'limning ikkinchi yilida qo'llash ma'qul.
4. Mashg' ulotlar uchun maxsus sharoit yaratayotib, bu sharoitlarni o'zgaruvchan bo'lishiga ahamiyat berish kerak. Uyin yoki boshqa amaliy faoliyat, so'zlarni qo'llash mashqlari tabiiy bo'lishi lozim.
5. Mashg' ulotni tayyorlaytganda yangi so'zni didaktik o'yinlarda, jonli muloqotda qo'llash mumkin bo'lgan sharoitlar ko'zda tutiladi.
6. Bolalarda tushunchalarni shakllantirish jarayonida ko'rgazmali, amaliy va nutqiy faoliyatni tushunchalarni aniqlashtirish, mustaxkamlash, ifodalovchi so'zlarni faol ishlatilishiga qaratish kerak, o'rganilayotgan narsaning umumiy va alohida belgilarini solishtirish va taqqoslash yo'li bilan aniqlashda bolalarga yordam berish kerak. Mashg'ulotlar tizimida oldin o'zlashtirilgan va yangi shakldagi so'zlarni turli vaziyatda ko'llanishi nazarda tutilishi kerak.

## Savollar va topshiriqlar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshidagi bolalarning nutqining rivojlanish mexanizmi qanday?
2. Tasavvur va tushunchalarni rivojlantirishga oid mashqlarni ta'riflab bering.
3. Lug'atni aniqlashtirish va mustahkamlash uchun qanday o'yin va mashqlar qo'llash mumkin?
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi rivojlanishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilishi zarur?
5. Kun tartibiga rioya etish jarayenida nutq qanday rivojlantiriladi?
6. Jismoniy tarbiya berish choida bolalar nutqi qanday rivojlantirilishi kerak?

## IV BOB ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING BOG'LANGAN NUTQINI O'STIRISH VA RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR

### Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bog'langan nutqini o'stirish yo'llari
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bog'langan nutqini o'stirishda nafas, ovoz va tovushlarni mustahkamlash usullari
3. Bog'langan nutqni o'stirishga oid rivojlantiruvchi o'yinlar

### 1-§ Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bog'langan nutqini o'stirish yo'llari

#### Bajargan topshiriqlar haqida bayon etish

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar dastlab buyruq maylidagi fe'llar bilan tanishadilar. Bevosita muloqot jarayenida buyruq fe'llarni idrok etib va qo'llab, qator fe'llar ma'nosini o'zlashtiradilar. Buyruq maylida o'zlashtirilgan so'zlar, keyin xabar maylida ham o'zlashtiriladi. Buning uchun «Topshiriqlar» o'yinidan keng foydalaniladi. Pedagog bolalarga navbatma navbat topshiriqlar yozilgan jadvalchalarni ko'rsatib murojaat etadi; *Voli, suv keltir. Ozoda gullarga suv qo'y.* Boshqa bolalar ham o'qib chiqadilar. Topshiriqlarni bajarish jarayonida va undan keyin pedagog bolalarga savol beradi: *Vali nima qilyapti? Bolalar javob beradi: Vali suv keltiryapti. Vali nima qildi? Vali suv keltirdi.*

Topshiriqlar bir biri bilan bog' lansa ham yaxshi: *Masalan : Lola, piyolani olib, suv keltir. Lola, piyolani Irodaga ber. Iroda, suv ich. Piyolani qo'y.* Pedagog topshiriqlarni doskaga yozadi, yoki tegishli jadvalchalarni ketma-ket jild cho'ntaklariga qo'yib chiqadi.



Har bir topshiriqning bajarilishidan so'ng yozilgan topshiriq yoniga bajarilayotgan, yoki bajarilgan topshiriq yoziladi.

Ozoda, piyolani ol

Suvni keltir

Ozoda, piyolani Irodaga ber

Iroda, suvni ich

Iroda, piyolani qo'y

Ozoda piyolani oldi.

Ozoda suv keltirdi.

Ozoda Irodaga piyolani berdi.

Iroda suv ichyapti

Iroda piyolani qo'ydi.

Dilshod, qo'g'irchoqni Karimaga ber

Karima, qo'g'irchoqni uxlat. Dono, sakragichni Guliga ber. Guli, sakrab berdi

Karima qo'g'irchoqni uxlatyapti. Dono sakragichni Guliga berdi. Guli sakrayapti.

Bunday ish turi sistematik o'tkazilib, topshiriqlar hajmi va soni ko'payib boradi. Bajarilgan topshiriqlar asosida, hikoyalar tuziladi. Topshiriqlar bolalarning o'yin, mehnat faoliyati bilan bog'lanadi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida qo'g'irchoqlar bilan ijodiy o'yinlar o'tkaziladi. Mustahkamlanishi lozim bo'lgan lugat mazmuniga qarab mavzular tanlanadi. Mavzular quyidagicha bo'lishi mumkin: «qo'g'irchoqqa uy quramiz», «qo'g'irchoqni cho'miltiramiz», «Kir yuvamiz» va h.k.. o'yinlar tarbiyachi bilan birgalikda rejalashtiriladi.

Har bir o'yindan oldin, tarbiyachi bolalarda mavzuga oid tushunchalar mavjudligini aniqlaydi. Masalan, «qo'g'irchoqni cho'miltiramiz» o'yinidan oldin «Nima kerak?» didaktik o'yini o'tkaziladi, o'yin paytida bolalar qo'g'irchoqni cho'miltirish uchun nima kerakligini aytadilar.

Matn tuzishdan avval syujetli o'yin o'tkazilib, bolalar qo'g'irchoqni cho'miltiradilar. o'yin chog'ida bolalarga maxsus iboralar o'rgatiladi. Keyin pedagog mazkur mavzu bo'yicha ikkita mashg'ulot olib boradi. Birinchi mashg'ulotda «Topshiriqlar» o'yini, o'yin asosida tuzilgan matnni o'qish va qayta hikoyalash kabi ish turlari qo'llaniladi.

Mashg'ulotlar namunalarini keltiramiz:

*Mashg'ulotlar maqsadi: topshiriqlarni tushunishga, matnlarni o'qish, tushunish va qayta hikoyalashga o'rgatish*

o'yinnig mavzusi: «qo'g'irchoqni cho'miltiramiz».

Bolalarni o'yushtirib, pedagog o'yin mavzusini aytadi: Xozir qo'g'irchoqni cho'miltiramiz. Bundan keyin so'raydi: Nima kerak bo'ladi?. Bolalar: vanna, suv, sovun, gubka va h.k. deydilar. So'ng pedagog jadvalchada yozilgan yoki daktil topshiriqlar beradi: Sobir, stolga matoni yoz, vannani olib kel. Javlon, (issiq, sovuq) suv quy. Iroda, sovun, sochiq, gubkani olib kel. Malohat, qo'g'irchoqni olib kel va yechintir. Lola, qo'g'irchoqni cho'miltir. Vali, qo'g'irchoqni artib, uxlat va h.k. o'yin paytida, topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalardan bittasi bajarilayotgan harakatlarni nomlaydi: vannani keltiryapti, suv quyyapti, qo'g'irchoqni cho'miltiryapti va h.k., Qolgan bolalar gapimrayotgan bolaning ketidan takrorlab turadilar. Qo'g'irchoqni cho'miltirish paytida bolalar: «boshini, yuzini, qo'lini, oyog'ini, belini yuv»-, deb turadilar. Bundan tashqari, harakatlar to'g'ri bajarilishi kuzatilib turadi (qo'g'irchoqni tushurib yubormaslik, ko'ziga sovun tekkizmaslik, quruqlab artish kerak). Cho'miltirilgan qo'g'irchoqni yaxshilab artib, kiyintiradilar, o'ynatadilar yoki uxlatadilar.

Ikkinchi mashg'ulotda pedagog bergan savollari asosida o'yinning borishini matnda aks etadi va doskaga yozadi: *Biz Lola ismli qo'g'irchoqni cho'miltirdik. Sobir vanna olib keldi. Javlon sovuq va issiq suvni quydi. Iroda sovun, sochiq, gubkani olib keldi. Lola qo'g'irchoqni cho'miltirdi. Vali qo'g'irchoqni artib, kiyintirdi.*

Yozilgan matnni bolalar birgalikda o'qiydilar. O'yin qatnashuvchilari va qo'g'irchoqni almashtirilgan holda 3-4 marta takrorlangandan so'ng, bolalar matnni yaxshi eslab qoladilar. Matn hajmi asta sekin murakkablashtirilib kengaytiriladi. Berilgan mashg'ulot namuna sifatida olinadi, pedagoglar esa mashg'ulot mavzusi, matnning hajmi va murakkabligiga borishini o'zgartirishi mumkin.

Bunday ish ta'limning ikkinchi yilida boshlanib keyingi yillarda davom ettiriladi.

Uchinchi yilda olib boriladigan mashg'ulotlar.

#### **Birinchi mashg'ulot**

Dasturning mazmuni: bajarilgan topshiriqlar haqida bayon etish. Metodik usullar: topshiriqlarni bajarish, matnni o'qish, mustaqil hikoyalab berish.

Jihozlar (o'yinchoq). Xona maketi; mebel: shkaf, kitob javoni, krovat, stol, divan, kreslo, muzlatkich; idish-tovoq: kosa, piyela, qoshiq; kubik, piramida, mushukcha, kuchukcha, guldon gullari bilan.

Mashg'ulotning borishi:



Pedagog: Biz nima qilamiz? Bolalar: mashg'ulot o'tamiz.

Pedagog: Oldin o'ynaymiz, keyin gapirib beramiz. Bundan keyin, eshikni taqillatib qo'g'irchoh kirib keladi.

Pedagog: qarang, qo'g'irchoq mehmonga keldi. qo'g'irchoqning uyi yo'q. Unga uy qurib beramiz. (Bolalar pedagog ketidan takrorlab turadilar).

Pedagog: Nima quramiz? Bolalar: uy

Pedagog: Kimga uy quramiz? Bolalar: qo'g'irchoqqa. Pedagog: Uyga nima kerak? Bolalar: uyga mebel kerak. Pedagog: qanaqa mebel kerak? Bolalar: Shkaf(stol, stul va x.k) Pedagog: Sarvar shkaf va kitob javonini olib kel. Shkafni chap tomonga, kitob javonini o'ng tomonga qo'y.

Shkaf nima uchun kerak?

Bola: Kiyim uchun.

Pedagog: Voxid, qo'g'irchoq kiyimini olib kel va shkafga ilib qo'y.

Bolalar topshiriqlarni bajaradi, pedagog bolalarga murojaat etib

so'raydi: To'g'ri rimi? Bolalar to'g'ri deb javob beradilar.

Pedagog: Jannat, stol va ikkita o'rindiqni olib kel. Stolni o'rtaga qo'y.

O'rindiqni o'ng va chap tomonga qo'y.

Bolalar: to'g'ri.

Pedagog: Iroda krovat va divan olib kel. Krovatni o'ng tomondagi devor yoniga qo'y. Divanni derazalar o'rtasida qo'y.

Bolalar: To'g'ri.

Pedagog: Sardor: muzlatgichni olib kel. Eshik yoniga qo'y.

Bolalar: To'g'ri.

Pedagog: Davron, Sardor nima qildi?

Davron: Sardor muzlatgichni eshik yoniga qo'ydi.

Pedagog: Muzlatgichga nima qo'yamiz?

Bolalar turli oziq-ovqat mahsulotlar nomini aytadilar.

Pedagog: Jannat, oshxonadan sariyog' va pishloq olib kel.

Muzlatgichga qo'y.

Pedagog: sariyog' va pishloq nimaga kerak?

Bolalar : qo'g'irchoq yeydi.

Pedagog:Vohid, guldonni ol, stol ustiga qo'y.

Bolalar: To'g'ri.

Pedagog (gullarni guldonga qo'yadi) Men nima qildim?

Sarvar: Siz gullarni guldonga qo'ydingiz.

Pedagog: qo'g'irchoqning ismi nima?

Bolalar: qo'g'irchoqning ismi Ozoda (birgalikda)

Pedagog: Ozodani chaqiring.

Bolalar: Ozoda, Ozoda, kel.

Qo'g'irchoqni olib kel.

Qo'g'irchoq kelib, pedagog qulog'iga «rahmat» «deydi», o'yin tugatiladi.

Ikkinchi mashg'ulotda, yuqorida zikr etilgan tartibda hikoya tuziladi.

### Rasmlar tagiga yozish

Ta'limning birinchi yilidanoq bolalar amaliy ravishda buyruq va xabar maylidagi gaplarni tushunishga uratiladi. Yilning ohiriga bolalar 10 ta rasm tagiga tayyor ikki so'zli yozuvlarni qo'yishi kerak. Ishning dastlabki bosqichida pedagog bolalarning suratlari tagiga yozuvlarni qo'yadi. Fotosuratlarda bolalar 10 ta maishiy harakat bajarayotgan bolalar tasvirlangan bo'ladi (o'ynayapti, sayr qilyapti, o'tiryapti, yozyapti, uxlayapti, ichyapti). Buyruq maylidagi gaplarni o'zlashtirgach, xabar maylidagi gaplar tuzishga o'tiladi. Dastlab (1-chi va 2-ta'lim yili)bolalar rasmlar tagiga yozuvlar qo'yib chiqadilar. Pedagog bolalar bilan birga rasmlarni ko'rib chiqadi. Suratlar asosida suhbat o'tkaziladi. Pedagog so'raydi «Kim?».Bolalar «Ozoda» deb javob beradi. Pedagog: Bu nima? Bolalar ko'rsatib, nomini aytadilar: bu ko'zi, burni, og'zi va x.k) So'ng pedagog jild cho'ntakchasiga jadvalchani qo'yib so'raydi: *Ozoda nima qilyapti?* Bolalar jadvalchani o'qib, mazmunini tushunmasdan, nima qilishini bilmaydi. Pedagog rasm tagiga *Ozoda o'ynayapti* yozuvni qo'yadi.

Bolalar yozuvni daktil o'qiydilar. Shunday qilib barcha rasmlar tagiga yozuvlar qo'yilib, bolalar tomonidan yozuvlar o'qiladi. So'ng rasmlar tagidagi yozuvlar olinib bolalarga beriladi. Bolalar yozuvlarni o'qib chiqadi. Pedagog savol beradi: «nima qilyapti?» Bolalar chiqib, rasmlar tagiga tegishli yozuvni qo'yadilar. Mashq birinchi marta o'tkazilayotganda, tayyor yozuvlar bilan ishlanadi: Ozoda o'ynayapti, Bohodir uxlayapti. Sardor yozyapti. va x.k. Keyin yozuvdagi ismlar qirib olinadi. Endi bolalar ismlarga qarab emas, harakat nomlari bo'yicha rasm tagiga yozuv qo'yadilar.

Bir nechta mashg'ulotda bolalar rasm tagiga qo'yiladigan yozuvni, topshiriqdan farqlashga o'rgatilishi kerak. Bolalarga turli jadvalchalar beriladi. Topshiriqli jadvalni olgan bolalar topshiriq bajaradi. Yezuvli jadvalni olgan bolalar uni tegishli rasmlar tagiga qo'yib chiqadi. Bolalarning diqqati fe'llardagi bir xil o'zaklarga jalb etadi: chiz-chizyapti, o'yna-o'ynayapti; sakra-sakrayapti.

Keyingi bosqichda yozuvlar avvalgidек olinadi, rasmlarda esa bolalar emas, katta kishilar va hayvonlarning harakatlari aks ettiriladi. Yozuvlar bolalarga



beriladi. Rasmlar qo'yib chiqilgandan so'ng, bolalar qo'lidagi yozuvlarni tegishli rasmlar tagiga qo'yib o'qiydilar. qolgan bolalar yozuvni o'qib, to'g'ri yoki noto'g'riligini aytadilar.

Mashqlarda qo'g'irchoq teatr personajlari ham ishlatilishi mumkin. Harakatni kim bajargandan qat'iy nazar, bolalar mazmunini tushuna boshlaydilar. Darak gaplarni tuzishda mashq qilib, bolalar fe'llarni qo'llashga o'rganadilar, mazmunini tushuna boshlaydilar.

O'zlashtirilgan ikki so'zli gaplar, uch so'zli etib yoyiladi. Masalan Ozoda koptok o'ynayapti. Vali non yeyapti. Dildora sut ichyapti. Keyingi yillarda bolalar mazmunan yaqinroq bo'lgan rasmlar ishlatiladi. Agarda boshida keskin farq qiladigan rasmlar berilsa, asta sekin mazmuni yaqinroq bo'ladi. Masalan: *qiz bola arg'imchoq uchyapti. o'g'il bola koptok o'ynayapti.* Keyin rasmlar mazmuni quidagicha bo'lishi mumkin: *qiz bola koptok o'ynayapti. Qiz bolalar koptok o'ynayaptilar. o'g'il bola stolni artyapti. o'g'il bola stulni artyapti. Koptok stolni ustida. Koptok stolni tagida.* Bolalar matnni ongli qabul qilishga o'rganadilar. Mashqda topshiriq o'zgartirilishi ham mumkin. Bolalarga rasmlar beriladi. Jild cho'ntakchalariga qo'yilgan yozuvlarni ketma-ket jo'r bo'lib o'qib chiqadilar. o'quvchi o'z rasmini tegishli yozuv bilan jild cho'ntaklariga qo'yadi. Bu mashqni o'quvchilar yozuvni labdan o'qib bajaradilar. Jadvalchani ko'rsatmasdan pedagog «*Kimda qiz uxlayapti*» rasmi bor?. Bolalar savolni pedagog bilan birgalikda gapiradilar. Tegishli rasmi bor o'quvchi *Menda* deb rasmni pedagogga beradi. Bolalar rasmga qarab, gapni birga o'qiydilar. labdan o'qish malakalarni mustaxkamlash va gaplar mazmunini tushunib ishlatish uchun «rasmni ko'rsat» o'yini xizmat qiladi. Bolalar ikkitadan rasmlar qo'yilgan doska yoniga chiqadilar. Ta'limning birinchi yilida 10 ta rasm ishlatiladi. 4-5 yillarda 20 tagacha rasm ishlatilishi maqsadga muvofiq. Kichkina yoshdagi bolalarga 3-4 rasm, kattalariga 8-10 ta rasm ko'rsatiladi. Pedagog: «*qiz bola chizyapti*» rasmini ko'rsat deydi. Bolalar tezlikda musobaqalashib rasmni topib beradilar.

Keyin o'yin mazmuni murakkablashadi. Bolalarning bittasi olib boruvchi bo'ladi, rasmlar soni ko'paytiriladi, mazmuni ham o'zgartirib boriladi. Lug'at hajmi kengayishi hisobiga ham o'yin yildan yilga murakkablashib boradi.

Bolalar chizgan rasmlari, kitobchalardagi rasmlarga ham tarbiyachilar yozuv tanlaydilar.

So'zlar ma'nosini aniqlashtirish va kengaytirish, grammatik shakllarni o'zlashtirish maqsadida bir xil nutqiy material bilan ko'p mashqlar bajariladi. Dastlab tayyor yozuvlardan foydalaniladigan bo'lsa, keyin ularni alohida

so'zlardan tuzadilar. Buning uchun avval ishlatilgan gaplar, qismlarga ajratilib qirg'iladi va konvertga solib bolalarga beriladi.

Bunday ish turi quyidagicha tashkil etiladi. Mashg'ulotda bolalar katta yozuvli jadvalchadan o'qigan gaplarni qirg'ib so'zlarga ajratadi va bolalarga uni yana butun qilishni taklif etadi.

Bolalar navbatma navbat doska yoniga kelib rasm tagiga 2-3-4 so'zdan iborat gap tuzadi va keyin hammasi matnni o'qiydi. Bolalar xato qilsalar, pedagog bolalar e'tiborini jalb qilib, uni to'g'irilashga yordam beradi. Bolalar sodda yoyiq va yig'liq gapning jadvalini o'zlashtirishi kerak. Fotosuratlar bilan ishlash chog'ida, bolalar o'zi haqida 2-3-shaxsda gapirishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Matnlar o'zlashtirilgandan keyin, bolalarga yangi rasmlar berilib, ular mustaqil ravishda yozuv tanlaydilar. Tanish mavzu bo'yicha yangi rasmlar beriladi. Masalan, qizil koptok o'ynayotgan bola rasmi berilib, keyingi gal yashil koptok o'ynayotgan bola rasmi berilishi mumkin. Rasmlar shunday tanlanadiki, bolalar yodlab olgan gapni aytmasdan, balki so'z va iboralardan foydalanib, mustaqil gap tuzishi kerak. Rasmlar asosida gap tuzish malakalarni mustahkamlash maqsadida «Kim tezroq?» o'yini tuziladi.

Bolalar gapni tez va to'g'ri tuzish bo'yicha musobaqalashishadi. o'yin paytida bolalar berilgan so'z bilan gap tuzadilar. Masalan doskaga «kir yuvayapti» so'zi yoziladi. Bolalar «Ona kir yuvayapti», «qiz bola ko'ylak yuvayapti», «Xola kir yuvayapti» gaplarni tuzadilar. Bolalar o'xshash gaplarni tuzganda, ongli ishlashiga, o'larda so'zlarning obrazlari gavdalanishiga e'tibor bermoq kerak. Buning uchun pedagog savollar yedamida har bir tuzilgan gapning ma'nosi o'zlashtirilganini aniqlashi lozim. Ba'zan, bolalarga harakatni ko'rsatib berishni taklif etish ham mumkin. Ko'rsat, qanday qilib «ona kir yuvayapti», «tovuqlarni boqayapti» va x.k. Bolalar rasmga berilgan yozuvni eslab qolib, gapni formal ravishda tuzishi mumkin. o'z o'rnida berilgan savol yerdamida bola u yoki bu so'zning ma'nosini tushunganini aniqlash mumkin bo'ladi. Mavzuga oid rasmlar turkumini ishlatilishi ham gaplar, matnlar tuzish malakalari egallanishini osonlashtiradi. Rasmlar tagiga tuzilgan yozuvlardan hikoya tuziladi. Rasmlar turkumi asosida hikoyalar tuzish alohida rasmlar asosida hikoya tuzish kabi bir xil tamoyillar asosida olib boriladi.

Pedagog bolalarga navbatma navbat rasmlarni ko'rsatadi va har bir rasm asosida suhbat o'tkazadi. Suhbat mazmuni bir-ikki jumla yordamida umimlashtiriladi. Rasmlarga berilgan yozuvlarda bolalar tomonidan aniq idrok etilgan, yaqqol ko'zga ko'rinadigan narsalar aks etilishi lozim. Masalan, rasmda bolalar kulayotgan bo'lsa, «*Bolalar quvnoq*» degan yozuv tuzish kerak. Nima



*uchun sen unday o'ylayapsan ?* deganda, *Bolalar kulyapti, men ko'ryapman* degan javob bo'ladi. Rasmlar turkumi voqyealar ketma-ketligini anglab olish va shu asosda bog'lanishli bayon etish uchun qo'llaniladi. Buning uchun bolalar har bir rasmni ko'rib chiqqanidan so'ng, ularni ma'lum izchillikda qo'yib chiqishda mashq qildirish kerak. Rasmlar ketma-ketligini ihtiyeiy ravishda o'zgartirilsa, hikoya mazmunmi buzilishini bolalarga ko'rsatish zarur. Shunday qilib biror mavzuga oid 5 ta rasmni ko'rib chiqib bolalar 5-8 gapdan iborat hikoya tuzadilar. hikoyani o'qib, tegishli rasmlarni ko'rsatadilar.

Keyin bolalarga boshqa topshiriq, ya'ni rasmlarni matnga mos etib qo'yib chiqish vazifasi beriladi. Rasmlarni ko'rib chiqib, konvertlarga solib berilgan gaplardan mustaqil hikoya tuzadilar. har gal rasmlarning mantiqiy ketma-ketligiga bolalar e'tiborini jalb etib, rasmlardagi voqyealarning bir biri bilan bog'liqligi ko'rsatib turiladi.

Berilgan hikoya asosida rasmlarni qo'yib chiqilgandan so'ng, bolalarga rasmga qaramasdan turib, tayyor gaplardan hikoya tuzish taklif etiladi. Maktabga tayyorlov guruhida voqyealarni izohlab berish o'rgatib boriladi. Masalan, *Botir kasal bo'lgani uchun, shifokor keldi. Botir qor o'ynagani uchun kasal bo'ldi va x.k.* Bunday mashqlar yordamida bolalar mustaqil ravishda hikoya qilishga o'rganib boradilar.

Hikoyani bitta rasm asosida tuzish murakkabroq hisoblanadi, shuning uchun rasmlar turkumi bilan ishlagandan so'ng alohida rasmlar bilan ishlanadi. Rasmlarda tasvirlangan voqyealarning vaqti, sabab, oqibatlarini bolalar tomonidan aniqlash juda mushkuldir. Tasavvurlarni aniqlashtirish maqsadida bayon qilish uchun reja vazifasini bajaradigan bir nechta savol beriladi.

Ma'lumki, ko'rish idroki vositasida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishidagi orqada qolishi kompensatsiyalanadi. Kino, multfilm, diafilmlarni qo'llash bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Notanish mazmundagi kinofilmlar ko'rish paytida alohida tasavvurlarni aniqlashtirish bilan chegaralanish mumkin. Syujetni bolalar, odatda yaxshi bilmaydilar. Kattalar gapirib bergan, yoki o'qib berilgan va bolalarga mazmuni tushunarli bo'lgan diafilm va multfilmlar syujeti ustidan ishlash quyidagicha olib boriladi:

Filmni ko'rib chiqqandan keyin, suhbat o'tkazilib, syujetning mazmuni tushuntiriladi va qisqa mazmuni yozib boriladi. So'ng hikoya ikkinchi marotaba o'qib chiqiladi. Filmni namoyish etish jarayonida uni to'xtatib, bolalar

jadvalchalardagi yozuvni yoki daktil nutqni qo'ldan o'qiydilar. Uchinchi marta filmni to'xtatmasdan ko'rsatiladi. Bolalar yozuvlarni eslab qoladilar va filmni qayta namoyish etganda uni xor bo'lib gapira oladilar.

Filmga berilgan yozuvlar kichik kitobcha tuzish uchun ishlatiladi. Film mazmunini tushunishini aniqlash uchun savollar beriladi, yoki film syujeti asosida rasm chizish taklif etiladi. Filmni orada muddat o'tkazib bir necha marta ko'rsatish tavsiya etiladi va namoyishdan avval mazmunini aks etuvchi qisqa matn o'qib chiqiladi. Qo'g'irchoq teatri va soya teatrlari ko'rsatish ham analogik ravishda olib boriladi.

#### **O'qilgan matn bo'yicha savollar berish**

O'qilgan matn mazmunini tushunilishini osonlashtirish, shuningdek o'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida ikki xil ish turi qo'llaniladi. «o'zlashtirilgan material doirasida o'qilgan matn mazmuni bo'yicha savollarga javob berish va mustaqil ravishda gap va matn mazmuniga savollar tuzish» deb belgilangan dastur talablarini bajarish maqsadida quyidagi ish turi tashkil etiladi. har xil murakkablikda bo'lgan mazkur talabining 3-5 ta'lim yili dastur talablariga kiradi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida so'zlar ma'nosini umumlashtirish yuzasidan tashkil etgan o'yin-mashqlarda so'roq so'zlarning ma'nosini o'zlashtirish vazifasi qo'yiladi.

Bog'lanishli nutqni rivojlantirish mashqlarida esa savollar yordamida o'qilgan matnlar mazmunini o'zlashtirishga yordam bermoq lozim. Shu sababli savollarni turlashtirish, savollar berish tartibini o'zgartirib borish va mexanik ravishda javob berilishini oldini olish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, har bir so'z ketidan taaluqli timsollar mavjudligini aniqlash kerak bo'ladi.

Bolalar savollarga matndagi gaplarni ishlatgan holda javob berishni tez o'rganib boradilar. Bolalar javoblari ongli ekanligini aniqlash uchun savollarni o'zgartirib turi va ketma-ketligini almashtirish lozim. Masalan o'qilgan matnda "navbatchi o'yinchoqlarni javonga qo'ydi" degan gapga "Kim o'yinchoqlarni qo'ydi?" savol beriladi. Keyingi gal matnga "Navbatchi o'yinchoqlarni qayerga qo'ydi?", "Javonga navbatchi nimani qo'ydi?" degan savol beriladi. So'roq so'zlarni kiritish tartibi dasturda belgilangan. Bunday ish turlarini birin keltiramiz. Bolalar gapdagi so'zlarga savollar berishi kerak. buning uchun mazmun va tuzilish jihatdan bir hil gaplar tanlanadi. "Qiz bola o'g'il bolani chanada uchiryapti". "O'g'il bola qiz bolani chanada uchiryapti" Bunday turdagi gaplarning ishlatilishi so'zlarda nima ifodalanganini tasavvur qilishga va grammatik



shakllarning o'zlashtirishga yordam beradi. Dastlab, so'zlarga tayyor savollar berish bilan chegaralanish mumkin. o'rganib olganidan so'ng, bolalar mustaqil ravishda savollarni og'zaki va daktil shaklda berishlari mumkin: "Kim uchiryapti? Kimni uchiryapti?".

Bolalarga o'qilgan gap, matn, rasm, eshitgan hikoyasiga savollarni berishga o'rgatishda muhim bo'lgan jihatlariga savol berishga undash kerak. Shuningdek, matndagi muhim va unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan narsalarni farqlashga o'rgatiladi. Bu yerda ham saollar ongli ravishda, mavjud bo'lgan tasavvurlar asosida berilishiga e'tibor beriladi. Guruhda tahminiy savollar yozilgan jadval osib qo'yiladi. Ishni boshlashdan avval nimani bilib olish lozimligiga qarab, savollar qanday berilishi tushuntiriladi. Savolga berilgan javobga qarab keyingi savol qo'yilishi ham bolalarga tushuntiriladi.

#### **O'qilgan so'zlar obrazlarini hosil qilish**

Ta'limning ikkinchi yilidan boshlab o'qilgan narsalarni ongli o'zlashtirish va uni tushunish darajasini aniqlash maqsadida o'qilgan so'zlar asosida tasavvur (timsollar) yaratish ishi olib boriladi.

Bolalar gapni o'qib chiqib, uni rasmda tasvirlashi kerak. Bu ishni turlicha tashkil etish mumkin. Turli topshiriqlarni bajarib turib, berilgan kartochkalar bilan bajarilgan ish haqida gap tuzish mashqi samarali mashq hisoblanadi. Masalan, bola ayiqchani mashinaga o'tkazadi, qo'g'irchoqni o'rindiqqa o'tkazadi, choynakni gaz plitasiga qo'yib, ularga tegishli yozuv qo'yib chiqadi: Ayiqcha mashinada o'tiribdi. qo'g'irchoq o'rindiqda yotibdi. Choynak plitada turibdi. Harkatlarni ko'rsatmay turib, tayyor rasmlardan foydalanish ham mumkin. "qo'g'irchoq uxlayapti", "qizil shar stol ustida yotibdi" gaplarni o'qib, bolalar o'yinchoqlar bilan tegishli harakatlarni bajaradilar.

Yana bir ish turi quyidagicha: o'qilgan matnni bolalar rasmda ifodalaydilar. Albatta, bunda bolalarning tasviriy malakalar holati hisobga olinadi. Tasvirlarni sxematik ravishda qilishni o'rgatiladi. Bunda tasvirning sifati emas, balki fikrning to'g'ri aks etilishiga e'tibor beriladi. Bunday turdagi mashqlar tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ham qo'llaniladi. Dastlab bolalar pedagog tomonidan biror gap mazmuniga mos ishlangan rasmini ko'rib chiqadilar. Masalan "qiz bolaning qizil shari uchib ketdi" gapiga rasm chiziladi. Keyin rasm matn bilan taqqoslanadi.

Avval hamma bolalar bitta gap(matn) asosida rasm chizadilar, so'ng rasm bo'yicha, o'qilgan matnni qo'llab, hikoya tuziladi. Bunday ish turi o'zlashtirilgach, bolalarga boshqa gap yoki matn beriladi, bolalar unga mos rasm chizadilar. Bunday turdagi ish murakkab bo'lib, katta va tayyorlov guruhlarida tashkil etiladi.

#### **Predmetlarni ta'riflash**

Predmet bilan birinchi tanishishdanoq obyektzni har tomonlama o'rganilishiga bolaar e'tibori qaratiladi. Dastlab predmetni ko'rsatib turib, bolalar predmetning nomi bilan tanishtiriladi. Asta sekinlik bilan ko'rayotgan narsalar haqida dastur talablariga muvofiq so'zlar yordamida bayon etishi kerak bo'ladi.

Kuzatilayotgan narsani boshidanoq ma'lum ketma-ketlikda ta'riflash o'rgatilib boriladi. Bolalar savollariga javob berib, predmetni ta'riflash bo'yicha namunani pedagog o'zi beradi. Ta'riflash matnlardan "o'yinchoqlar", "qushlar", "Uy hayvonlari", "o'simliklar" mavzusida kichkina kitobchalar yasaladi.

Predmetlarni ta'riflash bo'yicha namunalarni keltiramiz, mazkur jadvallar bolalarning rivojlanish darajasi va ta'riflanayotgan obyekt xususiyatlariga qarab to'ldiriladi yoki aniqlashtiriladi.

#### *Predmetni ta'riflash tartibi:*

Guruhda bormi, yo'qmi?

Rangi qanaqa?

Shakli qanaqa? (nimaga o'xshaydi)

Nimadan yasalgan?

Rostakammi, o'yinchoqmi?

qayerda turibdi, yotibdi?

Nima uchun kerak?

Odamni ta'riflash tartibi:

Kim? (o'g'il bola, qiz bola, ona,ota, xola)

Bo'yi qanaqa? (baland, past, Mendan baland, sizdan past)

Sochi qanaqa? (uzun, kalta, qora, och, to'g'ri, jingalak).

ko'zi qanaqa? (qora, jigarrang, ko'k)

kiyimi qanaqa? (ko'ylagi, oyoq kiyimi)

Maktabga tayyorlov guruhda bolalar umumlashtiruvchi so'zlarni aniqlashtirish va mustahkamlash uchun, bolalar ularga tanish bo'lgan insonlarning xususiyatlarini ta'riflamog'i lozim (mehribon, ozoda, quvnoq, besaramjon).

Bolalar jadvaldan foydalangan holda, predmet va odamlarni ta'riflaydilar. Asta sekin ta'riflash tartibini eslab qolib, faqat qiyinchiliklar tug'ilgan taqdirda sxemaga qarab gapiradilar. Mashg'ulotlar paytida osib qo'yiladi, keyin olib tashlanadi.



### Voqealarni ta'riflash

Voqea va hodisalarning kuzatuvini asosida matnlar boshqacharoq tartibda tuziladi. Bolalar biror hodisani kuzatadilar, pedagog esa olingan taassurotlarni bir ikki gap yordamida bayon etishga yordam beradi. Bundan tashqari, kun davomida guruhda sodir etilgan voqealar haqida doskada yezadi. Dastlab, yozuvlar qisqa va soddaga bo'ladi: *Kecha kino bo'ldi. Biz mashinada uchdik. Bizga mehmon keldi.* Bolalar jur bo'lib yozuvlarni o'qib eslab qoladi. So'ng «Siz nima qildingiz?», «Kecha nimalar bo'ldi?» kabi savollarga javob beradilar. Bunday turdagi savollar pedagog, tarbiyachilar tomonidan sistematik ravishda berilishi lozim. Bu holda javoblar ongli bo'lishi va puxta eslab qolinishiga erishiladi.

Gaplarni tushunish, eslab qolish va ishlatish bo'yicha ish har doim murakkablashib boradi: matnlar hajmi kengayadi, gaplar kengaytiriladi. Bunday ish yil davomida olib boriladi va uning zahirida o'qishga o'rgatish mashqlari olib boriladi.

Sayrdan oldin bolalarga sayr haqida keyin hikoyalab berish kerakligi tushuntiriladi. Sayrdan so'ng tarbiyachi bolalar bilan suhbat o'tkazib, o'z taassurotlarini bayon etishga yordam beradi. Bolalarning gaplari kartochkalarga tushiriladi. Bundan keyin yozuvlarga mos rasmlar chiziladi, rasmlar matn mazmuniga mos bo'lishiga katta e'tibor qaratiladi.

1-Matn : Kechki ovqatdan so'ng biz yotoqxogana kirdik. Hamma uxladi, Zokir uxlamadi. Dono opa keldi. Dono opa chiroqni yoqdi. Dono opa «Uyat, uyat dedi».

2-Matn . Quyosh chiqdi. qor erib ketdi. Ko'chalarda katta ko'lmaklar paydo bo'ldi. Biz qog'ozdan qayiq yasadik. qayiqlar suvda oqdi. Ertasi kun har bir bola chizgan rasmini ta'riflaydi, ya'ni o'z taassurotlari haqida gapiradi. Rasm chizishdan avval kartochkadan o'qilgan matn yordamida o'z fikrlarini to'g'ri ifodalaydi. Pedagog Lola, Botir, Donolarning rasmi matnda ko'rsatilgandek to'g'ri chizilganini ko'rsatib borishi kerak.

Zokirning rasmi esa noto'g'ri chizilgan, chunki rasmda matnda yozilgandek ona va bola maktabga emas, maktabdan ketmoqda. Bolalar chizgan rasmi sifat jihatdan unchalik yaxshi bo'lmashligi mumkin, eng muhimi bola chizayotgan narsasini tasavvur etishi va tasvirlanayotgan narsaning rangi va kattaligi matnga mos bo'lishi lozim.

Bayram va dam olish kunlarni ta'riflash- hikoyalarda aks ettirilishi kerak. Kecha-kunduz bolalar bog' chasida qolayotgan bolalar bilan tarbiyachi yakshanba kuni kechqurun suhbat o'tkazadi. (ta'limning ikkinchi yilidan boshlab). Siz qayerga boringiz? Kim bilan boringiz? Nimani o'ynadingiz? Kimning ota-onasi keldi?

Ertalab, kechqurun, nima qildingiz? Tarbiyachi kun davomida olingan taassurotlarni so'zlar bilan ifodalashga va matn tuzishga yordam beradi. Ertasiga matndan foydalanib savollarga yordam beradi yoki matnni qayta hikoyalab beradi. Asta sekin pedagog quyidagi savollarni kiritadi: «Kecha nima qildingiz?» Kecha qanday qiziqarli hodisalar bo'lgan? Nima bo'ldi?» Matn tarbiyachi tomonidan yozilgan holda, surdopedagog savollar yordamida suhbat o'tkazadi. Agarda tarbiyachi matn tuzmasdan bolalar bilan alohida voqealar haqida gapirgan bo'lsa, bolalar tuzgan gaplari asosida matnni pedagog tuzadi.

«Biz yakshanba kuni nima qildik» mavzusida hikoya.

*Kecha biz Shoir opa bilan sayrga bordik. Biz uzoqqa bordik. Ozodaning oyisi keldi. Kechqurui biz «Hayvonot olamida» kinosini ko'rdik. Kino qiziqarli edi.*

Matnni bolalar ikki marta o'qib chiqadilar va qayta xikoyalaydilar.

Bolalar bog'chasiga kelib ketadigan bolalarning ota-onalari tarbiyachining topshirig'iga binoan matnni uyda yozib beradilar. Bolalar matnni o'qib qayta hikoyalab beradilar. Dastlab bolalar pedagogning savollari asosida hikoyalab beradilar, keyin bolalar mustaqil hikoyalaydilar, ularning javoblari savollarga muvofiq boyitiladi. Kim bilan boringiz? Nimani ko'rdingiz? Kimni uchratdingiz? Oying nima berdi?

Dastlabki bosqichda hikoya qilayotgan odimga berilayotgan savollar jadvalda beriladi, savollarni eslab qolib, ularni mustaqil ishlata boshlaydilar.

### Hikoyalab berish va izohlab o'qish

Uch-to'rt yoshga kelib, eshituvchi bola atrofdagi hodisa va voqealarga qiziq boshlaydi. Atrofdagi narsa va hodisalar haqida ma'lumotlarni katta kishilar, kitob, filmlardan oladi.

Eshitish ulg'ayishi bilan ular muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoji ortib boradi. Bolalarda o'z fikri, taassurotlari, boshidan kechirgan hodisalari haqida gapirib berish zarurati tug'iladi. Muloqotda ular so'zlashuv nutqidan foydalanadilar. Ayni paytda bolalar kontekstli nutq elementlaridan foydalanadi, nutqni tushunishga imo-ishora, vaziyat, kontekst, tahmin yordam beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kengroq muloqotda bo'lish ehtiyoji uni vaqtli o'qishga o'rgatish orqali qondiriladi. Eshituvchi bolalar bog'chada o'qishga o'rgatilmaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga vaqtli o'rgatilib, kontekstli nutqni tushunishi ta'minlanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bolalarga beriladigan matnlarni soddalashtirilgan, moslashtirilgan holda tushunishga o'rgatish zarur o'qish tekikasini rivojlantirish va o'qilgan narsani tushunish o'qish mashg'ulotlarining asosiy talabidir.



O'qish texnikasi dastlab daktil nutq orqali rivojlantiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qish texnikasini rivojlantirish metodik jihatdan eshituvchi bolalarga nisbatan unchalik murakkab bo'lmaydi. O'qilgan matnlarni tushunishga o'rgatish jarayonida bolalar quyidagilarni bilmog'i lozim:

Bajarilgan topshiriqlar asosida tuzilgan matnlarni mustaqil o'qish va tushunishi;

Yangi jumla va matnlarni o'zlashtirilgan lug'at boyligi doirasida tushunish va o'qishi;

Matnning to'liq varianti o'qib yoki hikoyalab berilgandan so'ng qisqartirilgan ko'rinishdagi matnni o'qish; o'qilgan matnni savollar yordamida va savollarsiz hikoyalab berish.

Bajarilgan topshiriqlar asosida matnlar tuzish borasidagi ish yuqorida bayon etilgan, qolgan talablarni bajarish maqsadida olib boriladigan ish turlarini keltiramiz:

Bolalar bilan hikoyalar mazmunini idrok etish bo'yicha murakkab ish olib boriladi: hikoya mazmunini tushunish uchun tushunchalar shakllantirish;

Hikoya qilib berish yoki izohlab o'qish(pedagog tomonidan);

Qisqartirilgan va soddalashtirilgan matnni ko'rgazmali vositalardan foydalangan holda mustaqil o'qish;

O'qilgan matnni mustaqil hikoyalab berish;

Hikoya bolalar tomonidan yaxshi tushunilishi uchun pedagog uni jonli va ifodali etib hikoyalab bermog'i lozim. Hikoya qilib berayotgan odam avval matnni puxta o'rganib, undan keyingina o'qilganning mazmunini bolalarga yetkazishi lozim.

Hikoya mazmunini bolalar qanday qabul qilishi, eshitilgan narsa ularga qanday ta'sir etishi hikoya qilib beruvchi tomonidan matn qanday yetkazib berilishiga bog'liq.

Hikoya qilib berish va izohlab o'qish vositasida tarbiyalanuvchilarning duneqarashini kengaytirish, nutqini o'stirish mustaqil o'qishga tayyorlash, ahloqiy hislatlarini tarbiyalash kabi vazifalar amalga oshiriladi. Pedagog tomonidan hikoya qilib berilgan, yoki birga o'qilgan matnlar qisqartirilgan va soddalashtirilgan holda mustaqil o'qish uchun beriladi.

Hikoya qilib berish va izohlab o'qish turli metodik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Pedagog tomonidan izohlab o'qish yoki hikoyalab berishdan so'ng matnlarning mazmunini tushungan holda o'qish nazarda tutiladi.

Ta'kidlanganidek, izohlab o'qish va hikoyalashning asosiy maqsadi mazmunini bolalarga yetkazish, hikoya qahramonlarining hatti-harakatlarini, ularning sabablari va maqsadlarini tushuntirib yetkazishdir. Demak, matn tanlashda asosan tarbiyaviy va bilishga doir vazifalar ko'zlanadi. Bolalar tomonidan o'zlashtirilgan va mustaqil o'qiy oladigan materialdagina o'qish texnikasini rivojlantirish, lug'atni boyitish, nutqni o'stirish maqsadlarga erishish nazarda tutiladi.

Hikoyalab berish va izohlab o'qish uslubi yetining farqi nimada?

Izohlab o'qish uchun matn oldindan tayyorlanib plakat yoki doskaga yeziladi. Bolalar matnni qismlarga bo'lib o'qiydilar. Matnning har bir bo'lagining mazmunini pedagog tomonidan tushuntiriladi. Buning uchun o'yinchoqlar, rasmlar qo'llaniladi, hatti-harakatlar ko'rsatib beriladi.

Ta'limning uchinchi yilida A.Bartoning "Ayiqlar" she'ri asosidagi matn bilan tanishtirish usullarini ko'rsatib beramiz.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy malakalari cheklanganligi umumlashtiruvchi tasavvurlari past darajada bo'lishi sababli she'riy asarlarni tushunish juda mushkul. Shu sababli ularga sodda, ko'pincha she'riy bo'lmagan matnlar beriladi. Bunday sharoitda ham matn mazmunini tushuntirish uchun turli vositalarni qo'llab qo'shimcha tushuntirib berish talab etiladi.

Izohlab o'qib berishga tayyorlash davrida qo'shimcha ish olib borish talab etiladi.

Ayiqlar matnini o'qishdan 2-3 kun avval bolalar bilan qo'g'irchoqlar uchun ko'ylaklar tikish tashkil etiladi.

Qo'g'irchoq bilan didaktik o'yin o'tkazish paytida «sochiqni bog'la», «ovqatni yeb qo'y», «choyni ich» kabi tushunchalar mazmunini bolalar tomonidan tushunilishi aniqlanadi.

Pedagog maxsus tashkil etilgan sharoitda «tashlab ketmoq», «uzib olib» kabi so'zlar ma'nosi aniqlanadi. Ushbu so'zlar bilan gap tuziladi. Mashg'ulotlarida matnni izohlab berishda foydalanish uchun oyoqchasi uzib tashlangan ayiqlar va boshqa kerakli predmetlarni tayyorlab qo'yiladi.

Mashg'ulotdan avval tayyorlangan matnning usti qog'oz bilan berkitilib o'sib qo'yiladi.

Bolalar o'qiydilar: *Bir qizcha bor edi. Uning ismi Lola edi.* Pedagog qizcha uyda otasi va onasi bilan yashaganini tushuntirib, o'qishda hosil bo'lgan tasavvurlarni aniqlashtiriladi.



Bolalar o'qishni davom ettiradilar: qizchani ayiqcha o'yinchog'i bor edi. qizcha ayiqchani yaxshi kurar edi. o'qishdan to'xtab, pedagog bolalardan guruhda ayiqcha bor yo'qligini so'rab, ayiqchani olib kelishni so'raydi. Keyin pedagog o'yinchoqdan foydalanib tushuntirishni davom ettiradi. Bolalar o'qiydilar: *U ayiqcha uchun ko'ylak va poycha tikib berdi. Poychaga cho'ntak tikdi.*

Pedagog «u» kimligini so'raydi, cho'ntakchali poychani ko'rsatib berishni so'raydi (rasmda yoki jonli o'yinchoqda). Bolalar o'qishni davom ettiradi: *qizcha ayiqchani cho'ntagiga konfet soldi. U ovqat pishirib berdi.* Pedagog so'raydi. «U» kim?». o'qish davom ettiriladi: *Keyin Lola ayiqchani oyoqlarini yuvib, sochiqcha bog'ladi.* Pedagog so'raydi: Kimga bog'ladi? Nima uchun? So'ng: U nima yeydi? Deb so'raydi. Bolalar aytib beradilar. Keyin bolalar o'qiydilar: *Lola ayiqchani ovqatlantirdi va u bilan sayrga chiqdi.* Pedagog so'raydi: Lola nima qildi? «Kim bilan sayrga chiqdi?». Bolalar o'qiydi: *Lola ayiqchani Valiga berdi. Vali ayiqchani o'ynashni bilmas edi.* Pedagog so'raydi Kimga berdi? Nimani bilmas edi? Bolalar o'qiydi *U ayiqchani oyog'ini uzib oldi.* Pedagog aniqlaydi: *Kim ayiqchani oyog'ini uzdi?* Bolalar: *Lola ayiqchani olib uyga olib keldi. Oyisi ayiqchani oyog'ini joyiga tikib qo'ydi. Lola ayiqchani o'ynadi.*

So'ng bolalar matnni baravariga o'qiydilar. Dastlabki o'qishda savollar berilib, ayrim so'zlar ma'nosi aniqlangan bo'lsa, endi pedagogning raxbarligida matnni qayta o'qilishi savollarsiz tashkil etiladi. Mashg'ulot ikki marta o'qish bilan tugatiladi. hikoyani qismlarga ajratgan holda o'qish ham mumkin.

Ikkinchi mashg'ulotda bolalar ular oldidagi matnni o'qimaydilar. Pedagog bergan savollarga javob beradilar va o'shanda matndan foydalanadilar. Pedagog so'raydi: qizchani ismi nima edi? Keyin pedagog qizcha ayiqcha bilan qanday o'ynaganini aytib berishni so'raydi. Shuningdek, qizcha ayiqchani yaxshi ko'rishini qanday bilganini ham so'zlab berishni so'raydi.

Bu savollar o'qish davomida berilgan savollarga nisbatan umumlantirilganroqdir. Savollarga javob berilgandan so'ng bir-ikkita bola matnni qayta hikoyalab beradi. Kechki soatda tarbiyachi, pedagogning topshirig'iga muvofiq o'qilgan hikoya haqida bolalar bilan suhbatlashadi. Bolalar ayiqcha haqida tarbiyachiga so'zlab beradilar. So'ng matn kichik rasmiy kitobchaga kiritiladi, matnni bolalar mustaqil o'qiydilar. Izohlab o'qib berishda sayr va sayohat paytida va filmlarda ko'rganlari haqidagi hikoyalar matnidani foydalaniladi. Izohlab o'qib berish jarayonida qisqaroq matn tuzilib, u mustaqil o'qiladi.

### Matnni hikoyalab berish

Pedagog bolalarga so'zlab beradigan matnni oldindan tayyorlaydi. Matn sodda bo'lishi kerak, hikoyalab berishga o'rgatishdan maqsad-bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ahloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Pedagog hikoyalab berayotgan paytda bolalar oldida matn bo'lmaydi. Hikoya og'zaki-daktil bayon etiladi. Zarurat bo'lganda, alohida so'z va iboralarni yetkazish uchun, yozuvli jadvalchalar yoki doskadagi yozuvlardan foydalaniladi. Bolalar pedagog hikoyasini ketidan takrorlaydilar. Hikoyalash 2-3 marta takrorlangach, bolalarga mustaqil o'qish uchun hikoyaning qisqa varianti beriladi. Matnlar doskada yoki plakatda yozilgan bo'lib, iloji boricha gaplar bitta qatorda joylashishi lozim. Hikoyalab berishga bolalar ikkinchi yildan boshlab o'rgatilishi mumkin. Matnning hajmi va mazmuni bolalarning umumiy va nutqiy rivojlanish saviyasiga bogliq. hikoya qilib berishda o'yinchoq, rasmlar, sahna ko'rinishlari, kino va diafilmlardan keng foydalaniladi. Bajargan topshiriqlar haqida bayon etish, rasmlar asosida gap tuzish, Savollarga javob berish, rasmlar tagidagi yozuvlarni o'qish ham bolalarni mashg'ulotga tayyorlaydi.

Ta'limning ikkinchi yilida og'zaki-daktil ravishda hikoyalab berish o'yinchoqlar hatti-harakatlarini namoyishi bilan birgalikda amalga oshiriladi. hikoyalar juda sodda bo'ladi. Masalan: *Katta quyon sabzi yeyapti. Kichkina quyoncha yugurib keldi. Kichkina quyoncha sabzi so'radi: Sabzi ber. Katta quyon unga sabzi berdi. Kichkina quyoncha «Raxmat» dedi. Quyoncha sabzi yedi.*

Pedagog o'yinchoqlar yerdamida har bir o'qilgan gapning mazmunini Matn mazmuni yetkazilgandan so'ng, pedagog bolalarni xulosa qilishga undaydi : *Katta quyoncha mehribon ekan.* Pedagog so'raydi *Nima uchun?* Bolalar javob beradi: *U kichkina quyonchaga sabzi berdi.*

Bu kichik hikoya bolalarni qiziqitirishi uchun, pedagog aktyorlik mahoratiga, ijodiy tafakkurga ega bo'lmog'i kerak. hikoya bolalarni qiziqitirishi uchun pedagogning imo-ishoralar va yuz mimikasi ifodali bo'lmog'i zarur. Hikoyaning har bir syujeti o'yinchoqlar yerdamida ko'rsatiladi, hikoya qilib berish chog'ida, har bir aytilgan gapning ketidan, pedagog nazorat savollar beradi: quyoncha nima yeyapti? U sabzini kimga berdi? Va x.k. Hikoya ikki marta bayon etiladi, so'ng doskada qisqa matn yoziladi. Masalan : *Kichkina quyoncha sabzi so'rayapti. Katta quyon unga sabzi berdi. U mehribon. Kichkina quyoncha sabzi yeyapti.*

Bolalar matnni o'qiydilar va keyin barcha harakatlarni o'yinchoqlar yerdamida ko'rsatadilar. Matnlar asta syokin murakkablashib, ularning hajmi kattalashadi.



### Mustaqil o'qish

Ta'limning uchinchi yilidan boshlab bolalar mustaqil o'qishni o'rganadilar. Bolalar 2-3 gapdan iborat qisqa hikoyalarni o'qiydilar. Gapdagi so'zlar ma'nosi bolalarga tanish bo'ladi. Ma'lumki eshituvchi bolalar bog'chasida mustaqil o'qish o'rgatilmaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mustaqil o'qish- nutq o'stirishning muhim omilidir. Shu sababli bu bolalarni o'qishga o'rgatilishiga katta e'tibor beriladi.

Uch yoshga kelib eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'z va qisqa gaplarni o'qiy oladilar. Ta'limning ikkinchi yilida ular topshiriqlarni, rasmlar tagidagi 2-3 gapli yozuvlarni o'qiydilar.

Ta'limning uchinchi yilida ta'riflash, hikoyalarni o'qiydilar, kichkina hajmli badiiy hikoyalar bilan tanishadilar. Bolalar nutqini o'stirishda o'qishning o'zni kuchayib boradi. Ta'limning beshinchi yilida nutq o'stirish mashg'ulotlarda o'qish asosiy ish turlaridan biri bo'lib qoladi.

O'qish bolalar nutqini o'stirishga xizmat qilishi uchun matnning tili va mazmuni ularga tushunarli bo'lmog'i kerak. Matnni mustaqil o'qigan bolalar o'qiganing mazmunini yaxshi tushunishi lozim. Yilning ikkinchi yarmidan boshlab matnlar har kuni nafaqat maxsus mashg'ulotlarda, balki tarbiyachi mashg'ulotlarida, alohida mashg'ulotlar paytida ham o'qiladi. Alohida-alohida mashg'ulotlarga ikkitadan bola olinadi, bitta bola bilan shug'ullanib, ikkinchisiga hikoyani mustaqil o'qish taklif etiladi. Dasturda ko'rsatilgan mavzularga pedagog tomonidan mustaqil o'qish uchun matnlar tuziladi. Bunda bolalarning tajribasi, o'zlashtirgan lug'at, grammatik shakllar hisobga olinadi.

Ikki xil matnlarni keltiramiz:

*Qor erib ketdi. Uyning yonida ko'lmak bo'ldi. Olima yugurdi. U sirpanib, ko'lmakka yiqilib tushdi. Olimani qo'li va yuzi iflos bo'ldi. Olima yig'lamadi.*

*Ko'chada qor ko'p. Iroda chanaga o'tirdi. Vali Irodani uchirdi. Vali tez yugurdi. Iroda kuldi. Chana agdarildi. Iroda dumalab ketdi.*

Bunday matnlar bolalarda real obrazlarni hosil qilib ularga katta zavq bvgishlaydi. Agar ilgari bolalar bevosita idrok etilgan narsa haqida o'qigan bo'lsalar, ta'limning uchinchi yilida ularning lug'at boyligi va nutqiy saviyasi rivojlanishi bilan, bevosita idrok etilmagan narsalar haqida ham o'qib tushunish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan bolalarga olmaxon haqida hikoya o'qib berish mumkin. Ularga "olmaxon, yumshoq, daraxt, o'rmon, yeyapti, sakrayapti" degan so'zlar tanish bo'ladi. Mustaqil o'qish uchun quyidagi ko'rinishdagi matn beriladi:

### Olmaxon

*Olmaxon o'rmonda yashaydi. Daraxtda olmaxonning uyi bor. Olmaxon kichkinagina, rangi jigarrang. Dumi uzun, yumshoq. Olmaxon sakraydi. U yong'oq yeydi.*

Matnni o'qish paytida ularning olmahon haqidagi bilimlari kengayadi, mustaqil nutqi rivojlanadi. Matn mazmuniga mos rasm chizib, bolalar uning mazmunini gapirib beradilar. Agarda matnlarda notanish so'zlar uchrasa, pedagog mashg'ulotlarga tayyorlanib so'zlar ma'nosini aniqlaydi va umumlashtiradi.

Mustaqil o'qish uchun quyidagi materiallar beriladi: bevosita idrok etilgan narsalarni ifodalovchi matnlar. Bolalarga hikoyalab berilgan yoki izohlab o'qilgan matnlarning qisqartirilgan va soddalashtirilgan varianti. Dastur talablariga muvofiq maxsus tuzilgan matnlar. Har bir ta'lim yili uchun ko'rsatilgan adabiy matnlar; Dasturning «Mustaqil o'qish uchun» bo'limida tavsiya etilgan hikoyalar. Mustaqil o'qilgan matnlarning tushinilganini aniqlash uchun quyidagi metodik uslublardan foydalaniladi:

Matn mazmunining tushunilishini savollar yordamida aniqlash. Bunda hikoyaning asosiy qaxramonlari, xodisa qayerda va qachon sodir etilgani haqida savollar berilib, bolalarning bilimlari aniqlanadi.

Umumlashtiruvchi savollar yordamida bolalar tomonidan matn tushunilishini aniqlash. Nima uchun va qanday buldi? Kabi savollar o'qigan matnni qayta hikoyalash. Matnni hikoyalash paytida avval va keyin sodir etilgan voqyealar bilan to'ldiriladi. o'qilgan mavzu bo'yicha rasm chizish.

**O'qigan hikoyani bayon etish** (qisqa yoki batafsil).

Dastur talablariga muvofiq. Ish quyidagicha tashkil etiladi:

- 1) hikoyani bolalar tomonidan o'qib chiqish;
- 2) hikoya mazmunini tushunish, lug'atni kengaytirish va faollashtirish, grammatik tuzilishni o'zlashtirish (savollarga javob berish, o'zakdosh so'zlarni tanlash, so'zlarga sinonim tanlash)ga oid topshiriqlarni bajarish.;
- 3) hikoya rejasini tuzish (hikoyani rejaga muvofiq qismlarga bo'lish va har bir qismni nomlash, mustaqil ravishda reja tuzish);
- 4) hikoyani takrorlab o'qish;
- 5) hikoyani bayon etish



## **2-§ Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bog'langan nutqini o'stirishda nafas, ovoz va tovushlarni mustahkamlash usullari**

Kar bolalarda talaffuz qobiliyatlarini shakllantirish ulardagi nutq apparatining zarur ishini u yoki bu tarzda uyg'otish zarurati bilan bog'liq. Nafas, ovoz va tovushlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan uchta asosiy usulni belgilashingiz mumkin.

Birinchi usul taqlidga asoslangan. Talaba xavfsiz analizatorlar yordamida o'qituvchi unga ko'rsatgan narsani idrok etadi va takrorlaydi. Taqlid qilish mumkin:

1. Eshitish asosida – o'quvchi ekran ortidagi o'qituvchining aytganlarini tinglaydi (masalan, tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar yoki bo'g'inlar turkumi ritmi: papa yoki papapa) va eshitganlarini to'g'ri takrorlashga harakat qiladi;

2. Vizual asosda - talaba o'qituvchining og'ziga qaraydi (masalan, alohida tovushlarni artikulyatsiya qilish paytida tilning holatiga - w, i, p va boshqalar) va ko'rinadigan nutqning adekvat usulini olishga harakat qiladi. organlar;

3. Eshitish-vizual asosda - talaba o'qituvchini tinglaydi va bir vaqtning o'zida uning artikulyatsiyasini ko'radi (oyna oldida tovushni kuchaytiruvchi asbob-uskunalar bilan dars);

4. Taktil-vibratsion asosda vizual yoki eshitish idroki bilan birgalikda - talaba o'qituvchining lablari holatini ko'radi, masalan, o'z og'ziga ko'tarilgan qo'lda artikulyatsiya paytida, u nafas chiqarilgan havoning kuchli oqimini his qiladi. Qo'li halqumga, bo'yniga qo'yilganda, ovoz paychalarining tebranishini va h.k.

Taqlid muayyan talaffuz malakasini birlamchi shakllantirishda va talaffuzni tuzatishda o'rganishning barcha bosqichlarida keng qo'llaniladi.

Tovushlarni sahnalashtirishning ushbu usuli uchun artikulyatsiyani takrorlashda harakatlarning bajarilishi talabaning maqsadiga mos kelishi xarakterlidir: masalan, o'qituvchidan keyin m yoki u tovushini takrorlashni aytgan holda, talaba kerakli artikulyatsiyani ko'proq yoki kamroq aniqlab takrorlaydi.

Ovoz va tovushlarni sahnalashtirishning ko'rib chiqilgan usuli bilan bolalarga taqlid qilishni osonlashtiradigan turli ko'rgazmali vositalardan foydalanish kerak. Ovozni kuchaytiruvchi va talaffuzni vizual va tebranish nazorati uchun mo'ljallangan maxsus jihozlar, shuningdek oyna yordamida sezilarli yordam ko'rsatilishi mumkin.

Ikkinchi usul - mexanik. Uning yordamida o'qituvchi ma'lum nutq a'zolariga ta'sir qiladi, ular shu tariqa passiv harakatga yoki ma'lum bir pozitsiyaga o'rnatiladi. Misol uchun, nafas olish ustida ishlaganda, ba'zida qorin devoriga qo'l

bosimi qo'llaniladi va agar o'quvchi soxta ovozga moyil bo'lsa, ba'zi hollarda halqumga engil qo'l bosimi qo'llaniladi va hokazo. Ikkinchi usuldan foydalanish: tovushlarni sahnalashtirish quyidagicha. Talabadan u yoki bu tovushni takrorlash so'raladi. Shu bilan birga, o'qituvchi barmoqlar, spatula yoki zond yordamida o'quvchining nutq organlarining holatini o'zboshimchalik bilan o'zgartiradi yoki ularni passiv harakatga keltiradi.

Bu usulni qo'llash misoli k (t dan), x (s dan), sh (s yoki p dan) tovushini ishlab chiqarishdir.

Bu usul uchun harakatning bajarilishi talabaning niyatiga mos kelmasligi xarakterlidir. Talaba, masalan, o'qituvchi talab qilganidek, ta bo'g'inini talaffuz qilishga harakat qiladi, lekin tilga spatulaning bosimi tufayli u avval ka, keyin esa ka oladi.

Bunday yordam bilan bir qator mashqlardan so'ng, kar odamning miya yarim korteksida nutq organlarining yangi holatiga va harakatiga mos keladigan kinestetik stimullarning izlari o'rnatiladi, bu esa talabaga kerakli tovushni mustaqil ravishda (mexaniksiz) takrorlash imkonini beradi) kinestetik va qoldiq eshitish mavjud bo'lganda, shuningdek, eshitish nazorati asosida.

Uchinchi usul aralashtiriladi. Bu birinchi va ikkinchisining kombinatsiyasi. O'quvchi nutq a'zolarining u yoki bu ishini o'qituvchiga taqlid qilish asosida takrorlaydi, lekin buni yetarlicha aniq bajarmaydi. O'qituvchi unga talab qilinadigan narsalarni aniqroq takrorlashga yordam beradi.

Masalan, o tovushini sahnalashtirishda o'quvchi lablarini yetarlicha oldinga siljitmaydi, buning natijasida o tovushi a ga yaqin bo'ladi. O'qituvchi unga bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan yonoqlarining yon tomonlarini bosib, lablarini tashqariga chiqarishga yordam beradi.

Xarakterli jihati shundaki, tovushlarni sahnalashtirishning birinchi usulida bo'lgani kabi, bu holda ham harakatning yakuniy bajarilishi talabaning niyatiga to'g'ri keladi, bu faqat qandaydir mexanik yordam bilan amalga oshiriladi.

Aytib o'tilganidek, ikkinchi usulda, taqlid qilish asosida kerakli artikulyatsiyani olish mumkin bo'lmaganda, barmoq, spatula va zondlar qo'llaniladi. Ushbu "asboblarni" ning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

"Barmoq" qulay, chunki u yumshoq va talabaning o'zi uni asbob sifatida ishlatib, bir vaqtning o'zida tilning holatini his qilishi mumkin. Ammo barmoq semiz. Agar u og'iz bo'shlig'iga kiritilsa, u holda tishlarini qisib bo'lmaydi, bu esa, masalan, s, w va boshqalar kabi bir qator tovushlarni hosil qilish uchun zarurdir.



Spatula - bu metall spatula. Bu tilni bosish yoki uning old chetini ko'tarish kerak bo'lgan holatlar uchun qulaydir. Ammo ba'zida butun tilni emas, balki faqat uning qismini (uchida, o'rtasida) bosish yoki tilni orqaga surish kerak. Ushbu barcha maxsus holatlarda turli dizayndagi simli zondlar ajralmas yordamchi hisoblanadi.

Ta'riflangan vositalardan foydalanish ko'p hollarda ovozni o'rnatish vazifasini sezilarli darajada osonlashtiradi va vaqtni tejaydi. Biroq, ularni suiiste'mol qilish va xuddi shunday ta'sirga tabiiyroq yo'l bilan - taqlid qilish orqali erishish mumkin bo'lganda foydalanmaslik kerak.

### 3-§ Bog'langan nutqni o'stirishga oid rivojlantiruvchi o'yinlar

#### "O'xshashini olib kel" o'yini

O'yinning maqsadi: narsalarning nomini eslab qolishga o'rgatish orqali bolalarning lugatini boyitish.

O'yin uchun jihozlar: Turli o'yinchoq va buyumlar, shu buyumlarning rasmi aks ettirilgan juft kartochkalar. Buyumlar o'rniga kartochkalardan foydalanish ham tavsiya etiladi.

O'yinni o'tkazish: Bu o'yinni uch xil variantda o'ynash mumkin. 1-variant. Juft kartochkalarning bir nus'hasi xonaning har yeriga tarqatib qo'yiladi. Bolaga kartochkaning ikkinchi nus'hasi beriladi. Bola qo'lga olgan kartochkada nimaning rasmi aks ettirilgan bo'lsa, oldin uning nomini, shaklini og'zaki-daktil ravishda atadi. So'ng bolaga kartochkalardan xuddi shuning o'ziga o'xshashini topib kelish vazifasi og'zaki-daktil ravishda beriladi. Bola topshiriqni tushunmasa jadvalcha ko'rsatiladi. Bola qo'lidagi kartochkaning o'xshashini topib keladi, uni o'quvchilarga ko'rsatadi va nomini yana bir bor takrorlaydi.

2-variant. Bolaga kartochka ko'rsatiladi va orqasi o'g'irib qo'yiladi. Bola ko'rib esida qolgani bo'yicha kartochkaning o'xshashini topib olib keladi va u haqda so'zlab beradi.

3-variant. Kartochkalar o'rnida buyumlardan foydalaniladi. Buyumlarga ularning rasmlari yoki rasmlarga qarab buyumlarni topish vazifasi beriladi. har ikki variantda ham birinchidagi singari buyumning nomini qayta aytirish usuli qo'llaniladi.

#### "Kerakli rasmni top" o'yini

O'yinning maqsadi: Narsalarning nomini, ishlatilish joyini aniqlashga o'rgatish, ozodalik tartib qoidalarga rioya qilishga odatlantirish.

O'yin uchun jihozlar: ma'lum vaqtda bajarilishi lozim bo'lgan ish mazmuni aks ettirilgan katta rasmlar (ertalabki yuvinish, kiyinish, ovqatlanish va x.k.). Katta rasmda aks ettirilgan narsalarning alohida ishlangan rasmi kartochkalari (tish pastasi, cho'tkasi, taroq, qoshiq, tarelka va x.k.)

O'yinni o'tkazish: Mazmunli rasmlardan bittasi olinib bolalarga ko'rsatiladi. Rasmda nimalar aks ettirilganini bolalar yaxshilab ko'rib olganlaridan va og'zaki-daktil gapirib berganlaridan keyin ulardan biriga kartochkalarni stol ustiga qo'yib chiqish topshiriladi. Bola kartochkalarda aks ettirilgan faoliyat haqida so'zlab beradi va bu yerga qo'yilgan har bir buyumning nomini ham aytadi.

Bu o'yinni bolalar o'zlashtirib olganlaridan keyin uni murakkablashtirilgan boshqa variantda ham o'ynash mumkin. Bunda faqat kundalik faoliyatda ma'lum vaqtda qilinadigan vaqtda qilinadigan ish mazmuni aks ettirilgan katta rasmlar asosida o'yin o'tkaziladi. Bolalar rasmga qarab, bu qaysi vaqt (ertalab, kechqurun) nima ish qilinayotganligini va qanday buyumlardan foydalanilayotganini so'zlab beradilar. Bu o'yinni boshqa narsalar bilan ham o'tkazish mumkin.

#### "O'xshaydimi-o'xshamaydimi" o'yini

O'yinning maqsadi: Bolalarning narsalarning tuzilishi, tashqi ko'rinishi haqida tushunchalarini mustaxkamlash, so'z boyligini o'rnatish va so'zlab berish qobiliyatini o'stirish.

O'yin uchun jihozlar: Ikki ta uy jihozlari, ikki ta o'yinchoq, ikki xil gulning rasim va boshqalar.

O'yinni o'tkazish: o'yinni boshlashdan oldin bolalarga o'yin mazmuni va qoidasi tushuntiriladi. Bolalarga narsalarni yaxshilab kuzatib chiqish, o'xshash-o'xshash bo'lmagan tomonlarini eslab qolish taklif etiladi. Bolalarga tushunarli bo'lishi uchun avval ikki ta narsani ko'rsatib. Bir-biri bilan solishtirib tushuntiriladi.

Uy jihozlaridan o'tirish mumkin bo'lgan ikki ta buyumni olaylik. Birining o'tirish joyi doira shaklida, to'rtta oyeg'i, suyanchig'i ham bor. Ikkinchisining o'tirish joyi to'rtburchak, ikki yonida qo'llarni qo'yib, suyanib o'tiradigan joyi yo'qligidir. Birinchi buyumning nomi stol, ikkinchisi kreslo deb ataladi.

Bolalarga ko'rsatiladigan buyumlarning farqi dastlabki vaqtlarda juda aniq seziladigan, keyinchalik esa bu farq keskin ajralib turmaydigan bo'lishi, ya'ni murakkablashtirib borish prinsipiga rioya qilinishi kerakligi nazardan chetda qolmasligi lozim. Bu o'yinni ikki xil variantda o'tkazish mumkin. 1. Narsalarning o'xshash va o'xshash bo'lmagan tomonlarini solishtirish orqali so'zlatish. o'yin davomida 3-4 xil narsalardan foydalaniladi.



Narsalarni bolalarning tasavvurlariga ko'ra solishtirish, ya'ni narsalarni og'zaki xolda ifodalash orqali ham o'yin o'tkazish mumkin.

Bu variantdagi o'yin asosan bolalarga yaxshi tushish bo'lgan narsalar yuzasidan, ularning xotirasiga tayangan xolda olib boriladi. Pedagog bolaga tanish bo'lgan ikkita narsa yoki sabzavotning nomini aytadi. Bola esa bu narsalarning o'xshash va o'xshash bo'lmagan tomonlari, vazifasi haqida so'zlab beradi. Bunday o'inlar bolalarning fikrlash qobiliyatini o'tiradi.

#### **"Idishlarni turiga ko'ra ajratish" o'yini**

O'yining maqsadi: Idishlarning turiga qarab ajratish orqali buyumlarning xilma-xil bo'lishini va turli maqsadlarda ishlatilishini, ularni umumiy so'z bilan ifoda etishga odatlantirish.

O'yin uchun jihozlar: Choy va ovqatlanish uchun zarur bo'lgan idishlar, oshxonada foydalaniladigan idishlar hamda o'yinchoqlar aralashtirilib qo'yladi. Ayrim idishlar o'rnida rasmi lotolardan ham foydalanish mumkin. Yezuvli jadvalchalarda predmetlarning nomlari, umumlashtiruvchi so'zlar, bajariladigan harakatlarning nomlari yeziladi.

O'yinni o'tkazish: Stol ustiga idishlar va o'yinchoqlar tayyorlanib qo'yiladi.

Pedagog bolalarga murojaat etib, «Bugun biz siz bilan narsalarni turlariga ajratishga o'rganamiz. Stol ustidagi narsalarni nomini aytib, stolning bir tomoniga ajratib qo'yasiz», deb tushuntiradi. Stol yoniga chaqirtirilgan bola vazifani bajargandan keyin, uni bir so'z bilan ifodalaydi. Ya'ni bu «choy idishlar» yoki «ovqatlanish uchun idishlar» deb aytadi. Idishlarni ajratishda qiyналgan bolaga pedagog yordamlashadi. Shu tariqa o'yin bir necha marta takrorlanadi.

O'yin natijasida bolalar buyum haqidagi umumlashtirilgan so'zlarni o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

#### **"O'xshashini top" o'yini**

O'yinning maqsadi: bolalarning kuzatuvchanligini, diqqatini tarbiyalash va lug'atini boyitish.

O'yin uchun jihozlar: juftli lotolar, narsalar tasvirlangan lotolar va buyumlarning o'zidan, o'yinchoqlardan foydalanish mumkin. Yezuvli jadvalchalar.

O'yinni o'tkazish: Pedagog bugungi o'yinning nomi bilan bolalarni tanishtiradi. Tayyorlab qo'yilgan narsalar, o'yin qoidasi to'g'risida ma'lumot beradi. Bolalarning bittasini stol yoniga chaqirib, istagan narsasini olib o'rtoqlariga ko'rsatish va uning nomini aytish taklif etiladi. Bola birinchi vazifani bajarganidan keyin ikkinchi vazifani bajarishga o'tadi. Ya'ni olib ko'rsatgan narsaning o'xshashini topib, uning o'xshashligi nimada ekanligini va nomini aytib

tushuntiradi. Shu tariqa o'yin stoldagi narsalarning xammasi tamom bo'lguncha davom etadi. Bu o'yin guruhlashtirilgan narsalar, ya'ni sabzavotlar, mevalar, idishlar, mebellar, ustki va oyeq kiyimlar namunasida qam o'tkazilishi mumkin.

#### **"Pochtachi posilka olib keldi" o'yini**

O'yining maqsadi: narsalarning tashqi ko'rinishini, rangi, shakli, nimadan ishlanganligini va nima uchun kerakligini so'zlab berish orqali bolalarning so'z boyligini o'rnatish.

O'yin uchun jihozlar: Bitta qutichaga bolalarga tanish bo'lgan turli narsalar, o'yinchoqlar solingan bo'ladi. Bola qutichadagi o'yinchoqlardan xohlagan narsasini olib, so'zlab beradi.

O'yinni o'tkazish: Pedagog «Bolalar, pochtaalon bizga posilka olib keldi, qani, nimalar bor tanishib chiqaylikchi» deydi. Bolalardan birontasini taklif etadi va ma'qul bo'lgan bo'lganini olishni taklif etadi.

Bola qo'lga tikuv mashinasini oladi va mashina haqida so'zlay boshlaydi.

Bu mashina kiyim tikish uchun ishlatiladi, mana bu yeri (tagini ko'rsatib) yeg'ochdan ishlangan, mana bu yeri esa temirdan ishlangan, bu ish tikadigan joyi, ninali bor, tepasida ip turadi, bu mashinani aylantiradigan joyi va hokazo. Bola so'zlab berishni tugagandan so'ng o'qituvchi bolalar yordamida quyidagicha to'ldirish mumkin: Mashinaning mexanizmi ichida, korobkasi jigar rangda, temirdan ishlangan joyi esa qora rangda va hokazo. Bunda hikoya qiluvchining fikrlarini boshqa bolalar ham to'ldirishlari mumkin. Boshqa buyumlar yuzasidan ham shu tariqa ish olib boriladi.

#### **"Nima yetishmaydi?" o'yini**

O'yinning maqsadi: o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.

O'yin uchun jihozlar: Turli narsalarni tasvirlangan kartochkalar. Ammo kartochkalardagi narsalarning nimasidir yetishmaydi. Masalan, choynakning qopg'ogi yo'q, stolning bitta oyeg'i yo'q va hokazo.

O'yinni o'tkazish: stol ustiga kartochkalarning teskari tomini o'girilib qo'yiladi, detallarning esa o'ng tomoni qo'yiladi. Boshqa stolda kartochkada tasvirlangan narsaning qismi tasvirlangan kartochkalar qo'yiladi. o'qituvchi o'yin mazmuni bilan o'qituvchilarni tanishtirganidan keyin bolalardan chaqirib kartochkalardan birontasini olishni taklif etadi. o'quvchi olgan kartochkasidagi narsaning nomini undagi yetishmaydigan qismni ham aytadi va stoldan bu yetishmaydigan qismini olib ko'rsatadi. o'yin shu tariqa bir necha marta takrorlanadi, o'yinning davom etishi kartochkalarning tugashiga ham bog'liq.

#### **"Kimga nima kerak?" o'yini**



O'yining maqsadi: Bolalarni qisqa jumlar tuzib so'zlashga o'rgatish.

O'yin uchun jihozlar: duradgorga, tikuvchiga, o'quvchiga kerakli bo'lgan matolar, mehnat quroli va boshqa narsalarni stol ustiga aralashtirib qo'yiladi.

O'yinni kuzatish: o'qituvchi stol ustida bor narsalarni bolalarga ko'rsatib, tanishtirib chiqadi va «Xozir biz «Kimga nima kerak» o'yinini o'ynaymiz», deydi. Bolalardan birini stol yeniga chaqirib: Nodira, sen mana bu yerdagi narsalardan tikuvchiga kerakli narsalarning nomlarini aytib, o'rtoqlaringga ko'rsatib, aloqida ajratib qo'yishing kerak, deydi. Shu tariqa o'yin bir necha marta takrorlanadi. o'qituvchi bolalarning so'zlashi davomida, ularning nutqini kuzatib, to'g'ri jumlar tuzib so'zlashiga e'tibor beradi. Bolalar yo'l qo'ygan xatolarni o'z o'rnida to'g'rilab boradi.

Bu o'yinni bir necha xil variantda o'tkazish mumkin. o'quvchilarga beriladigan materiallarni o'zgartirib, o'yin mazmuni takomillashtirib boriladi. Ayrim vaqtlarda narsalarning rasmi aks ettirilgan lotolardan qam foydalanish mumkin bo'ladi.

#### **“Magazin” o'yini**

O'yinning maqsadi: Bolalarning sabzavot va mevalarning turli rangi, shakli, xususiyati. mazasi haqidagi tushunchalarini kengaytirish, mustaxkamlash, ularni sabzavot va mevalarni yetishtirish yo'llari bilan tanishtirish orqali so'z boyligini oshirish.

O'yin uchun narsalar: Kartoshka, sabzi, lavlagi, piyoz, karam, pomidor, sholg'om, rediska, bodring, olma, nok, anor, shaftoli, o'rik, limon, olcha, gilos, olxo'ri va boshqalar.

O'yinni o'tkazish: Tayyorlangan sabzavot va mevalarning xammasi stol ustiga qo'yiladi. o'qituvchi yoki bolalardan bittasi sotuvchi vazifasini bajaradi. Bolalar sotuvchi oldiga kelib olmoqchi bo'lgan narsasining nomini, rangi, shakli, mazasini, qanday istn'mol qilinishini izohlab beradi. Shundan so'ng sotuvchi uning nomini aytib, mazkur sabzavot yoki mevani olib, bolaning qo'liga beradi. Bola olgan narsa haqida to'liq gapirib berganidan so'ng, nomini aytadi, keyin boshqa bola chiqadi. har bir sabzavot va mevalardan nimalar tayyorlanishi ham bolaga so'zlatish lozim. Masalan: Sabzini pishirmasdan iste'mol qilish mumkin. Undan tashqari, biz sabzini ovqatlarga solamiz. Sabzini biz palov, sho'rva, shavla kabi ovqatlarga ishlaymiz. Sabzi dalalarda o'sadi. Uni urg'dan ekib ko'kartiriladi.

Ko'chat ham bo'ladimi? Yo'q. o'rik - bu mevalarga kiradi, o'zi sariq, qizilroq rangda bo'ladi, mazasi shirish, ichida danagi bor. o'rikni shunday yeyishimizdan

tashqari o'ndan qiyom, kompot, sharbat, turshak qilamiz. o'rik mevali daraxt, uning ko'chati ekiladi.

Mana shu tariqa stol ustiga qo'yilgan hamma narsa, sabzavot va mevalar stida bolalar bilan suhbat olib boriladi va ularning sabzavot, poliz ekinlari va mevalar haqidagi fikr-mulohazalari kengaytiriladi, mustahkamlanadi. Eslatma: o'yin bolalarga zerikarli va uzoq cho'zilib ketmasligi uchun sabzavot va mevalarning sonini juda ko'patirib yubormaslik lozim. Keyingi safar xuddi shu xildagi avvalgi o'yinda foydalanilmagan poliz ekinlari, rezavor mevalar, sabzavotlar bilan aloqida o'yin o'tkazish mumkin, o'yin uchun olinadigan meva va sabzavotlarni fasllarga qarab tanlanadi. Ayrim vaqtlarda esa sabzavot va mevalarning rangli qilib ishlangan lotolardan ham foydalaniladi. o'yindan keyin mevalarni yeb ko'rish ham mumkin.

#### **Savollar va topshiriqlar**

1. Bog'langan nutqning xususiyatlari, uni o'stirish vo'azifalari
2. Bajargan topshiriqlar haqida bayon etishga qanday o'rgatiladi?
3. Bitta rasm yoki rasmlar turkumiga sarlavha yoki matnlar yozishga o'rgatish tartibi
4. O'qilgan matn bo'yicha savollarga javob berishga qanday o'rgatiladi?
5. O'qilgan matndagi timsollarni aniqlash ishlari qanday olib boriladi?

#### **V BOB. ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA ULARNING NUTQINI O'STIRISH**

##### **Reja:**

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga ona tilini o'rgatish
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqini o'stirishga oid didaktik o'yinlar
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga topshiriq va savolli tarqatma materiallar

#### **1- § Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga ona tilini o'rgatish**

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tilini muloqot vositasi va tafakkur quroli sifatida o'qitish nazarda tutiladi. Ona tilini maxsus fan sifatida o'rganish barobarida nutqning rivojlanmaganligi va u bilan bog'liq bo'lgan bilish faoliyatidagi, bilimlarni rivojlantirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, fan



asoslarini yaxshi o'zlashtirish, mehnat faoliyatini egallash uchun muhim shart sharoit yaratiladi. Tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishi va o'zlashtirilishi psixik jarayenlarlarni to'laqonli rivojlanishiga va bilimlarga ega bo'lishga xizmat qiladi.

Ona tilini bolalarga o'rgatish, nutqni shakllantirish qator vazifalarni amalga oshirilishini nazarda tutadi:

*Bolalarga qaratilgan nutqni bolalar tomonidan tushunish qobiliyatini rivojlantirish*

Bunday ish sinfga yoki alohida olingan o'quvchiga o'qituvchi tomonidan berilgan, ma'lum bir vaziyat bilan bog'langan sodda topshiriq va murojaatlarni tushunishni o'rgatishdan boshlanadi. Bu o'qituvchiularga gapirgan birinchi undov gaplarni tushunib olishga yordam beradi. Keyinchalik bolalar bu gaplarni o'zlarining imkoniyatiga qarab faol nutqida ishlatadilar. Lyokin yangi, asta-syokin murakkablashib borayotgan nutqiy materialni o'zlashtirib olish qobiliyatini rivojlantirish xamisha birinchi o'rindagi masala bo'lib qolaveradi. o'quvchilarning so'z boyligi oshishi, nutqni grammatik jihatdan shakllantirish malakalari rivojlanishi bilan, ular yangi til materialini o'zlashtirish, umumlashtirish, so'zlar ma'nosini tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqni qabul qilishi eshitish-ko'rish asosida amalga oshiriladi. Bunda nutqni eshitib qabul qilish va suhbatdoshning artikulyatsiyasini ko'rib tushunish malakalarini rivojlantirish va o'stirish zarurdir. Nutq harakatlarini ko'rib tushunish maxsus adabiyetda shartli ravishda «labdan o'qish» deb nomlanadi.

Labdan o'qish malakalarining shakllanishi ikki usul bilan amalga oshiriladi: dars va darsdan tashqari vaqtda nutqiy muloqot olib borilganda (nutqni eshituv-ko'ruv asosida qabul qilish) va nutqni ko'rib tushunishga qaratilgan maxsus o'rganish mashqlarini bajarishda.

Labdan o'qishni o'rganish jarayenining muvaffaqiyati bolalar nutqning mazmunini va talaffuzini qay darajada o'zlashtirib olganligiga bog'liqdir.

*Og'zaki nutqni shakllantirish*

Og'zaki nutqni rivojlantirish o'qituvchining nutqini takrorlab aytish malakalarini shakllantirishdan boshlanadi. Keyin bolalarga turli so'zlardan sodda jumlar tuzish o'rgatiladi, bu esa ularga so'zlarni o'zgartirish so'z birikmalarini xosil qilish malakalarini egallashga, fikrlarni mustaqil ifodalashga yordam beradi. Mashg'ulotlarda asta syokin ko'rgazmali holat va vaziyatlarga asoslangan sharoitli nutqdan og'zaki gapning kontekstidan anglanadigan kontekstli nutqqa o'tish

nazarda tutilgan. Shu tartibda nutqqa asta-syokin murakkab sintaksis tuzilishlar ham kiritiladi.

Og'zaki nutqning leksik-grammatik shakllanishi talaffuz malakalarini yo'lga qo'yish, to'g'rilash va rivojlantirish bilan o'zaro bog'liq. o'quvchilarning fonetik jihatdan to'g'ri, tushunarli, ifodali og'zaki nutqini shakllantirish masalalari, asosan, o'qitishning birinchi uch yilida hal qilinishi kerak. Keyinchalik talaffuz o'stida olib boriladigan ish faqat korreksion xarakterda bo'ladi. Talaffuz malakalarini rivojlantirish yakka mashg'ulotlar, maxsus darslar va shuningdek, o'quv tarbiyaviy ishlarning jarayenida olib boriladi.

*Dialogik va monologik nutqni o'stirish*

So'zlashuv (dialogik) nutqi malakalarini rivojlantirish o'quv mashg'ulotlarda, o'yin, mehnat, tasviriy faoliyatlarda va boshqa faoliyat turlari jarayenida amalga oshiriladi. Bunday ishlar davomida dialogik nutqqa xos bo'lgan har hil og'zaki gap turlari (iltimos, savol, javob, ishni bajarilgani haqidagi axborot)ni o'rganib oladilar, dialog olib borish malakalarini egallaydilar. Suhbat mavzusi har doim bolalarning tajribasiga asoslanib asta-syokin murakkablashtirib boriladi.

Bolalar nutqining leksik-grammatik saviyasi o'sishi, gaplar tuzish malakalarini egallanishi asosida so'ng kengaytirilgan bog'langan og'zaki nutq (hikoya qilish, ta'riflash, tushuntirish, mushohada qilish)larni o'rgatish uchun zamin yaratiladi. Monologik og'zaki nutqni tuzishda qo'llaniladigan turli hil mashqlar tilning barcha komponentlarini rivojlantiradi va o'quvchilardan nutqiy bilim imkoniyatlarini ishga solishni talab qiladi, bu esa yaxshi samara beradi. Yozma nutqqa o'rgatish maxsus maktabda faqatgina didaktik masala bo'lib qolmay, balki og'zaki nutqni, shuningdek, so'z-mantiq tafakkurni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Yozma nutq og'zaki nutqqa qaraganda qator ustunligi bilan ajralib turib, eshitmaydigan bolalarning nutqiy xususiyatlariga asoslanib, so'zning tovush-xarf tarkibini aniqlashga, leksik va grammatik malakalarini o'zlashtirish va mustahkamlashga olib keladi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishda, oldindan tayyorgarlik ko'rilmagan bajariladigan yozma ishlar yaxshi natija beradi. Bunda ishlar bolalarning nutqiy va bilish imkoniyatlarini maksimal darajada faollashtiradi, nutqiy faoliyatning muhim sifati-mustaqil fikr yuritish malakasini shakllantiradi. Mustaqil bajarilgan insho va bayon hamda boshqa topshiriq turlari hatolari ustida ishlash, boshqa topshiriqlarni bajarish – nutqni rivojlantirishning tarkibiy qismidir.

*Nutqning lug'aviy tarkibini shakllantirish.*



Nutqni shakllantirish ishlari tizimi bolalar nutq boyligini oshirish, ular bilgan soʻzlarni korrekqiyalash, soʻz yasash usullarni oʻrgatishlarni nazarda tutadi. Lugʻat bilan ishlashda eng asosiy narsa- ogʻzaki va yozma nutqda soʻzlarni toʻgʻri ishlatish, bu esa ogʻzaki nutq va taʼriflovchi- hikoyaning rivojlanishi, uning grammatik tuzilishining shakllanishi, oʻqish mashgʻuloti bilan chambarchas bogliqdir. Bundan tashqari, lugat bilan ishlash bolalarda birinchi bosqichda aniq (konkret), keyinchalik esa mavhum tushunchalarni umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

#### *Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish*

Dasturga muvofiq, oʻquvchilar oʻz fikrlarini ifodalashda soʻzlarning oʻzgarishi va birikishi bilan bogliq asosiy qonuniyatlarni oʻzlashtirib olishi kerak. Tilga oʻqitishning birinchi bosqichida grammatik topshiriqlarning asosiy maqsadi sodda yeyiq gaplar tarkibidagi soʻzlarni muloqotda qoʻllash usullarini oʻrganib, oʻzlashtirib, tajribada faol qoʻllashdir.

Nutqning grammatik tarkibining shakllanishi lugʻat ishi bilan birgalikda sodir boʻladi. Amaliy grammatik malakalar morfologiya va sintaksis qonunlari asosida, bu ikki grammatik kategoriyaning birligi zaminida rivojlanadi. Ularning har birini oʻrganish vaqtida bolalarga mazmun va mohiyatini, ifodalanish formal vositalarini oʻzlashtirishda yordam koʻrsatiladi. Grammatik tushunchalar va til qonuniyatlarini oʻzlashtirish asta-syokin koʻrgazmali-faoliyatli va koʻrgazmali obrazli tafakkurni, soʻz-mantiq tafakkurni shakllantiradi.

#### **Til tizimi bilan dastlabki tanishuv:**

Til birliklari va uning tuzilishi bilishi oʻquvchilarga nutqiy faoliyat davomida til vositalarini erkin tanlab, ularni ongli ravishda qoʻllash imkonini beradi. Bu hol esa ularning nutq malakalarini rivojlantirishga yaxshi zamin boʻladi. Tilni fan sifatida oʻrganish jarayenida bolalar til hodisalarini kuzatishga, tahlil qilishga oʻrganadilar, bu esa ularga oʻzlarining nutqini nazorat qilishga yordam beradi. Grammatika darslarida olingan bilimlar soʻzlarning leksik maʼnosini aniqlashga va kengaytirishga yordam beradi. Morfologiyani ongli ravishda oʻzlashtirilishi, nutqda maʼlum modellar asosida yasali ishlatilayotgan soʻz shakllari va yangi soʻzlarni ishlatish doirasini kengaytirishga olib keladi. Gapni grammatik tahlil qilish, uning tuzilishini oʻrganish, soʻzlarning oʻzaro aloqalarini aniqlash bolalar nutqini sintaktik tomondan muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Fonetika va grammatikani oʻrganish, soʻzning talaffuzi va yozuvi oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlarni qayd qilib belgilanishi orfoepiya (adabiy nutq) normalarini anglashga yordam beradi.

Tilni oʻrganish oʻquvchilarga til haqida maʼlum bilim olishga imkoniyat beradi, fonetika, grammatika, imlo haqida bilimlarini ongli ravishda qoʻllash malakalarini rivojlantiradi, turli xildagi mashq va topshiriqlarni bajarish usullarini, darslik, jadval, maʼlumotlar bilan ishlashni oʻrgatadi.

#### *Tilni oʻrgatish ishlarini tashkil etish prinsiplari.*

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarga ona tilini oʻqitishda oʻqituvchi tomonidan ularning nutqini har tomonlama va izchillik bilan (sistematik)oʻrganishni talab etiladi. Bu ish bolalarning nutqlaridagi tipik va individual hususiyatlarini aniqlashga qaratiladi. Til oʻrgatish talaffuz, grammatik malakalarni, lugat boyligini oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirish jarayenini joriy kuzatish va tekshirishdan boshlanadi. Olingan maʼlumotlar qayd qilinib, tahlil etiladi, keyinchalik oldin olingan kuzatishlar natijalari bilan taqqoslanadi. Bunday qiyosiy tahlil bola nutqining oʻsish dinamikasini, oʻziga xos tendenqiyasini kuzatishga yordam berib, oʻqituvchi xatti-harakatlarining samarasini baholaydi va keyingi ishlarin belgilab beradi. Kar va zaif eshituvchilarga ona tilini oʻqitishda darsning kommunikativ yoʻnalish prinsipi amalga oshiriladi, buning ogʻzaki nutqqa qaraganda qator ustunligi bilan ajralib turib, eshitmaydigan bolalarning nutqiy xususiyatlariga asoslanib, soʻzning tovush-xarf tarkibini aniqlashga, leksik va grammatik malakalarini oʻzlashtirish va mustahkamlashga olib keladi.

Kar va zaif eshituvchi oʻquvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishda, oldindan tayyorgarlik koʻrilmasdan bajariladigan yozma ishlar yaxshi natija beradi. Bunda ishlar bolalarning nutqiy va bilish imkoniyatlarini maksimal darajada faollashtiradi, nutqiy faoliyatning muhim sifati-mustaqil fikr yuritish malakasini shakllantiradi. Mustaqil bajarilgan insho va bayon hamda boshqa topshiriq turlari hatolari ustida ishlash, boshqa topshiriqlarni bajarish - nutqni rivojlantirishning tarkibiy qismidir.

#### *Nutqning lugʻaviy tarkibini shakllantirish.*

Nutqni shakllantirish ishlari tizimi bolalar nutq boyligini oshirish, ular bilgan soʻzlarni korrekqiyalash, soʻz yasash usullarni oʻrgatishlarni nazarda tutadi. Lugʻat bilan ishlashda eng asosiy narsa ogʻzaki va yozma nutqda soʻzlarni toʻgʻri ishlatish, bu esa ogʻzaki nutq va taʼriflovchi-hikoyaning rivojlanishi, uning grammatik tuzilishining shakllanishi, oʻqish mashgʻuloti bilan chambarchas bogliqdir. Bundan tashqari, lugʻat bilan ishlash bolalarda birinchi bosqichda aniq (konkret), keyinchalik esa mavhum tushunchalarni umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.



### *Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish*

Dasturga muvofiq, o'quvchilar o'z fikrlarini ifodalashda so'zlarning o'zgarishi va birikishi bilan bog'liq asosiy qonuniyatlarni o'zlashtirib olishi kerak. Tilga o'qitishning birinchi bosqichida grammatik topshiriqlarning asosiy maqsadi sodda yoyiq gaplar tarkibidagi so'zlarni muloqotda qo'llash usullarini o'rganib o'zlashtirib, tajribada faol qo'llashdir. Nutqning grammatik tarkibining shakllanishi lugat ishi bilan birgalikda sodir bo'ladi. Amaliy grammatik malakalar morfologiya va sintaksis qonunlari asosida, bu ikki grammatik kategoriyaning birligi zaminida rivojlanadi. Ularning har birini o'rganish vaqtida bolalarga mazmun va mohiyatini, ifodalanish formal vositalarini o'zlashtirishda yordam ko'rsatiladi. Grammatik tushunchalar va til qonuniyatlarini o'zlashtirish asta-syokin ko'rgazmali-faoliyatli va ko'rgazmali obrazli tafakkurni, so'z-mantiq tafakkurni shakllantiradi. mohiyati shundan iboratki, o'quvchilarga berilayotgan nutq materiali muloqot vositasi sifatida, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirishda qo'llanilib o'zlashtiriladi (yezish, o'qish shakllarida). Ushbu prinzipga asoslanib, tilni maxsus o'qitish jarayonini mahsus ishlab chiqilgan o'quvchilarning turli nutqiy muloqot amaliyati sistemasi sifatida tasavvur qilish mumkin.

Muloqot vositasi sifatida nutqni shakllantirish vazifasini o'quvchilarning barcha faoliyatlarini tashkil etishdan ajratgan holda hal etish mumkin emas. Maktab-internatlarda bolalar jamoasining turli shakldagi faoliyatlari o'rtasida uzviy aloqa o'rnatish imkoniyati yaratiladi. o'quv jarayoni, kundalik yumushlar, o'yin va ekskursiyalar, sayohatlar, bolalar mehnat faoliyati bolalarning nutqiy rivojlanish va tevarak-atrofni bilish doirasini hisobga olgan holda rejalashtiriladi. Pedagog xodimlar, kutubxonachilarning asosiy vazifasi o'quvchilarning o'zaro nutqiy muloqotini uyushtirishdan iboratdir.

Ona tilini maxsus o'qitish jarayonini shakllanishi nutqning me'yordagi rivojlanishiga xos umumiy qonuniyatlarga tayanadi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi: tilga oid material va nutq ko'nikmalarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish, har xil faoliyat turlari bilan bog'liq holda nutqni rivojlantirish, nutqning funktsional-stilistik turlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish, ko'rgazmali-sharoitli muloqotdan mavxum-kontekstli muloqot shakllariga asta-syokin o'tish, nutqni tushunib gapirishga o'rganish. Ushbu qonuniyatlarda maxsus tashkil etilgan tilga o'qitish jarayonida to'la namoyen bo'lishi uchun mashg'ulotlar tizimida tegishli sharoitlar yaratish va turli xil didaktik vositalar ishlatish nazarda tutiladi. Til materialini tanlash va tizimlash, bolalarni nutqiy muloqotga undovchi o'quv,

o'yin, mehnat faoliyati davomida ko'rgazmali vaziyatlar hosil qilish, o'quv jarayoniga izchillik bilan nutqning turli shakllari va turlarini kiritish tilga o'qitishning kompensatorlik asosini ta'minlaydi.

Eshtitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish va uni korrektsiyalash barcha psixik jarayonlarini rivojlanishi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. o'qituvchi bolalarning sensor rivojlanishi (sezgi, idrok, tasavvuri)ga asoslangan holda, predmetni o'rganib uning xususiyat va belgilarini taxlil qilishga o'rgatishga e'tibor beradi.

Talaffuzga o'rgatish, og'zaki nutqni eshtuv- ko'ruv asosida qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish qoldig'ini ishga solish nutqning sensomotor asoslarini muvofiqlashtiradi. Mahsus ta'lim jarayonida ishlatiladigan turli hildagi mashqlar ixtiyoriy diqqatni, ixtiyoriy va ixtiyersiz, obrazli va so'z-mantiq xotirani tarbiyalashga yo'naltiriladi.

O'quvchilarning psixik rivojlanishida analitik qobiliyat, ya'ni so'zlardagi xarf-tovush tahlil qilish va so'z tuzish, so'z, so'z birikmalari, gap, bog'langan matnlardagi o'xshashlik va farqlarni kuzatish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqni shakllantirish va til o'rganish mashg'ulotlari tizimida o'quvchilarning og'zaki nutq tuzilishiga ongli ravishda yondoshishi bilan avtomatik, ya'ni ataylab kontrol qilinmagan nutq faoliyati o'rtasida optimal munosabatlar bo'lishi nazarda tutiladi. Bunga amaliy xarakterdagi mashg'ulotlar bilan oddiy til tahlilini talab qiluvchi mashg'ulotlar, izchil va maqsadli tilga oid bilimlarini, til vositalarini ongli ravishda ishlatilishini nazarda tutgan topshiriqlardan, kamroq kuzatuvni talab qiluvchi topshiriqlarga o'tish yordam beradi.

O'quvchilar mustaqil nutqning hatolari ustida ishlashni izchil va maxsus rejalashtirish-nutq nuqsonlarini bartaraf etishning asosiy vositasi va nutq amaliyotining turlaridan biri hisoblanadi. Nutqiy hatolarga e'tiborni jalb etish va ularni to'g'irlash lug'atni faollashtirishga, grammatik malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Darsda tahlil qilinadigan xatolar turiga qarab (yozma ishdan keyin) o'quvchilarga topshiriqlar beriladi.

Kar va zaif eshtuvchi bolalarga tilni o'qitishda qo'llaniladigan nutqning har bir shakli va turi alohida ahamiyatga ega. Bunday tarif nutqning lingvistik, psixologik, didaktik xususiyatlari bilan bogliqdir (og'zaki va yozma, dialogik va monologik, undovchi va ta'rif-hikoyaviy, sharoitli, vaziyatli va kontekstli). Kar va zaif eshtuvchi bolalarning nutqiy rivojlanishining dastlabki bosqichlarida undovchi nutq oson va samaralidir.



Undovchi nutq yordamida pedagog tabiiy muloqot sharoitiga maksimal darajada yaqinlashgan holatda kerakli nutq materialini berib, bolalarning faoliyatini tashkil etadi. Bu esa nutqning hikoya va ta'rif shakllarini qo'llashga bolalar uchun qulay bo'lib, didaktik afzalliklari bilan ajralib turali.

Nutqning shakl turiga qarab, alohida-alohida (differenqal) qo'llash prinzipiga binoan, o'qituvchi sinf bilan, o'quvchilar bir-birlari bilan nutqiy muloqotga o'rganadilar. o'qituvchi yangi til materiallarini, uning birlamchi ma'nolarini joriy etish va bolalarni umumlashtirishga o'rgatish uchun eng samarali yo'lni tanlaydi. Nutqning turli shakl va turlarini tanlab ularni biriktirgan holda ishlatish o'qituvchiga o'quvchining nutq faoliyatini rag'batlantirish imkoniyatlarini topishga, bolalarda so'zning tovush-harf tarkibini maksimal darajada tushnash qobiliyatini o'stirishga, nutqiy bilim va malakalarni shakllanish darajasini aniqlashga, hatolarni to'g'rilashga imkon beradi.

Mustaqil ravishda (hatto kichik hajmda bo'lsa ham) o'qitishning dastlabki bosqichlarida) yangi leksika, grammatik shakllar va konstruktsiyalarni o'zlashtirish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishdagi asosiy tamoyilidir. Shuning uchun maxsus tashkil etilgan o'quv jarayenidan tashqarida nutq zahirasini ishlatish, to'g'rilash va aniqlash tilga o'qitishning asosiy prinzipidir. Suhbat, dialog, og'zaki va yozma hikoyalarni birgalikda tuzish, mustaqil yozma ish yezish jarayenida o'qituvchi bolalar bilib kelgan so'zlarni ishlatganda ularning tashabbusini qo'llaydi, sinf diqqatini bu materialga qaratadi, birgalikda muhokama qilishga undaydi.

**Ona tilini o'qitishning mazmuni:** Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktablariga mo'ljallangan tilga o'qitish dasturining o'ziga hosligi shundan iboratki, unda o'quvchilar nutqiy rivojlani-shining o'ziga hos xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Dasturning mazmuni va tuzilishi, materiallarni tanlab olish, joylashtirish prinzipi, bilim malaka va uni izchillik bilan o'zlashtiriliga qo'yilgan talab hajmi o'qitishning asosiy bir maqsadi- tilni muloqot vositasi va bilim quroli sifatida o'zlashtirib olishga qaratilgan.

Til materialini, til tizimini nutq faoliyati jarayenida o'zlashtirib olish tafakkur mohiyatini tashkil etuvchi bilimlar, tushunchalar yigindisini to'plashga olib keladi. Nutq materiallari bilan turli hildagi mashqlar olib borish bolalarning bilimini boyitishga, mantiqiy tafakkurini o'tkirlashishiga olib keladi. Demak, maxsus maktablarda tilga o'qitishning mohiyati bolalarni aqliy rivojlantirish hamda ularning bilish faoliyatini shakllantirish daturidir. Tilga o'qitishda amaliy yo'nalishni ta'minlash bilan birga dasturda tilni maktab ta'limiy fani sifatida

o'rganish masalasi ham qo'yilgan. Bu esa ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: birinchidan, tilni amaliy egallash talablari joriy etilavergach, o'quvchilar oldiga tilga oid ba'zi xodisalarni bilish talablari qo'yiladi (1-4 sinflar); ikkinchidan, 5-sinfdan boshlab, tilni fan sifatida o'rganishni nazarda tutuvchi «Grammatika va imlo» bo'limi kiritiladi.

## 2-5 Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqini o'stirishga oid didaktik o'yinlar

### "LOTO" O'YINI

Tasavvurlar va tushunchalarni aniqlash, so'z va so'z birikmalari ustida ishlash vositasida nutq o'stirish mashg'ulotlarda

o'zlashtirilgan nutq mustahkamlanib boriladi. Asosan nutqni mustahkamlash mashg'ulotlarida didaktik o'yin va mashqlar qo'llanadi. Quyida talimning barcha yillarida ishlatiladigan o'yinlar keltiriladi.

Eng kup qo'llanadigan **"Loto"** o'yiniga qo'shimcha **topshiriqli kartochkalari, topishmoq, savol kartochkalari** hamda **"o'ylab top"** o'yinlari o'tkaziladi.

### "LOTO" o'yini

1. Bolalarga rasmlar tagida yozuvi bor loto kartalari tarqatiladi. Bolalar ularni o'qishni mashq qiladilar, loto rasmlarida tasvirlangan narsalarning nomlarini yoki harakatlar nomlarini mustahkamlab oladilar. So'zlarni og'zaki-daktil to'g'ri o'qib bergan bolaga loto kartalarini yopish uchun kichkina kartochkalar beriladi. Eng birinchi bo'lib kartani yopgan bola golib hisoblanadi.

2. Rasmlar loto nus'hasidan yozuvlari qirqib olinib, bolalarga tarqatiladi, ular shu rasmlarga mos yozuvlarni tanlaydilar

Olib boruvchi (boshida pedagog yoki tarbiyachi, keyin, yilning ohirida birortasi bola bo'lishi mumkin) "Kimda bor?"-deb so'raydi (loto kartalarida tasvirlangan har xil narsalarning nomini aytadi, yozuvli kartochkani ko'rsatadi). Qaysi bolada shu kartochka bor bo'lsa, u: "Menda"-deb kartochkani oladi. (agar rasmlar ikki nusxada bo'lmasa, pedagog oldindan tayyorlab qo'ygan fishkani beradi).

3. Stolga rasmlar teskari qo'yiladi. Rasmlarni teskari qo'yib chiqishdan avval, bolalarga kursatiladi ularning hammasi tasvirlangan predmetlarning nomini bitta bittadan aytib chiqadilar. Keyin pedagog bittadan kartochkani oladi, bolalar esa kartochkalardan qaysi birini olinganini topishi kerak bo'ladi. Stoldagi kartochkalarning nomini bolalar birma-bir topib chiqadilar. Predmet nomini to'g'ri topgan bolaga kartochka beriladi va uyin davom etadi. Ushbu o'yinda



so'zlar ko'p marotaba takrorlanganligi tufayli ular esda yaxshi saqlanadi, to'g'ri talaffuzi mustahkamlanadi.

Lotoni qo'llash jarayonida quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

1. Loto rasmlari asosan so'zlarni eslab qolish uchun ishlatiladi, asl predmetlar bilan oldindan tanishtiriladi.

2. Mapnulotlarda tayyor lotolardan ham oydalanish mumkin, ba'zi lotolarga o'zgartirishlar kiritish ham bo'ladi. Lotodagi fe'lni ifodalovchi so'zlarni mustahkamlash uchun, xabar maylidagi harakatlarni ifodalaydigan fe'llarni buyruq mayli shaklidagi fe'ldan keyin o'zlashtirilishi kerak, ya'ni agar bolalar "bor", "yugur", "uxla" so'zlarini o'zlashtirgan bo'lsalar "borayapti", "yuguryapti", "uxlayapti" kabi so'zlari ishlatiladi.

3. Lotoni yasash uchun kartondan uzunligi 15 sm va eni 10 sm bo'lgan kartochkalar "qirqib olinadi. 3-ta variantli o'yinni o'tkazish uchun 21-ta kartochka qirqiladi. Masalan dastlabki yettita kartochkaning bir tomoniga sabzavotlarning rasmi yopishtiriladi (sabzi, lavlagi, karam, bodring, piyoz, kartoshka va hokazolar).

Alohida, eni 2 sm, buyi 10 sm kattaligida qirqilgan kartonga sabzavotlarning nomi yozilgan kogos yopishtiriladi. Boshqa 7 ta kartochkaga sabzavotlarning rasmi yopishtiriladi va rasm tagiga nomi yoziladi. Qolgan 7 kartochka rasmsiz bo'ladi, unda faqat so'zlar yeziladi.

"Loto" o'yini quyidagicha olib boriladi:

1-variant. Tagida yozuvlari bo'lgan va sabzavotlarning rasmlari yopishtirilgan kartochkalarning bir nus'hasi bolalarga tarqatiladi, boshqasi-yozuvsiz rasmlar esa, pedagogda qoladi. Pedagog, kartochkani ochib, rasmni bolalarga ko'rsatadi va "Kimda (pomidor, bodring, sabzi)?" -deb, savol beradi. Xuddi shunday rasmi bo'lgan bola "qo'lini ko'tarib "Menda"- deydi. Keyin u kartochkasidagi rasm tagidagi yozuvni o'qib berishi va pedagogdan olgan kartochkasi bilan rasmni yopishi kerak. hamma kartochkalar tarqatilganda o'yin tugatiladi.

2-variant. Bolalarga sabzavotlar rasmi tasvirlangan bo'lgan yozuvsiz kartochkalar tarqatiladi. Pedagogda sabzavotlarning nomi yozilgan tablichkalar bo'ladi. Tablichkadagi yozuvni ko'rsatib, "Kimda?" deydi. Tegishli rasmi bo'lgan bola "Menda"-deb javob beradi. Tablichkadagi yozuvni yana bir marta o'qib chiqadi.

3-variant. Bolalarga faqat predmetlarning nomlari yozilgan rasmsiz kartochkalar beriladi. har bir bola o'zining kartochkasini og'zaki-daktil o'qib beradi va pedagog yozuvga mos rasmni ochishini kutadi. Shunday qilib bolalar yozuvga mos rasmlarni topadi.

Bu o'yin bolalarda sabzavotlar nomlarini eslab qolishga va og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Xuddi shunday o'yin yordamida kiyim-kechaklar, oyok; kiyimlari, idish-tovoqlar, mevalar, o'yinchoqlar nomlarini eslab qolish mumkin.

Kichik guruhlarda yozma ravishda berilgan yangi so'zlarni mustahkamlash uchun lotoga yaqin bo'lgan YIG'MA KITOBLAR ishlatiladi. Bunday kitoblarni yasash uchun tayyor yirma kitobchalardan foydalaniladi. Kitobning betiga oq qogoz yopishtiriladi, shundan keyin har bir varaqqa o'yinchoqlar rasmi yopishtiriladi. Rasm tagiga qalin qog' ozdan ensiz cho'ntakcha yopishtirilib, unga uyinchoqlar nomi yozilgan jadvalchalar solinadi. Bola chiroyli rasmlarni ko'rib chiqadi va guruh xonasidan rasmi chizilgan narsani qidirib ko'rsatadi va rasm tagiga qo'yadi.

Bola rasmga qarab uyinchoqni topadi va rasm tagidagi jadvalchaga diqqatini qaratadi. Daktil alifbosi o'zlashtirilgach, yozuvdagi tanish harflarni ajrata oladi va o'yinchoqlar nomini daktillab tallafuz qiladi.

Shuningdek, mashg'ulotlarda o'yinchoq nomi yozilgan kartochka ko'rsatiladi, xuddi shu o'yinchoqni olib kelish vazifasi beriladi.

Eng kichkina bolalar bilan ishlash jarayonida "bi-ba-bo", ya'ni qo'lga kiyiladigan qo'g'rchoqlar va kichik yigma panjaralar keng qo'llaniladi. Mashg'ulotlarning boshida yig'ma panjara ortidan qo'g'rchoq quyoncha chiqib, "Salom bering"- deydi va yozuvli jadvalchani panjara cho'ntakchasiga solib qo'yadi. Bolalar "Salom"— deydilar. Keyin quyoncha bolalar ismlarini birma bir aytib chiqadi va nomlari yozilgan jadvalchalarni galma-gal cho'ntakchalarga solib qo'yadi. Chaqirilgan bola turib "Bu men"-deydi. Shunday qilib bu o'yin bolalar nomlarini eslab qolish uchun ishlatiladi. Bunday mashg'ulotlar bolalarga katta zavq bagishlaydi. Ular sabrsizlik bilan uzining navbatini kutadi, stol oldiga chopib kelib, quyoncha so'ragan o'yinchoqlarni oladilar quyonchaga "ma" deb beradilar, quyoncha esa bolalarga minnatdorchilik bildiradi. Bunday mashg'ulotlar bolalarga tevarak-atrofdagi narsalarning nomlarini eslab qolishiga xizmat qiladi. o'yin chorida bolalar o'qishni o'rganadilar, so'zni taxlil qila oladilar va shu tufayli esda saqlab qolishi oson kechadi.

### 3-§ Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga topshiriq va savolli tarqatma materiallar

Nutq o'stirish bo'yicha dastur talablaridan biri og'zaki savol va topshiriqlarni tushuna bilishga o'rgatish. Topshiriqlarni bajarish va savollarga javob berish so'zlashuv nutqni faollashtirish va mustahkamlash vositasi hisoblanadi.



Beriladigan topshiriqlar matnlariga bolalar har xil sharoitlarda o'zlashtirgan barcha yangi so'zlar kiritiladi. Bu o'yinlar daktil va orzaki usulda berilgan hamda jadvalchada yozilgan topshiriqlar yordamida olib boriladi.

Dastlabki o'yinlarda topshiriq yozma jadvalchada beriladi. rzuvli jadvalchalar bilan ishlashdan maqsad:

1. Har xil shaklda (og'zaki, yozma, daktil) berilgan topshiriqlarni biror harakatga undov sifatida qabul qilishga o'rgatish.

2. Har xil matnlar tarkibiga kiritilgan so'zlarni tushuniishni mashq qilib bolalarning nutqini faollashtirish.

3. So'zlashish uchun zarur bo'lgan so'roq so'zlarni tushunishga o'rgatish.

4. Nutqni tushunish malakalari yaxshi shakllanmagan bosqchida bolaning mustaqil nutqini mashk; qildiradigan yozma jadvalchalarni ishlatish.

Jadvalcha yozuvlarini tuzayotganda quyidagi qoidalaridan kelib chiqish kerak:

1. Faqat mashg'ulot paytida bajariladigan topshiriqlarni jadvalchalarga kiritish, harakatni ko'rsatish bilan almashtirishga majbur qiladigan yozuvlarni ishlatmaslik kerak. Masalan mashg'ulotda "uxla" topshirig'ini berish mumkin emas, chunki bola ko'zini yumib, boshini egadi. Xuddi shu tarzda: "qor bobo yasa", "ovqat pishir", "ko'ylak tik", kabi vazifalar berish mumkin emas. Bunda bola matn mazmunini tushunib uni bajara olmaydi va matnga mos taqlid harakatlarni ko'rsata boshlaydi va bunday hol imo-ishorali nutqning rivojlanishiga olib keladi.

2. Topshiriqli didaktik o'yinlar jadvalchalari tuzilayotganda bolalar so'zlashuv chog'ida duch keladigan yoki maxsus mashg'ulotlarda bilib olgan so'zlarni ishlatish maqsadga movofiq bo'ladi. Masalan, kundalik hayetda bolalar "Eshikni och" iborasiga duch keladilar. "Och" so'zini mustahkamlash, ma'nosini kengaytirish uchun "shkafni och", "tortmani och", "sumkani och", "kitobni och",

2. Mashqlarda nomini bilib "og'zingni I-II-III och" kabi topshiriqlar beriladi. sonini va ranglar uchun quyidagi topshiriqlar yashil sharni ol", "uch marta qarsak olishi tuziladi: "qizil qalamni ber", chal".

3. Bolalar bir hil harakatni turli nasalar bilan bajarishi uchun bir xil fe'l ishtirok etadigan bir nechta topshiriq tuziladi. Shuning uchun "art" so'zini mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlar berilishi kerak: "stolni art", "polni art", "piyolani art" va hokazo. Jadvalchalarni shunday tuzish kerakki, bir xil narsalarning nomlari turli harakatlar bilan bog'lanishi kerak. Masalan: "stolni art", "stolni chiz", "stolni ko'rsat", "stolga bor".

4. Bir guruh topshiriqli "Stolga qo'g'rchoqni o'tkaz", "polga qo'g'rchoqni o'tkaz", "qo'g'rchoqni shkafdan ol".

Topshiriqli, va savol mashqlarni quyidagi juft savollarni berib o'tkazish mumkin:

a) "qizil qalamni olib kel", "qizil qalamlarni olib kel"

b) "qo'lingni art", "qo'ling bilan art"

v) "xonada kim bor?", "xonada nima bor?"

g) "ustiga qo'y", "ichiga qo'y", "tagiga qo'y".

d) "Sen kimga berding?", "Senga kim berdi?"

Bolalar so'zlar ma'nosini to'g'ri tushunishi, so'zlarning o'zgarishiga ularning diqqatini jalb qilish uchun bunday mashqlar muhimdir. Birinchi topshiriq so'zlari bolalar uchun tanish bulishi kerak, faqat murojaat qilish shakli ular uchun yangi bo'ladi. o'yinda ishtirok etadiganlar soniga qarab pedagog jadvalchalarni tayyorlaydi. Bolalar "ol", yoki "och" signaliga ko'ra jadvalchalarni oladilar, navbatma-navbat har berilgan topshiriqni o'qiydilar va bajaradilar.

5. Musobaqa tarzida ("kim tezroq" yoki "kim yaxshiroq") olib borilgan mashg'ulot bolalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Bola xatoga yo'l qo'yganda uni guruh bolalari bilan birgalikda tushuntirib to'g'rilash kerak. Masalan, Axmad shunday topshiriq oldi: "qizil qalamlarni sariq qutichaga qo'y". Axmad sariq, qalamlarni qizil kutichaga qo'yadi. Bolalarning diqqati matndagi so'zlarga va bajarilgan topshiriqdagi hatoga qaratiladi. Topshiriq yana qayta bajariladi. har qaysi to'g'ri bajariladigan topshiriq uchun fishka beriladi. o'yin ohirida fishkalar sanaladi. Eng ko'p fishkalar to'plagan bola yutgan buladi. Bitta mashg'ulotda bitta-ikkita dan ortiq yangi so'z ishtirokida topshiriqli kartochkalar syokinlik bilan kiritiladi. Masalan, jadvalchada birinchi marta "yech", "kiydir", so'zi beriladi. "qo'g'rchoqqa palto kiydir", "Qo'g'rchoqqa shapka kiydir", "ayiqchani ko'ylagini yech" kabi yozuvli jadvalchalar tuziladi. Ma'lum vaqtdan keyin murakkabroq topshiriqlarni ham berish mumkin: "qo'g'rchoqning paltosini yech va ko'ylak kiydir".

Jadvalchalar bilan ishlash tartibi quyidagicha:

Boshida jadvalchalar yozma ravishda beriladigan topshiriqlar yaxlit ravishda global qabul qilish uchun ishlatiladi. Ya'ni bola bajarishi kerak bo'lgan harakatni ko'rsatib jadvalcha beriladi. Masalan "Ayiqchani olib kel". Jadvalcha bilan bajariladigan birinchi mashg'ulotda topshiriqni bajarilishini kattalar ko'rsatishi mumkin.



Bola narsa yoki harakatni kursatmasdan ma'nosini tushunib, talab qilingan narsani bevosita bajarilishini kuzatishi muhimdir.

6. Bolalar jadvalcha orqali berilgan har xil topshiriqlarni ajratishga o'rganib bo'lgach turli xil narsalar bilan bir xil harakatlarni va bir xil narsalar bilan turli xil harakatlarni hatosiz bajara oladigan bo'lgandan keyin, topshiriqlarni daktil shaklda va labdan o'qishga berilgan topshiriqlarni tushunishga o'rgatib borish kerak.

Har bir topshiriq kiritilganda bolani jadvalchada yozilgan gap mazmunini tushunib olishi bilan chegaralanish mumkin. Dastlab, topshiriqni bajarish talab etilishi shart emas, chunki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda yangi matn ma'nosini tushunishga e'tibor karatiladi. Asta syokin, bolalarda topshiriqqa to'g'ri munosabatni tarbiyalash kerak: qabul qilding-bajar. Kar bolalarning so'zlashuv nutqining rivojlanishida o'yin tusidagi topshiriqli jadvalchalar katta yordam beradi. Pedagog bolalarga tanish bo'lgan so'zlardan yangi qiziqarli topshiriqlarni tuzishi lozim.

Jadvalchali uynlarning bir nechta turlarini o'tkazish tavsiya etiladi:

Pedagog yozuvli jadvalchani xamma bolalarga ko'rsatadi xamda topshiriqni bajaradigan bolani tanlaydi. Bitta bolaga «ayiqchani olib kel», boshqasiga «qo'rirchoqni olib kel», uchinchisiga «koptokni olib kel» va boshqa shu kabi topshiriqlar beriladi. Bolalar topshiriqni navbatma-navbat bajaradi. Bunday mashqlar bolalarda katta qiziqishni uygotadi.

Jadvalchalar bilan olib boriladigan ishini «Pochtachi», «Akvarium», «Ayiqcha choralayapti» o'yinlar shaklida ham tashkil etish mumkin.

**“Pochtachi” o'yini.** Tarbiyachi avvaldan tayyorlagan topshiriqlarni konvertlarga solib qo'yadi. Konvertlarga bolalarning ismlari yeziladi. Pochtachi hatlarni olib keladi. Bolalar konvertni olib, jadvalchadagi yozuvni o'qiydilar va topshiriqni bajaradilar.

**“Ayiqcha choralayapti” o'yini.** Ayiqchani qo'lida sumka, unda topshiriqlar yezilgan jadvalchalar bo'ladi. Ayiqcha tarbiyachiga bolaning nomini aytadi. Bola sumkadan topshiriqni olib, uni o'qiydi va bajaradi. Bolalar jadvalchadagi topshiriqlarni ajrata oladigandan keyin, topshiriqlarni og'zaki ravishda berish tavsiya etiladi.

**“Akvarium” o'yini** Akvariumga o'yinchoq-baliqchalar solinib, ularning ogziga turli topshiriqlar tutkaziladi. Bolalar akvariumga qarmoq tashlab, baliqni tutadi, ogzidan topshiriqni olib o'qiydi va uni bajaradilar.

1. Og'zaki berilgan topshiriqlar jadvalchalar yerdamisiz bajariladi.

2. O'qishni o'rgangandan keyin, bolalar o'zlari o'rtoqlariga topshiriq beradilar. Avval bolalar topshiriqlarni jadvalchalarga qarab o'qiydilar. Asta syokin jadvalchalar ovoz chiqarmasdan o'qiladi va topshiriqlar bajariladi. Keyinchalik jadvalchalarga qaramasdan topshiriqlarni berishga va bajarishga o'tiladi.

3. Jadvalchalardagi yozuvlar mazmunini o'zlashtirib olganlaridan so'ng, fe'llarning yangi shakllarini o'rganishlari uchun ular yana o'sha jadvalchalarga qaytishadi.

Katta guruh bolalaridan bajarilgan ish haqida hisobot berish talab qilinadi. Dastlab hisobot jadvalchalarga qarab o'qib beriladi.

Topshiriqlar faqat mashg'ulotlarda emas, kundalik xayetda, o'zaro muloqot qilayotganda berilishi maqsadga muvofiqdir. Topshiriqni bajarayotgan bola «Sen nima kilasan?» «Sen nima kilayapsan?», «Sen nima qilding?» savollarga javob berishi kerak. Eng muhimi, bolalar mustaqil ravishda nutqida 1-shaxs kelasi zamondagi fe'l shakllaridan foydalanishni o'rganib olishlari kerak. «Men olaman», «Men olib kelaman» va x.k. 2-shahs kelasi zamon fe'l shakliga kelsak, ayniqsa so'roq so'zlarini («Sen borasan», «Sen olib kelasan») tushunsa yetarlidir.

Topshiriq, savollar alohida jadvalchalarga yeziladi. Kichik guruhlarda harflar hajmi bo'yiga 2,5 sm eniga 2 sm ni, katta guruhlarda 1 sm bo'yiga, 0.5 sm eniga bo'lishi tavsiya etiladi. Jadvalchalar alohida mavzularga ajratilib konvertlarga solingan xolda saqlanadi.

Jadvalchalar bilan har kuni 10-15 daqiqa ishlansa, bolalarning lugat boyligi ortadi, nutqning grammatik shakllari o'zlashtiriladi. Bolalarning nutqi tez sur'atda va sifatli rivojlanadi.

**“O'ylab top”** Ta'limning birinchi yilida bolalar «top» so'zining ma'nosi bilan tanishadilar. Pedagog talaffuzga o'rgatish bo'yicha umumiy Mashg'ulotlarda «topinglar» so'zini jadvalchalarda eslab qolish uchun beriladi. «Toping» deydi bolalar boshlovchiga mashq davomida. Bolalar narsa, rasmlarni berkitadi, boshlovchi esa ularni topadi. Bunda «top», «toping», «topdim» so'zlaridan foydalaniladi.

Bolalar ularni o'rab turgan muhitdagi narsalarning sifat va belgilari (rangi, shakli, kattaligi) ga qarab, ularni topishga o'rganadi va savollarga javob beradi. Bundan tashqari bolalar ularga tanish bo'lgan narsalarning ko'rinishiga qarab, topishmoqlar topishni o'rganadilar.

Masalan, «shakli dumaloq, rangi qizil, o'yinchoq. Bu nima?» -koptok.

Quyida «o'ylab top» o'yinining murakkablashib borishi ko'rsatiladi.



1. Bir biriga o'xshamagan 2-ta predmet olinadi. Predmetlar bolalarga ko'rsatib qo'yiladi va topishmoq beriladi. Bir-ikkita sifat va xossa tasvirlanishiga qarab, bolalar topishmoqni topadilar. Masalan, «rangi oq, qulogi uzun, sakraydi. Bu nima?»-quyen.

2. O'zaro 1-2 ta belgi bo'yicha ajralib turadigan narsalar olinadi (bir xil rangdagi, xar xil kattaligi va ishlatilishi), masalan, shar, koptok, kichkina shar.

3. Xamma predmetlar avvaldan bolalar bilan ko'zdan kechiriladi, keyin olib qo'yiladi. Mana shu narsalardan biri topishmoq qilib beriladi. Topishmoqni topayetganda narsalarni ko'rmasdan yeddin topadilar.

4. Narsalarning alohida belgi va xossalari qarang, taniy olishni o'rgangan xolda, bolalar ko'z oldidagi narsalarni tasvirlab beradilar. Bu kabi eng oddiy topishmoqlar narsalarning og'zaki tasvirlanishiga qarab, taniy olishga xizmat qiladi, o'z fikrlarini so'z bilan ifodalashga o'rgatadi. Bunday topshiriqlar juda oddiy bo'ladi, topshiriqlarda faqat ko'zga tashlanadigan belgilar bo'ladi. Asta syokin bolalarga narsalarning nimaga kerakligi, ularning turgan joyi va nomi qo'shiladi. Masalan, «Shakli dumaloq, rangi qizil, uzi katta, shakfda turibdi, uni o'ynasa bo'ladi, sakraydi. Bu nima?»- koptok.

«o'ylab top» o'yini bolalarning predmetlar haqidagi bilimlarini va so'z boyligining saviyasini tekshirishga xizmat qiladi. o'yin bolalar nutqini faollashtiradi xamda o'yinni olib borishda narsalarning ko'rinishiga qarab tasvirlabgina qolmay, balki o'zi o'ylab topishi muhimdir, chunki bog'cha ta'limining ohirida «o'ylab top» o'yinida bolalar boshlovchi rolini olib borishi mumkin bo'ladi. o'yinda bitta narsani bir necha marta ishlatish mumkin. Masalan parovoz, ko'girchoq yoki boshqa har xil o'yinchoqlar bo'lishi mumkin. Bolalar ko'rayetgan narsa haqida mustaqil bayon etishlari hamda tasvirlanayotgan narsa nima ekanligini topib berishlari kerak.

**«Nima yo'qoldi?»** o'yini Bolalarga bir nechta o'yinchoqlar ko'rsatiladi (koptok, qo'rirchoq, ayiqcha, mashina) Ular o'yinchoqlar nomini aytadi. Keyin o'qituvchi bolalarga qo'zlarini yumishni buyuradi va bitta o'yinchoqni olib qo'yadi. Bolalar ko'zlarini ochganda o'qituvchi so'raydi: «Nima yo'q?».

Bolalar «qo'girchoq yo'q», «ayiqcha yo'q» deb javob bermogi krak. Agarda bolalar hato qilsa, o'qituvchi to'g'rilaydi.

**«Topingchi»** o'yini o'qituvchi ko'zini yumadi. Navbatchi bolalarga bittadan o'yinchoqni tarqatadi, ular o'yinchoqni partani ichiga berkitadi. Keyin barcha bolalar jadvalchani o'qiydi: Sanobar opa, qo'zingizni oching. Topingchi. o'qituvchi, bolalarga murojaat etib, «senda piramidami?»-deydi. -Yo'q. Senda mashinami?-

Yo'q. Qo'girchoqmi? -ha. Menda qo'shrchoq. Barcha bolalar birga aytadi: «Lolada qo'girchoq bor» So'ng boshqa o'quvchilarda nima borligini topadi.

Didaktik o'yinlarda o'yinchoqlar, qo'girchoqlar uchun mebel, qo'girchoq kiyimlari, o'yinchoq hayvonlar to'plami, predmetli loto, predmetli va syujetli rasmlar, mayda o'yinchoqlar, diafilmlar, slaydlar kabi o'yinchoq va didaktik qo'llanmalardan foydalanish mumkin, Barcha o'yinchoqlar bolalar nutqini o'stirish uchun asta syokinlik bilan kiritiladi, har qaysi qo'llanma yoki o'yinchoq nomi jadvalchalarda yezilgan xolda beriladi.

Bundan tashqari, xonadagi barcha jihozlar yozuvli jadvalchalar biriktirilgan bo'lib, ular bolalar lugatini boyitish uchun ko'rgazmali qurol vositasi sifatida xizmat qildi. Qo'shimcha ravishda guruh xonalarida qo'yidagi maxsus buyum va jihozlar mavjud bo'lishi kerak: o'yinchoqlarga yozuvlar, taomnoma yezish uchun taxta, navbatchilar ismlari yezilgan taxta, tabiat taqvimi, jadvalchalar solinadigan jild, konvertlar va tirgakchalar, bolalar suratlarini tasvirlangan panno, kiyim kechaklar rasmlari tasvirlangan va nomlari yezilgan panno va hokazolar.

#### Savol va topshiriqlar

1. «Loto» o'yinini qo'llash xususiyatlari.
2. Topshiriqli va savolli kartochkalar bilan qanday ishlanadi?
3. «Pochtachi», «Akvarium», «Ayiqcha chorlayapti» o'yinlari qanday olib boriladi?
4. «O'ylab top», «Nima yo'qoldi?» o'yinlar qanday olib boriladi?



## GLOSSARIY

**Alaliya** – atamasí( grekcha – a yuk, lotincha- lalio- nutk )tarjimasi nutkning yukligi, nutksizlik xolati- nutk buzilishlariga doir adabiyotlarda kadim zamonlardan byeri kuzatiladi.

**Alaliya** – bolaning ona kornida yoki dastlabki rivojlanish boskichida nutk shakllanishiga kadar bosh miya kobigi nutk doirasining organik jaroxatlanishi okibatida uzliksiz rivojlanmay kolishdir.

**Anomaliya** – (grekcha anomalos – noto`g`ri, notekis so`zidan) – anatomik, fiziologik va psixik funktsiyalarning normal rivojlanmaganligiga asoslangan nuqson.

**Asteniya**-darmonsizlik, turli sabablarga ko`ra ruhiy jihatdan zaif bo`lib qolish.

**B.S.F.-** bolalar serebral falaji.

**Defekt** – nuqson , kamchilik.

**Demensiya** - bolaning hayot davomida turli bosh miya kasalliklari natijasida bilish jarayonining pasayishi.

**Ekspressiv nutq** – (exhressio –ifodalash so`zidan) – fikirni o`zgalarga bayon etish.

**Ekspressiv nutq** – (exhressio –ifodalash so`zidan) – fikirni o`zgalarga bayon etish.

**Ekzogen** - tashqi.

**Endogen**-genetik

**Impressiv nutq** (lat.impressia – tassurot so`zidan)-o`zgalar nutqini idrok qilish, tushunishga asoalangan nutq turi.

**Infantelizm**- organizmning o`sisidan to`xtab qolishi.

**Intelekt** – (lat. intellektus – tushunish ,tushuncha so`zidan)- insonning umuman bilish faoliyati; uning fikirlash qobilyati, taffakuri, aqli.

**Intelekt** – (lat. intellektus – tushunish ,tushuncha so`zidan)- insonning umuman bilish faoliyati; uning fikirlash qobilyati, taffakuri, aqli.

**Katarakta**-tug`ma yoki orttirilgan bo`ladi.

**Kinesteziya** – tana yoki tana qismlari harakatini sezish.

**Ko`r** –ko`rish faoliyatining yo`qolishi.

**Kompensatsiya**-yuklash, o`rnini qoplash. Biror psixik funktsiya qisman yoki to`la ishdan chiqqanda, uning vazifasini boshqa kuchli rivojlangan sog` funktsiyalar bajaradi.

**Korreksiya**- tuzatish, nuqsonni ta`lim- tarbiya orqali bilinmaydigan holga keltirish (yumshastish)

**Adaptatsiya**- lotincha *adapta* -moslashtiraman, muvofiqlashtiraman so`zidan olingan bo`lib, quyidagilarni bildiradi: organizmlarning yashash sharoitlariga moslashishi;

**Analiz** - (yunoncha *apalysis* – parchalash, bo`lish so`zidan) tahlil narsa va hodisalarni fikran, tarkibiy qismlarga ajratishni aks ettiruvchi aqliy operatsiya. A. (tahlil qilish) jarayonida butunning bo`laklarga nisbatan munosabati aniqlanadi.

**Anamnez** - yunoncha *anamnesis* - (eslash) so`zidan olingan bo`lib, tashxisni qo`yish va aniqlash, korreksion-tarbiyaviy tadbirlarni belgilash maqsadida tekshirish jarayonida kasal shaxsning o`zi va yaqinlaridan kasallikning yuzaga kelishi va kechishi, o`sishi haqidagi ma`lumotlarni to`plash jarayonini.

**Audiologiya** - eshitishni o`rganadigan fan sohasi. muvozanat va tegishli buzilishlar.

**Faol lug`at**- gapiruvchi ushbu tilda nafatqat tushunadigan, balki faol ko`llaydigan so`zlar.

**Alaliya**- me`yordagi eshituv va saqlangan intellektda bosh miya yarim sharlarining tug` ruq trvmalari, bolani nutqgacha bo`lgan davrda boshidan o`kazgan bosh miya kasalliklari yoki jaraohatlari oqibatida nutqning to`g`iq rivojlanmaganligi yoki yo`qligi.Alaliyaning motor( nutqning ekspressiv tomonini buzilishi) va sensor(nutqni tushunishning buzilishi) shakllari farqlanadi.

**Alveolali undoshlar**-til uchini yuqori tish ildizlaridagi alveolalarga bosib hosil qilinadigan til oldi undoshlari.

**Ambidekstriya**- o`ng va chap qo`llarni birdek boshqara olish malkasi.

**Amimiya**-yuz muskullarining parezlari, paralichlari yoki yuz muskullari harkatlari koordinasiyalarining markaziy nevr tizimining turli kasalliklari, falajlanish oqibatida yuz muskullarining ifodalliligining pasayishi yoki yo`qligi.

**Amneziya**- xotra buzilishi bo`lib, bunda odam avval shakllangan tasavvur va tushanchalarni ifodalab bera olmaydi. Amneziyaning ikkita asosiy shakllari farqlanadi:

**Retrograd** (jaholatparast) amneziya. Bunda kasallik (travmalar) oqibatida xotira buzilishi kuztiladi, bu holatda kasallikkacha bo`lgan bir necha soat oldin sodir bo`lgan voqyealar, ba`zan kasallikka bo`lgan bir yildagi voqyealar esdan chiqib ketadi.

**Analizatorlar**-murakkab nerv mexanizmlari bo`lib, hayvonlar va inson organizmi ichki va tashqi muhitdan qabul qilinadigan qo`zg`atuvchilarni nozik tahlilini ta`minlaydi.



**Anamnez-** bemorning uning hayoti, kasallikni rivojlanish tarixi haqidagi ma'lumotlari bo'lib, tashxis qo'yish va zarur davolash choralarini belgilash uchun zarur bo'ladi.

**Anartriya-** dizartriyaning og'ir shakli bo'lib, bunda nutq harakat muskullarining falajlanganligi, artikulyasiya tizimining keskn buzilishlariga ko'ra, deyarli nutqning umuman yo'qligi.

**Anomaliya-**organizm va uning qismlari faoliyatlarini me'yordan patologik chetga chiqishi.

**Antisipasiya-** oldingi tovushlarni keyingisi bilan almashtirilishi.

**Apraksiya-** maqsadga qaratilgan harakatlar va faoliyatlarning bosh miya qobig'ining jaraohatlanishi oqibatida buzilishi. Apraksiyalı bemor qo'lini harakatlantira oladi, ammo, maqsadga qaratilgan faoliyatni bajara olmaydi (ko'rsatma asosida qo'lini ko'tara olmaydi, tugmalarini qaday olmaydi va hakoza). Apraksiyaning quyidagi asosiy turlari farqlanadi:

**Artikulyasion fazalar-** tovush artikulyasiyasining uchta qismi: pristup (eskursiya), ushlab turish(o'rtacha qism), boshidan boshlash (rekursiya.)

**Artikulyasiya-** berilgan tovush, bo'g'inlar va so'zlarni tashkil etuvchi, artikulyasion fazalardan o'tgan tovushlar kompleksini talaffuz qilish uchun zarur nutq organlarining faoliyati, holati va harakati.

**Astenik** – kuchsiz, bo'sh, zaif. Astenik sindrom-nerv- psixologik holatining zaifligi, nerv jarayonlari tonusining buzilishi.

**Asteniya-** nerv jarayonlarining qattiq charchashida namoyon bo'luvchi nervli- psixologik zaiflik, qo'zg'aluvchanlik, ishchanlik qobiliyatining va barcha psixik faollik shakllarining pasayishishi. Asteniya bolalarda boshidan o'tkazgan (yuqumli) kasalliklari va miyaning jaraohatlanishi natijasida paydo bo'ladi.

**Astereognoz-** taktil sezgirlik saqlangan holda predmetlarni paypaslab bilish qobiliyatining buzidishidir; bosh miya qobig'ining dominant yarimsharlarini ikkilamchi jaraohatlanishida kuzatiladi.

**Asfiksiya-** homilaning yoki yangi tug'ilgan chaqaloqning nafas olish markazini qo'zg'aluvchanligini yo'qotishi yoki pasayishi oqibatida nafas ololmay qolishi oqibatida bo'g'ilib qolishi.

**Tovushlar atakasi-**ovoz hosil bo'lishida ovoz boylamlari faoliyatini ko'rish usuli. Qattiq, yumshoq, nafasli tovushlar atakasi farqlanadi.

**Ataksiya-** harakat yo'nalishi, ko'lami, aniqligi tempini nomutanosibligida paydo bo'luvchi harakati koordinasiyasi, bo'ysunuvchanligining buzilishi. Bu

miyachaning vestibulyar labirinti va chuqur sezuvchanliu yo'llarini jaraohatlanishida paydo bo'ladi.

**Atrofiya-** qaysidir sezgi, xususiyatni yo'qotilishi, o'tmaslashib qolishi. Atrofiyada a'zo to'qimalarni kichrayishi hisobiga kichrayib qoladi. Patologik atrofiya to'qimalarni oziqlanishini buzilishini keltirib chiqaradigan turli xil omillar natijasida paydo bo'ladi.

**Audiogramma-**maxsus audiometr asbobi yordamida eshitishni tekshirishdan olingan ma'lumotlarni maxsus jadvaldagi grafik tasviri.

**Audiometriya-** eshitish o'tkirligini tekshirish.

**Autizm-** psixik holatning kasalligi bo'lib, tashqi dunyodan tashqaridaligi, o'zining ichki dunyosi, o'zining ichki kechinmalari bilan chegaralangan. Autizmmda ko'pincha, hozir bo'layotgan vaqyea- hodisalar o'tib ketgan hodisalar bilan, haqiqiy- fantaziya bilan aralashtiriladi. Autizimli bolalarda hulq -atvorning buzilishlari, fantaziylar, o'yinlardagi faollikning pastligida yaqqol namoyon bo'ladi. Bolalar hafa, o'zi- btilan o'zi bo'lib qoladi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotchanligi yo'qoladi, nutqiy ikloqot kamyib ketadi. Ba'zan bolalar nutqdan foydalanmay qo'yishadi (mutizm), atrofdagilar nutqiga ta'sir ko'rsatishmaydi.

**Autogen mashqlar-**davolashning psixoterapevtik metodi bo'lib, bemorlar muskullarini bo'shashtirish, o'z- o'ziga ishontirishga o'rgatish, diqqatni turg'unligini va tasavvur kuchini, ixtiyorsiz aqliy faollikni subyekt faoliyatini ahamiyatini, samaradorligini oshirish maqsadida rivojlantirishdir.

**Afaziya-** bosh miya tramvmalari natijasida ( qon- tomir kasalliklari, insult, miyaning shamollash bilan bog'liq kasalliklari- ensefalit, absesslarda) nutq o'choqlarini jaraohatlanishi natijasida nutqni to'liq yoki qisman yo'qolishi. Afaziya o'zida nutq faoliyatining turli xil tizimli buzilishlarini aks ettiradi, u nutqning fonematik, morfologik, semantik tuzilishini buzilishida shuningdek, nutq apparati harakatlarining saqlangan holda nutqni tushunishning buzilishi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Quyidagi afaziya turlari farqlanadi:

**Afferent afaziya-** so'zlarni talaffuzining buzilishi, bir tovushni boshqasi bilan almashtirilishi, mustaqil yozish va diktovka asosida yozishning buzilishi;

**Efferent motor afaziya-** nutq aktlarining kinetik buzilishi, nutqiy stereotiplarning turg'unligi sababli bir so'zdan ikkinchisiga o'tishdagi qiyinchiliklar;

**Sensor afaziya-** eshitiuv o'tkirligi saqlangan holda idrok etilayotgan barcha tovushlarning buzilishi; og'zaki nutqni tushunnishdagi qiyinchiliklar, diktovka



asosida yozishda nutq tovushlarini akustik tahliliga muhtoj bo'ladilar, ko'chirib yozish, o'qishda esa bunga muhtojlik sezishmaydilar;

**Akustik-** mexanik afaziya- nutq eshituv xotirasining atrofdagilar nutqini tushunishdagi qiyinchiliklar ko'rinishida buzilishi, predmetlar nomi va ularning tasvirini, so'zlar ka kichik iboralarni esdan chiqarilishi;

**Semantik afaziya-** alohida mantiqiy grammatik qurilmalarni buzilishi (dadamning ukasi, dadamning ukasining akasi, yozdan oldin bahor keladi kabi), sanoqning buzilishi, fazoviy tafakkurning buzilishi qo'shilib keladi;

**Dinamik afaziya-** nutqiy ifodani ketma- ketligini buzilishi nutqni rejalashtirishni buzilishi ko'rinishida namoyon bo'lib, bog'langan og'zaki nutqni buzilishida va yozma nutqda faoliyatlarni bildiruvchi so'zlarni faollashtirishdagi qiyinchiliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

**Affekt-** emosional holatning bir turi bo'lib, bu kuchli, qisqa muddatli, keskin kechivchi hissiyotlardir.

**Afferentli-** markazga boruvchi, uzatuvchi.

**Afoniya-** shivirlagan nutq saqlangan holda jaranglagan ovozning yo'qligi. Bo'g' izning o'tkir va surunkali kasalliklarida, shamollashlarda, bo'g' iz muskullarining falajlanishida, bo'g'iz o'smalarida kuzatiladi. Ovoz boylaridagi o'zgarishlarda (sohta yoki bo'g'izli afaoniya), shuningdek, turli isterika va nevrozlarda (funktional yoki isterik afoniya) kuzatiladi. Afoniyaning bevosita sababi ovoz boylamlarining birikmasligi yoki to'liq birikishi bo'lib, uning oqibatida ovoz chiqarish vaqtida havo oqimining siqilib chiqishidir.

**Affrikat-** qorishiq undosh tovush. Bunda talaffuziga ko'ra o'xshash tovushlar birgalikda ko'shimlib, qorishib talaffuz qilinadi.

**Battarizm-** nutq tempining patologik tezlashuvi, taxilaliyaning bir ko'rinishi. Battarizm da nutqiy nafas buzilgan, so'zlar haddan tashqari tez tempda talaffuz qilinib, noaniq, oxirigacha aytilmasdan "yeb qo'yiladi", nutq tushunarsiz.

**Bradikineziya-** harakatlarning umumiy sustlashuvi.

**Bradilaliya-** nutqning patologik sekinlashuvi bo'lib, bunda unlilar cho'zilib, sust, noaniq talaffuz qilinadi. Sinonimi- bradifraziya. Battarizm o'zida nerv jarayonlarini sekinlashishini, umumiy bo'shlikni, tormozlanishni aks ettiradi.

**Bilingvizm-** ikki tillilik.

**Broka markazi-** bosh miyaning chap peshona qismida joylashgan nutq harakat markazi. Broka markazi jarahatlanganda odam so'zlarni talaffuz qilolmaydi (motor alaliya va afaziya). Nutqni motor faoliyatini boshqarishda bu

markazdan tashqari yana boshqa maydonlar ham ishtirok etadi (motor oldi va boshq).

**Harf-** Ma'lum bir tilni alifbosi tarkibidagi grafik belgilar bo'lib, tovushlarni yozuvda va ularni turli - tumanligini ifodalashga xizmat qiladi. Birtta harf turlicha tovushlarni anglatishi mumkin. Boshqa tomondan bitta tovush turli harflar bilan ifodalanishi mumkin. Bitta harf ikkita tovushni anglatishi mumkin (rus tilida: ya, ye, yu ). Rus tilida yanatovush anglatmaydigan harflar ham mavjud:

**Bulbar falajlik-** uzunchoq miyaning kassaliklaridagi klinik hodisa. Uzunchoq miyadagi peshona- miya nervlari- til- yutqun, sayyor, til osti nervlarining jarohatlanishida kuzatiladi. Ko'pincha yuz va uch boshli nervlar ham jarohatlangan bo'ladi. Bulbar falajlik til, lab, yutqun, ovoz boylamlari muskullarining periferik falajlanishi bilan xarakterlanadi va yutishning buzilishi- disfagiya kuzatiladi. Bulbar falajlikda odatda artikulyasiya buzilishlari kuzatiladi (dizartriya): nutq tuzunarsiz, burunli ottenka bilan chiqadi. Ba'zan og'zaki nutq imkonsiz (yo'q) bo'ladi.

**Kundalik lug' at-** har kuni qo'llaniladigan so'zlar, predmetlar, hodisalarning nomlari, bizni o'rab turgan muhit, an'analar, odatlar vaboshqalar nomlari.

**Velyar tovushlar-** til orqa tovushlari (k, g, x)

**Verbal-** so'zli yoki nutqli.

**Vernike markazi-** bosh mb, miyaning ensa qismida joylashgan bo'lib, nuqtani idrok qilish markazi hisoblanadi. Agarda odamda bu markaz jarohatlansa, inson nutq tovushlarini eshitadi, ammo, bu so'zlarni ma'nosini idrok etish qobiliyatini yo'qotadi ( sensor alaliya va afaziya).

**Portlovchi undoshlar-** bu undoshlar talaffuz qilganda tovushlar portlab chiqadi. Sinonimlari: bir muddatli, ekspoziv, portlovchi undoshlar.

**Vibrant-** titrovchi undosh.

**Tashqi nutq-** o'z nomi bilan tashqi, tovushli, ovoqli ifodaga ega bo'lgan nutq.

**Diqqat-** bir vaqtda boshqalardan farqli, bitta predmet yoki hodisaga yo'naltirilgan psixik hodisa. Diqqatning fiziologik asosi- bosh miyaning boshqa o'choqlaridan u yoki bu darajada ustunlik qiluvchi qo'zg'alish o'chog' i (nerv jarayonlarining manfiy induksiyalari qonuni). Diqqat ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Diqqatning oddiy va sodda shakllridan biri insonning hyech bir maxsus istaklarisiz paydo bo'luvchi diqqat, mo'ljal oluvchi refleksdir. Ixtiyoriy diqqatda inson o'z oldiga ma'lum bir obyektga e'tiborini qaratishni maqsad qilib qo'yadi.

**Ishontirish-** anglash va tanqidiylikni pasayishi bilan bog'liq ravishda insonlarning psixologik sohasiga ta'sir etish jarayoni, ishontirilayotgan narsani



idrok etish va amalga oshirishda subyektning avvalgi malakalari va hozirgi holati bilan solishtirish, uni faol maqsadli tushunish, maqtiqiy tahlil qilish va baholash mavjud bo'lmaydi. Ishontirish turli sezgi organlari orqali asosan, eshitish va kshirish analizatorlari orqali amalga oshiriladi. Ishontirish tibbiyotda bemorning ruhiy va somatik holatini tuzatishda, shuningdek, duduqlanuvchi o'smirlar va kattalarda duduqlanishni barataraf etishga kompleks yondoshuvda keng qo'llaniladi.

**Idrok-** Psixologik jarayon bo'lib, obyektiv olamdagi predmetlar vahodisalarini turli qismlari va xususiyatlari majmuyi bilan hozirgi vaqtda faoliyat ko'rsatayotgan sezgi organi bilan aks ettirishdir. Sezish, his qilish jarayonlari bilan birshga idrok bevosita atrof olamda hissiy mo'ljal olishni ta'minlaydi. Diqqat, xotira, taffakkur bilan bog'liq.

**Ifodalash-** xotira jarayonlaridan biri. Eski xotiralar, hissiyotlar, kechinmalar, nutqiy materillar, harakatlarni jonlantirishda ishtirok etadi, natijada avval sodir bo'lgan tizim faollashib, ularni voqyelikda aks ettirishda inson ongida paydo bo'ladi.

**Yuqori ton-** vaqt birligida ovoz boylamlarining tebranish chastotasiga bog'liq ovoz sifati: tebranishlar qancha ko'p bo'lsa, shuncha ovoz ko'p bo'ladi, tebranishlar qancha kam bo'lsa, ovoz shuncha past bo'ladi.

**Oliy nerv faoliyati-** bosh miya katta yarim sharlari va unga yaqin qobiq osti bo'limlarning faoliyati, ular butun organizmni ichki va tashqi olam bilan murakkab munosabatlarini me'yorda kechishini va vaqtga bog'liq ravishda qayta ishlash va tormozlash asosida organizmni tashqi olam sharoitlari bilan muntanosiblashuvini ta'minlaydi.

**Gemiplegiya-** tananing bir tomonini falajlanishi. Gemiplegiyaning to'liq bo'lmagan darajasi gemiparez deb ataladi.

**Genezis-** kelib chiqishi.

**Nutq mashqlari-** logoped ko'rsatmalari bo'yicha nutq a'zolari uchun belgilangan mashqlar tizimi.

**Giperakuziya-** past, atrofdagilar uchun ahamiyatsiz tovushlarga sezgirlikning yuqoriligi. Sensor buzilishlarda kuzatiladi.

**Giperkinez-** haddan tashqari ixtiyorsiz harakatlar, bosh miya qobiq ostida paydo bo'ladigan, bosh miya qobiq'ining organik va funksional buzilishlaridapaydo bo'ladigan keng qamrovli harakat buzilishlari. Harakat buzilishlari xarakteriga ko'ra quyidagi buzilishlar farqlanadi:

**Gipoakuziya-** eshitish o'tkirligining pasayishi.

**Gipnoz-** ongning qisqa muddatli holati bo'lib, uning ko'lami va mazmuni ishontirish mazmunini xarakterlaydi, bu faoliyatlarni idividual boshqarish va o'z-o'zini boshqarish orqali o'zgartiradi Gipnozchining maxsus ta'siri ostida yuzaga keladiga holat.

**Unli tovushlar-** og'iz bo'shlig' idan havo oqimini erkin o'tishi bilan, deyarli hiechi qanday shovqinlarsiz hosil bo'ladigan tovushlar. Ularni guruhlashda artikulyasiyaning quyidagi holatlari asos qilib olinadi: tilning ko'tarilish darajasi, uni ko'tarilish joyi (tilning gorizonatal yoki vertikal holatiga ko'ra), lablarning ishtirokigiga ko'ra.

**Kar-soqovlik-** eshitishning chuqur buzilishi yoki yo'qligi va shu bilan bog'liq nutqning yo'qligi.

**Burunlanish-** nutq tovushlari va ovozni noxush burunli ohang bilan aytilishi.

**Ovoz-** artikulyasion apparat orqali uzatiladigan turli xil balandlikda, kuchda va tembrdagi tovushlar majmui. Ovoz- nutq komponentlaridan biri hisoblanadi. Nafas va artikulyasiya orqali mazmunni (so'zlarni) tashqi ifodalashga xizmat qiladi va bosh miya qobig' i orvali nazorat qilinadi.

**Lab -tish undoshlari-** pastki labni yuqori lab bilan yaqinlashishi natijasida hosil bo'ladigan undoshlar.

**Grafema-** shu tilning yozuv variantiga kiruvchi asosiy tizimli birlik; fonemalarni yozuvda harflar bilan ifodalash.

**Gu-gulash-** bolaning hayotini birinchi 2-3 oyligida ovoz reaksiyalari, ilk guvranish bosqichlari.

**Daktilologiya-** kar- soqov odamlarni o'zaro va atrofdagi boshfa odamlar bilan muloqot qilishiga xizmat qiluvchi qo'l alifbosi. Daktil belgilar harflar o'rnini bosadi, chiziladigan belgilar bosma yoki qo'l yozma shriftdagi harflarni bildiradi.

**Ikki tillilik-** ikki tilni birdek o'zlashtirish.

**Debillik-** oligofreniyaning ancha yengil darajasi bo'lib, bunda bolar nutq, elementar yozuv qv hisob ko'nikmalarini, keyinchali yordamchi maktab dasturidagi barcha fanlarni egllay oladilar; jamoat, foydali mehnatga moslasha oladilar, murakkab bo'lmagan kasblarni egallay oladilar va buning oqibatida o'zlari mustaqil hayot kechira oladilar.

**Demensiya-** aqli zaiflik, bilish faoliyatlari, tanqid va xotraning turg'un pasayishi, hissiyotlarning qo'polloshishi. Oligofreniyadan farqli o'laroq, bunda smya faoliyatining buzilishi bolaning me'yorda rivojlangan davrdan keyin, bir qator sababalar (shizofreniya, epilepsiya, miyaning shamollash bilan bog' liq



kasalliklari, travmalari) oqibatida paydo bo'ladi. Demensiya­dagi intellektual nuqson tabiatiga ko'ra orqaga qaytmaydi.

**Defekt-** bolaning me'yoriy rivojlanishini buzilishini keltirib chiqaradigan jismoniy yoki psixik nuqsonlar. Asosiy nuqson turlari: ko'rish, eshitish, harakat buzilishlari, psixika va nutq buzilishlari.

**Deontologiya-** pedagogik etika, estetika, hulq- atvor haqidagi fan bo'lib, xususan logoped sifatida logopatlar, ularning qarindoshlari, ishdagi hamkasblari bilan qanday munosabat o'rnatishni o'rganish.

**Deprivasiya-** asosiy ehtiyojlarni yetarlicha qondirilmassligi. Dekompensasiya-

**Defektologiya-** jismoniy va psixik kamchiliklarga ega bolalar rivojlanishi, ta'lim va tarbiyasi qonuniyatlari haqidagi fan. Defektologiya quyidagi mustaqil sohalarga bo'linadi: surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya.

**Didaktik material-** o'quv ko'rgazmalari turi.

**Dizartriya-** nutq apparati innervasiyasining organik buzilishi oqibatida nutqning talaffuz tomonidan buzilishi. Bunda artikulyasiyaning buzilishi, nutqning motor faoliyatida ishtirok etuvchi muskullardagi parezlar, tortishishlar, giperkinezlar yoki mushaklar ataksiyasi sababli nutqda undosh tovushlarni talaffuz qilish qiyinlashadi. Nutq tushunarsiz, noanik yoki cho'zilgan, sekinlashagan, uzulishli bo'ladi. Dizartriya jarohatlanish o'chog'iga qarab farqlanadi: bulbar, psevdobulbar, ekstrapiramidal, miyachali, qobiq osti.

**Dinamik stereotip-** shartli va shartsiz reflekslarning turg'un tizimiga tegishli.

**Disgrafiya-** yozuv jarayonining qisman o'ziga xos buzilishi. Yozuv grammatik qoidalarini bilishiga bog'liq bo'lmagan turg'un, qo'pol va o'ziga xos xatoliklar bilan amalag oshiriladi. Quyidagi tur disgrafilar farqlanadi: artikulyator-akustik, fonematik idrokni buzilishi bilan bog'liq, til analizi va sintezi buzilishi asosida kelib chiqadigan, agrammatik va optik disgrafiyalar. Disgrafiya odatda og'zaki nutq buzilishlari bilan qo'shilib keladi (alaliya, afaziya, dizartriya, dislaliya), shuningdek, eshitish nuqsonlarida, oligofreniyada kuzatiladi, ammo, o'zi mustaqil ham paydo bo'lishi mumkin.

**Dislaliya-** nutq apparati innervasiyasi va eshituv saqlangan holda tovushlar talaffuzining buzilishi. Kelib chiqish sabablariga ko'ra funksional va mexanik (organik) dislaliya farqlanadi.

**Disleksiya-** O'qish jarayonining qisman o'ziga xos buzilishi. Disleksiyada o'qishda ko'pincha fonetik jihatdan bir- biriga o'xshash tovushlarni almashtirishi va qorishtirishi kuzatiladi. Shuningdek, grammatik jihatdan o'xshash harflar ham

almashtiriladi, so'zlarning tovush- bo'g'in tarkibi buziladi, agrammatizm, o'qiganlarini tushunishni buzilishi kuzatiladi. Quyidagi tur disleksiyalar farqlanadi: fonematik, semantik, agrammatik, mnestik, optik, taktil. Disleksiya asosida asosan og'zaki nutqning buzilishi yotib, u lug'atining kambag'aligida, nutqning grammatik qurilishini buzilishida, shuningdek, fonematik idrokning buzilishi va tovushlar talaffuzining buzilishida namoyon bo'ladi.

**Disfoniya-** bo'g'inning o'tkir va surunkali kasalliklarida ovoz buzilishi. Disfoniya ovoz saqlanib qoladi, ammo to'laqonli bo'lmaydi, ovoz sust, xirillagan, titroqli, uzulishli bo'ladi.

**Diksiya-** so'zlarni aniq, tushunarli, ifodali talaffuz qilinishi.

**Tovushlar differensiasiyasi-** tovushlar talaffuzini tarbiyalash bo'yicha korreksion ish bosqichi bo'lib, bu bosqichda logopetlarda o'rganilayotgan tovushni talaffuziga va hosil bo'lish o'rniga ko'ra yaqin tovushlardan farqlash malakasini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

**Ta'limning tushunarligi-** didaktik tamoyil bo'lib, bunda ta'lim o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning yoo'i, individual xususiyatlarini hisobga olib tashkil etiladi.

**Duduqlanish-** kommunikativ faoliyatini buzilishi, bunda uning ravonligi ixtiyorsiz, tutilishlar, majburiy takrorlash, alohida bo'g'inlar va so'zlarni cho'zilishi kuzatiladi. Nutqiy tutilishlarga bo'ysunadi (klonik, tonik, aralash).

**Ruhiiy rivojlanishning sustlashuvi-** bolalarda me'yoriy ruhiy rivojlanish tempining buzilishi.

**Nutq tovushi-** nutq a'zolari orqali hosil qilinadigan, nutqda talaffuz qilinadigan element. Nutqni fonetik tahlil qilishda tovush- so'zning bir qismi, bir artikulyasiyada talaffuz qilinadigan qisqa tovush birligi hisoblanadi.

**Oynavand yozuv-** yozma nutq buzilishi bo'lib, unda so'zlar va harflar huddi oynadagi aksidek yoziladi.

**Logopedik zondlar-** tovushlarni nutqqa qo'yishda tilga mexanik ta'sir ko'rsatish va ba'zi tovushlar talaffuzini korreksiyalash uchun mo'ljallangan zang'lamaydigan metallardan tayyorlangan asboblardir.

**Impressiv nutq-** nutqni idrok etish, tushunish. Og'zaki impressiv nutq talaffuz qilingan so'zlarni to'g'ri eshitishda, yozma impressiv nutq - matnni ko'rib idrok etishda (o'qishda) namoyon bo'ladi.

**Inversiya-** so'zlarning aks tartibi.

**Innervasiya-** a'zolar va to'qimalarni nerv bilan ta'minlash.

**Inspirasiya-** nafas olish.



**Infantilizm-rivojlanishdan** orqada qolish, katta bo'lg'anda ham jismonan tuzilishi yoki hulq-atvorini yosh bolalarga xosligicha qolishi.

**Qo'zg'alish irradiyasiyasi-** qo'zg'alish jarayonini u paydo bo'lgan o'chog'idan atrofidagi nerv to'qimalariga tarqalishi.

**Iterasiya-** takrorlashlar, tutilishlar, nutqdagi takrorlashlar.

**Katamnez-** bemor haqida tuzalaganidan keyingi ma'lumotlar.

**Kinestetik sezgi-** a'zolar holati va harakatlarini va o'zining tana a'zolari qismini sezish.

**Kommunikativ-** emosional, g'am, qayg'u, quvonch va boshqa hissiyotlardan farqli o'laroq, nokommunikativ ifodalardan tashkil topgan intellektual mazmuni berish ko'rinishidagi muloqotdir.

**Kompensasiya-** buzilgan faoliyat o'rnini boshqa faoliyat bilan o'rnini bosish.

**Konvergensiya-** tilning turli tovushlarini o'xshashi yoki hatto mos kelishini ifodalash ko'rinishidagi o'zgarishlar.

**Kontaminasiya-** so'zlarni xato ifodalash bo'lib, ikki va undan oriq so'zlarni o'zaro qorishtirilishi. Mazmuniy va fonetik yaqin so'zlar kontaminasiya paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Kontaminasiya alaliya va afaziyada kuzatiladi, ammo sog'lom odamlarda ham yangilish sifatidakuzatiladi.

**Korreksion pedagogika-** (maxsus pedagogika, defektologiya) pedagogik fan bo'lib, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonga ega bo'lgan bolalarni rivojlantirishi, ta'lim va tarbiyasi qonuniyatlarini o'rganadi.

**Tovushlar talaffuzini korrektsiyalash-** tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni tuzatish.

**Laringospazm-** bo'g'iz, tovush paychalari muskullarining tortishishli qisqarishi.

**Lateral-** yon tovush.

**Bo'g' inli nutq-** bolaning ijobiy qo'zg'atuvchilarga nisbatan ovozli reaksiyasi. Bo'g'inli nutq odatda gu-gulashtan keyin 5-6 oylikda paydo bo'lib, turli xil bolaning ona tilida mavjud va mavjud bo'lmagan unli va undosh tovushlar birikishidan hosil bo'ladi.

**Logonevroz-** nutq buzilishi- duduqlanish shaklida namoyon bo'luvchi nevroz.

**Logopat-** nutq nuqsonga ega shaxs.

**Logoped-** bolalar va kattalar nutqidagi nuqsонlarni barataraf etish bilan shug'ullanadigan o'qituvchi.

**Logopedik punkt-og'zaki** va yozma nutq nuqsонlarini barataraf etish bo'yicha logoped- o'qituvchi rahbarligida mashg'ulotlar olib boriladigan maxsus muassasa.

**Logopediya-** nutq nuqsонlari, ularni oldini olish, aniqlash va maxsus ta'lim va tarbiya vositasida barataraf etish metodlari haqidagi fan bo'lib, korreksion pedagogikaning bir bo'limidir.

**Soxta un paychalari-** bo'g'izda shilliq pardalardan hosil bo'luvchi burmalar.

**Lokolizasiya-** qandaydir hodisa, jarayonlarni rivojlanish joyi.

**Makroglossiya-** til muskullarini haddan tashqari o'sib ketishi, kam uchraydigan tug'ma anomaliya.

**Manoral tizim-** tovushlar artikulyasiyasini ko'z ilg'amaydigan elementlarini to'ldiruvchi maxsus qo'l belgilari tizimi. Qo'l panjalari va barmoqlarining turlicha holatlari yordamida ovoz paychalarining birikkan yoki birikmaganligini, yumshoq tanglayni ko'tarilgan yoki tushirilganligini, shuningdek, ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan tilning artikulyasiyasi belgilarini bildirish mumkin. Monoral tizim belgilari labdan o'qish uchun yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

**Tibbiy- pedagogik-psixologik konsultasiya-** anomal bolalarni mos o'quv-tarbiya muassasasi yoki sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanma berish uchun kompleks tibbiy- psixologo- pedagogik tekshirishni o'tkazadigan maxsus muassasa.

**Maxsus metodika-** rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nuqsонlarni barataraf etishga yo'naltirilgan ta'lim usullari va vositalari tizimi.

**Mimika-** insonlarning turli xil kechinmalarini (quvonch, qayg'u, havotir, qo'rquv va hakoza) aks ettiruvchi yuz, ko'z muskullarining harakati.

**Imo-ishorali nutq-** og'zaki nutqga ega bo'lmagan kar-soqov odamlarning muloqot shakli bo'lib, sodd muloqot va tafakkur shakli bo'lsa ham mustaqil muloqot shakli. Uning asosini imo- ishoralar tizimi tashkil etib, har biri o'ziga xos ma'noni bildiradi. Shuningdek, bunda mimika ham ishtirok etib, u nafaqat his-tuyg'u vaolatlarni bildiradi, balki imo- ishoralarning ma'nosini o'zgartiradi.

**Miokloniya-** giperkinez, alohida yoki bir guruh muskullarning tez va qisqa tortishishi.

**Motorika-** insonlar va hayvonlarning harakat reaksiyalari tizimi.

**Tovush modulyasiyasi-** intonasiya bilan bog'liq ravishda ovoz balandligini o'zgarishi. Tovush modulyasiyasi zaif eshituvchilikda va ayniqsa karlikda aziyat chekadi, nktq monoton bo'lib qoladi. Ta'limda ovoz kuchaytiruvchiapparatlardan, maxsus mashqlardan foydalaniladi.



**Monoplegiya**- bir tomonni falajlanishi.

**Ovoz mutasiyasi**- balog' atga yetish davrida bo'g' izni jadal o'sishi bilan bog'liq ravishda ovozni o'zgarishi.

**Mutizm**- psixik travmalar oqibatida nutqiy muloqotning buzilishi (nutqni yo'qotish). Mutizm vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, ba'zan yillab davom etadi. Uning asosida nutq -harakat analizatorining tormozlanishi qobiq osti to'qimalarni u yoki bu kuchli qo'zg'atuvchilar ta'siri natijasida (qat'iy talabchanlik, turli konliklar, janjallar, hafagarchili va hakoza ) zaiflashuvi sifatida yotadi. U uyatchan, bo'sh, o'z kuchiga ishonmaydigan bolalarda uchraydi. Ba'zan mutizm psixogen travmalarning bir qismini, masalan, o'tkir psixologik shokning bir qismini tashkil etadi.

**Tafakkur**- predmetlarni umumlashtirish va bevosita predmetlar va hodisalarni voqeylikda aks ettirish. U hissiy bilishga tayanadi (sezgi, idrok, tasavvur, obrazli xotira), ammo, uning chegarasidan chiqib, odamda nutq bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi. Tafakkur bilish faolidantining yuqori darajadagi jarayonlaridan biri hisoblanadi. Tafakkurning fiziologik asosini - bosh miya qobig'idagi analiz- sintezining oxirgi faoliyati tashkil etadi. Intellect me'yorda va analizatorlari tizimi sog'lom bolalarda avval ko'rgazmali- harakatli tafakkur, so'ng, uning asosida - ko'rgazmali- obrazli tafakkur rivojlanadi.

**Optik-gnostik buzilishlar**- alohida belgilar va xususiyatlarni ilg'ab qolish qobiliyatiga qaramasdan, predmetlarni bir butunligicha ko'ra olmaslik.

**Nutq organlari**- nutq tovushlarining hosil bo'lishida ishtirok etuvchi inson organizmining turli qismlari (nutq apparati). Nutq organlaridan faol, harakatchan asosiy ishni bajaradigan, tovush hosil bo'lishi uchun zararlari- til, lablar, yumshoq tanglay, kichik tilcha, halqum. Nutq organlarining pasiv, harakatsiz, mustaqil harakatlana olmaydigan, ammo tovush hosil bo'lishida faol organlar uchun tayanch bo'ladiganlari- tishlar, qattiq tanglay, alveolalar, yutqun, burun bo'shlig'i, bo'g' iz. Tovushlar hosil bo'lishida harakatlantiruvchi kuch sifatida (hva o qimini hosil qilish uchun) diafragma, o'pka, bronxlar, traxeya ishtirok etadi.

**Ortodontiya**-tishlar qatori va yuz-jag' skletining turg' un deformasiyasini oldini olish va tuzatishni o'rganish bilan shug' ullanadigan tibbiyot bo'limi.

**Deformasiya** -tishlarning shakli va soni, joylashishini o'zgarishi, prikuslardagi kamchiliklar ko'rinishida kuzatiladi.

**Ortofoniya**-ovoz buzilishlarini davolashning maxsus turi

**Muloqotning paralingvistik vositasi**- imo- ishoralar, mimika.

**Parez**- to'liq darajada bo'lmagan falajlik yoki qayta rivojlanish bosqichidagi falajlik.

**Paroksizm**- to'satdan va tez paydo bo'luvchi kasallik hodisalari yoki ularni o'tkir hurujlar ko'rinishida kuchayishi.

**Paronimlar**-bir o'zakli talaffuziga qo'ra o'xshash, lekin ma'nolari turlicha bo'lgan so'zlar. Paronimlar ko'pincha bir tovush bilan bir- biridan farq qiladi. Masalan: *amr-amir, asr-asir, shoh-shox* va hakoza.

**Passiv lug'at**- odatdagi nutqiy muloqotda qo'llanilmaydigan, ammo, tushunarli, tanish so'zlar.

**Patogeneza**-patologiyaning bir bo'limi bo'lib, kasallik asosida yotadigan patologik jarayonlarning kelib chiqishini ichki mexanizmlarini va rivojlanishini o'rganadi.

**Patologik**- kasal, me'yorda emas.

**Perservasiya**- xotra obrazidagi bitta so'zni xiralik bilan ko'p marta takrorlanishi. Perservasiya ko'pincha afaziyaning bir nechta shakllarida ovoz chiqari o'qish va yozishida kuzatiladi.

**Nerv jarayonlarining harakatchanligi**- nerv jarayonlariga xos asosiy jarayonlardan biri bo'lib, organizmni atrof muhitdagi o'zgarishlaraga tezda ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ta'minlaydi. Nerv jarayonlari harakatlarning patologik o'zgarishi nerv tizimining bir qancha jarohatlanishlarida, xususan, oligofreniyadagi patologik inertlikda kuzatiladi.

**Taqlid**- Bola rivojlanishida katta rol o'ynab, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda qandaydir harakatlar, holatlar, faoliyatlar va boshqalarni takrorlashdir. Kattalarga taqlid qila turib bola nutq va hulq- atvor shakllarini, turli xil odatlar va ko'nikmalarni egallaydi. Bola rivojlanishida ixtiyorsiz taqlid ongli, ixtiyoriy bo'lib boradi.

**Tovush qo'yish**- kar, zaif eshituvchi va nutq nuqsoniga ega bolalarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishning birinchi bosqichi bo'lib, saqlangan analizatorlardan, turli xil metodik usullar, mexanik vositalardan keng foydalanilishi bilan xarakterlanib, natijada bola u yoki bu tovushning birlamchi talaffuz malakalarini o'zlashtiradi.

**Nutqning predikativ faoliyati**- muhokama predmetini ifodalovchi nutqiy ifoda faoliyati (ma'lumot berish faoliyatlaridan biri).

**Odatlar**- inson ehtiyoji uchun ma'lum sharoitlarda bajariladigan avtomatlashgan harakatlar.Tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri- bolalarda ijobiy



odatlarni shakllantirish, salbiy odatlarni oldini olish va shakllanib bo'lgan salbiy odatlar bilan kurashishdir.

**Ko'nikmalar-** avtomatlashgan harakatlar.

Ta'limdagi ko'rgazmalilik- didaktik tamoyillardan biri bo'lib, bunda ta'lim o'quvchilar bevosita idrok etadigan aniq obrazlar asosida tashkil etiladi. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish nafaqat bolalarda ta'limiy tasavvurlarni, balki, ular orasidagi farqli bog'liqlik va o'zaro aloqlar haqidagi tushunchalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

**Nazallanish (burunlanish)-** tanglay burmalrini pasga tushirilishi va birvaqtda havo oqimining og'iz va burun bo'shlig'idan chiqarilishi oqibati burunli ottenkaga ega tovushlarni, asosan undosh tovushlarni talaffuz qilinishi.

**Ovoz buzilishlari-** ovoz hosil bo'lish apparatidagi kamchiliklar natijasida ovoznig yo'qligi yoki buzilishlari.

**Nutq buzilishlari-** nutq faoliyatining psixolingvistik mexanizmlarini me'yoriy faoliyatining buzilishi natijasida kelib chiqadigan va qisman buzilishlar sifatida (tovushlar talaffuzi, ovoz, nutqning tempi, ritmi va hokozolar.) namoyon bo'ldgan gapiruvchining shu til me'yorlarida qabul qilingan qoidalarni buzib gapirishi. Kommunikativ nuqta'yi nazardan nutq buzilishlari- bu verbal muloqotning buzilishidir. Sinonimlari: nutq buzilishi, nutq nuqsoni, nutqdagi yetishmovchilik, nutqiy patologiya.

**O'qish va yozish buzilishlari-** nutqning grafik shaklini egallashdagi keskin qiyinchiliklar, bu ko'pincha bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligida kuzatiladi. Ammo, o'qish va yozish buzilishlari ko'pincha nutqning talaffuz tlmonini buzilishlarida ham kuzatiladi. O'qish va yozish buzilishlarini bartarf etishning asosiy vazifasi bolalarda so'zning tovush tarkibi haqida aniq tasavvurlarni shakllantirish bilan bir vaqtda tovushlar talaffuzini tuzatish, nutqiy tovushlarni idrok etish va ifodalashda analiz va sintez ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bunday ishlar ommaviy maktablardagi logopunktlarda yoki nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab- internatlarda amalga oshiriladi.

**Nevropatiya-**konstitutsional asabiylik (nerv sistemasining yuqori qo'zg'aluvchanligi).

**Negativizm-** bolani unga kattalar tomonidan ta'siriga sababsiz qarshilik ko'rsatishi. Nutqiy negativizm-bu nutqiy muloqotdan kat'iy boshtortish.

**Neyrolingvistika-** psixologiyaning bir bo'limi bo'lib, psixologiya, nevrologiya va lingvistikani o'z ichiga qamarab oladi.

**Oligofreniya-** turli sabablar natijasida kelib chiqadigan psixologik rivojlanmaslikning o'ziga xos shakli: patologik nasliylilik, xromosoma abberasiyalari (o'zgarishlari), homilaning jarohatlanishi, tug'ruq patologiyalari, homiladorlik davrida yoki erta rivojlanish bosqichlarida markaziy nerv tizimining organik jarohatlanishi.

